

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 321.7 (S-21)

SOIPOV BEHZOD IKROMJONOVICH

ARAB DAVLATLARIDA DEMOKRATLASHTIRISHNING ASOSIY
BOSQICHLARI VA SIYOSIY MUAMMOLARI
(Misr misolida)

5 A 310105 – Xalqaro tizimlar va global rivojlanishning siyosiy
muammolari

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: s.f.n. Muhammadsidiqov M.M.

Toshkent – 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. DEMOKRATIYA TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI	11
1.1. Demokratiyaning xususiyatlari va ko‘rinishlari	11
1.2. Hozirgi zamon demokratik mamlakatlari va ularning xususiyatlari	18
2-BOB. ARAB DAVLATLARIDA KECHAYOTGAN SIYOSIY JARAYONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	31
2.1. Arab davlatlarida siyosiy jarayonlar va ularning mohiyati	31
2.2. Shimoliy Afrika arab davlatlari siyosiy tizimlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	41
3-BOB. MISRDA DEMOKRATIK JARAYONLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI	55
3.1. Misrda demokratik tamoyillarni siyosiy jarayonlarga tadbiq etishning uslubiy jihatlari va muammolari	55
3.2. Misr davlat boshqaruv tizimining shakllanishining amaliy masalalari	68
XULOSA	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	81

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi dunyoning rivoji xalqaro hamjamiyat tizimidagi olamshumul o'zgarishlar, jumladan ikki qutbli dunyoning qulashi va jahon geosiyosiy xaritasidagi o'zgarishlar bilan ifodalanishi mumkin. Bularning barchasi birgalikda davlatlar tomonidan yo'qotilgan muvozanatni kollektiv xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllari bo'lmish integratsiyaviy tashkilotlardan izlashga undadi.

Hozirgi kunda boshqa mintaqalar singari, arab dunyosida xususan Arab Mag'ribi davlatlarining o'zaro integratsiyaviy jarayonlari chuqurlashib bormoqda. Bu holat globallashuv va oxirgi vaqtlarda ro'y bergan jahon moliyaviy inqirozi va tanazulli natijasida yanada dolzarblashmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimovning adolatli so'zlariga asosan, "Jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq"¹. Shu jihatdan mintaqaviy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga adekvat ravishdagi javob bo'ladi deyishimiz mumkin.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha ijtimoiy islohotlarning negizida asosiy bosh g'oya qilib yurt tinchligi va xalq farovonligi maqsad qilib olingan ekan, shubhasiz xalqaro maydondagi tajribalarni o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish orqali bu maqsadlarga osonroq va jadallik bilan erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov "Barchamizga yaxshi ma'lumki, biz o'z vaqtida shu borada muhim qarorlar, xususan, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunni qabul qilgan edik.

Shuningdek, siyosiy partiyalarning saylovlarda qatnashib, o'zining nimalarga qodir ekanini isbotlashga, amalda bu partiyalarni O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan

¹ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартарафи этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б. 6.

chuqur o'zgarishlarning hal qiluvchi kuchiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, joriy etilganidan ham xabardorsiz - deb, ta'kidlab o'tgan"¹.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarining ustuvorligini tan olgan hamda unga og'ishmay amal qilayotgan demokratik davlatlardagi siyosiy jarayonlarni o'rganish hamda demokratlashtirish jarayonlarini o'rganish orqali birinchidan milliy huquqni yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'lsak, ikkinchidan ushbu davlatlarning mavjud ijtimoiy (konstitutsiyaviy) tuzumi haqidagi tasavvurlarimiz xalqaro va millatlararo do'stlik rishtalarining mustahkamlanishiga asos soladi.

Davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari mexanizmini yaratish borasida jahondagi yetakchi davlatlardan andoza olishimiz bilan birga ming yillardan beri shakllangan milliy urf-odat va an'analar, ajdodlarimizning boy merosini o'zlashtirgan holda jamiyatimizni yanada demokratlashtirish imkoniga ega bo'lamiz.

Jamiyatimizda islohotlarni samarali tashkil etib, nihoyasiga yetkazish uchun ularning muntazam kuzatib borish va o'rganish zarur. O'zbekistonda kechayotgan o'zgarishlarni baholashning eng samarali usullaridan biri – bu hozirgi jarayonlarni jahon tajribalariga taqqoslash, ularni jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarda yuz bergan demokratik rivojlanishlarda o'rganishdir. S.Xantington ta'kidlaganidek, “yangi demokratik jamiyatlar bir-birining hamda ancha avval paydo bo'lgan demokratik jamiyatlar tajribasidan foydalanishlari lozim”¹.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda vatan va chet el tarixining turli masalalarini tadqiq etish imkoniyati paydo bo'lganidan foydalanib, respublikamiz tarixchilari, siyosatshunoslari, O'zbekiston bilan bevosita hamkorlik va do'stona munosabatlarda bo'lgan davlatlarning tarixini va siyosiy tizimini o'rganishni, demokratik rivojlanish tajribasini o'rganishga kirishgani ma'lum.

¹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. – Т.: Ўзбекистон 2010. – Б. 28.

¹ Демократия и авторитаризм в третьем мире в конце XX века. (Концепция С.Хантингтона и отклики на нее). - М.: Изд-во РАН. 1995. - С. 12.

Mavzuning dolzarbligini belgilovchi yana bir omil – bu mustaqil O‘zbekiston siyosatshunosligida arab davlatlarida demokratik jarayonlarning rivojlanish bosqichlarini qiyosiy tahlil etishdan iborat.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Demokratik jarayonlar, demokratiya rivojlanishini belgilovchi shart-sharoitlar va omillarni o‘rni va rolini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar va asarlar ko‘p sonli bo‘lib, ular masalaning u yoki bu jihatlarini qamrab oladi.

Demokratik institutlarning shakllanishi, ko‘ppartiyaviylik tizimini va siyosiy partiyalar faoliyati muammolarini tadqiq qilishga doir dastlabki qarashlar va nazariyalar mustaqillikdan keyin paydo bo‘la boshladi. Ayniqsa, A.A. Azizxo‘jaev, Q.Xonazarov, A.Saidov, R.Jumaev, S.Jo‘raev, R.Farmonov, T.Jo‘raev, H.Vohidov, J.Toshqulov, M.Qirg‘izboyev, M.Umarxo‘jaev, Q.Tursunov, U.Tojixonov, A.Tursunov, U.Idirov, Z.Islomov kabi olim¹ va tadqiqotchilar demokratik institutlarning shakllanishi, ko‘ppartiyaviylik va siyosiy partiyalar tizimining turli qirralarini yoritishga harakat qilganlar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq mintaqasi, Fors ko‘rfazi mintaqalariga tegishli mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borgan sharqshunos olimlar talayginadir. Sh.Yovqochev, Z.Munavvarov, A.Haydarov, R.Qodirov, S.G‘afurov, S.Inog‘omov, F.Samariddinov² va shuningdek tadqiqodchi

¹ Azizxўjaev A.A. Демократия–халқ ҳоқимияти демакдир. -Т.: Шарқ, 1996; Қирғизбоев М. Фукаролик жамияти: сиёсий партиялар, сиёсий мафкуралар, сиёсий маданиятлар. -Т.: Шарқ, 1998; Қирғизбоев М. Ўзбекистонда фукаролик жамияти институтларининг шаклланиши ва ривожланиши / Сиёс. фанл. докт. ... дис. автореф. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, 2007; Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. -Т.: Фан, 1996. 207 с., Джумаев Р.З. Проблемы формирования и укрепления политической системы Республики Узбекистан. Дисс. На соиск. Ученой степени доктора политических наук. - Т.,1997., Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т.: Фан, 1996; Жумаев Р.З. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлда. – Т.: Шарқ; Жумаев Р.З. Сиёсий партиялар демократия йўлида. // Жамият ва бошқарув. – Т., 1999; Жумаев Р.З. Демократизация как фактор укрепления гражданского общества. // Демократия и право. – Т., 1997; Одилқориев Ҳ.Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.-Т.:Ўзбекистон, 1995; Фармонов Р., Жўраев Қ. Қиёсий сиёсий тизимлар ва кўппартиявийлик. – Т.: ЖИДУ, 2000; Саидов А.Х. Ҳозирги замон асосий ҳуқуқий тизимлари. -Т., 2004., Саидов А.Х. Қиёсий конституцияшунослик. -Т.: Академия МВД, 1993.; Идилов У.Ю. Демократлаштириш шароитида парламент институтини такомиллаштириш – жамиятни янгилашнинг етакчи асоси // Ўзбекистонда парламент институтининг ривож ва истиқболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010.; Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Т.: Ўзбекистон, 2005; Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. - Т.: Ўзбекистон, 2007;

² Ёвқочев Ш.А. Исламский экстремизм на Ближнем Востоке: взаимосвязь между религиозным фундаментализмом и терроризмом. //«Борьба с международным терроризмом, экстремизмом и сепаратизмом в современном мире». Конференция материаллари ОУМТ ва ТошДШИ. -Т.:2002. С. 58-63.,

M.Muhammadsidiqov¹ boshqa ko‘plab tadqiqotchilar zamonaviy siyosatshunoslik va sharqshunoslik sohasida o‘zlarining salmoqli hissalarini bilan alohida ajralib turadilar.

Shimoliy Afrika davlatlari, Yaqin Sharq, mintaqasi mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi, G‘arb mamlakatlarining ushbu mintaqada olib borayotgan siyosatining asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, ushbu mintaqalarda xavfsizlikni ta‘minlash masalalari xorijlik siyosatshunoslar: Z.Vilyams, Sh.Peter, M.Karl, Sh.Feldman, Ch.Davis, P.Vudvard hamda ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari tomonidan tahlil etilmoqda².

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga oid manbalar qatorida, oxirgi yillarda umuman Shimoliy Afrika mintaqasi davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy, harbiy va iqtisodiy mavzulardagi tadqiqotlari bilan ishtirok etayotgan Rossiyalik tadqiqotchilar V.V. Kudelev, A.B. Borisov, A.A. Kashina, I.S. Berg, D.A. Nechitaylo,³ V.P. Yurchenko, A.L. Nesterenko, V.I. Sajin, V.F. Щennikov, S.

Миср Араб Республикасида: давлат ва диний институтлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қуриш академияси. -Тошкент.: 2007. 36 б., "Братья-мусульмане" и процессы "демократизации на Ближнем Востоке" // Журнал Shygyz (Vostok-Orient), № 1-2. -Алматы (Казахстан), 2007. – С. 102-114., Исламский фактор в политической системе современного Египта. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008; Мунавваров З.И. Страны Аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях XX века. Дис. док. полит. наук. – Тошкент, 1997; Ўзбекистон ва арабский мир: перспективы сотрудничества. – Т.: Фан, 1997; Арабистон ярим ороли мамлакатлари. – Т.: Фан, 1994; Иноғомов С. Саудия Арабистони Подшоҳлиги. – Т.: Фан, 1998; Ғафуров С.М. Форс кўрфази араб давлатлари ва Ўзбекистон Республикасининг минтақавий ва умумжаҳон хавфсизлигини таъминлашдаги мавқеи. Дис. ... сиёсий фанлар док. – Т.: ТошДШИ, 2002. Самариддинов Ф. Жазоирда парламент институти ривожланишининг айрим жиҳатлари // Ўзбекистонда парламент институтининг ривож ва истиқболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Т.: ТошДШИ, 2010., Жазоирда президент институти мустақамланишининг айрим жиҳатлари // Ижтимоий фанларнинг долзарб муаммолари: илмий-услубий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. ;

¹ Муҳаммадсидиқов М.М. Шимоли-Шарқий Африкадаги сиёсий-ижтимоий муаммоларни ҳал этишда Саудия Арабистонининг роли // Шарқшунослик. - Т., ТошДШИ, – 2006. – № 2., Франция ташқи сиёсатида “Африка Франкофон” давлатларининг ўрни // Шарқшунослик. – Т., ТошДШИ, – 2007. – № 1., Кто же станет представителем Африки в Совет безопасности ООН? // Востоковедение. – Т., ТашГИВ, – 2007. – № 1-2., Марказий Осиё билан Африка араб давлатлари ўртасида ўзаро алоқаларни мустақамлашда диннинг аҳамияти хусусида // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Т., – 2007. –№ 2.;

² Zack-Williams, Tunde et al. (eds.), Africa in Crisis New Challenges and Possibilities (London: Pluto Press, 2002), Schraeder, Peter J., African Politics and Society: a Mosaic in Transformation (New York: St. Martin’s, 2000), Peter Woodward. The horn of Africa: State politics and international relations. – London-New York: Tauris Academic Studies, 1996; Davies C.E. (Ed.). Global Interests in the Arab Gulf. – University Press, Exeter, 1992, Magyar, Karl P. (ed.), United States Interests and Policies in Africa: Transition to a New Era (London: Macmillan Press Ltd., 2008)

³ В.Куделев. [Ситуация в Ливии](#): – М.: ИИБВ, 14 декабря 2011; [Ситуация в Марокко](#): – М.: ИИБВ, 15 ноября 2011 года. А.А. Кашина. [Итоги выборов в Тунисе](#): – М.: ИИБВ, 2012, И.С. Берг. [Авторитарные режимы на Ближнем Востоке: причины стабильности и вероятность трансформации](#). – М.: ИИБВ, 27 октября 2011, [Родоплеменные отношения и рабство в Мавритании как составляющие менталитета](#). – М.: ИИБВ, 15 октября 2009, Д.А. Нечитайло. [Исторические фигуры в пропаганде «Аль-Каиды в исламском Магрибе»](#). – М.: ИИБВ, 13 октября 2009. Крол А.А. Египет: основные кандидаты на президентских выборах

Vityuk, Ye.V. Zagornovalarni alohida ta'kidlash o'rinli. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarida Arab davlatlarining XX asr o'rtalaridan hozirgi kunga qadar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivoji masalalari, umumjahon iqtisodiy taraqqiyoti, global siyosiy tangliklar kontekstida xolisona xulosa va sharhlarga ega manbalar sifatida sharqshunoslarning e'tiborini o'ziga tortadi¹.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadini demokratik jarayonlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bir qator Arab davlatlaridagi demokratik jarayonlarni xususan Misr Arab Respublikasi misolida qiyosiy tahlili tashkil qiladi.

Ilgari surilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilmoqda.

- siyosiy tizimning zamonaviy mohiyatini ochib berish;
- Davlat boshqaruvida siyosiy tizimning ahamiyatini yoritib berish;
- Misrdagi siyosiy jarayonlar va ularning mohiyatini aniqlash;
- Misrda siyosiy qarorlar qabul qilishning xususiyatlarini aniqlash;
- Misr davlat boshqaruv tizimining shakllanishining amaliy masalalarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekt va predmeti. Tadqiqotning **ob'ektini** demokratik jarayon, uning unsurlari va bosqichlari hamda xorijiy davlatlar, xususan Misr Arab Respublikasida demokratik jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha amaliyoti va tajribasi tashkil etadi.

Tadqiqotning **predmetini** demokratik jaryonlarni rivojlantirish bo'yicha qiyosiy-siyosiy tajriba va munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning gipotezasi. 1. "Arab bahori" arab davlatlarida xususan Misrda demokratlashtirish jarayonlarining rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. 2. Globallashuv sharoitida energetika zaxirlariga bo'lgan talabning keskin ortib

<http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/21-05-12.htm> , Мохова И.М. Египет накануне президентских выборов:

острая конкуренция основных кандидатов <http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/18-05-12b.htm> ,

Куделев В.В. Ситуация в Египте: апрель 2012 г. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/03-05-12.htm>

¹ Нестеренко А.Л. О влиянии исламского фактора на реализацию геостратегических программ в регионе Большого Ближнего Востока. – М.: ИИБВ, 2003; Сажин В.И. О некоторых особенностях современного международного терроризма. – М.: ИИБВ, 2004; Щенников В.Ф. Особенности современного этапа развития геополитической ситуации на Ближнем Востоке. – М.: ИИБВ, 2003; Витюк С. О роли исламских негосударственных организации в финансировании деятельности экстремистских формирований. – М.: ИИБВ, 2004.

borayotgan bir paytda jahondagi yetakchi davlatlar tabiiy resurslardan foydalanish maqsadida mintaqadagi siyosiy-ijtimoiy muammolarni hal etishga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Dissertatsiyaning nazariy-uslubiy asoslari. Qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun nazariy va metodologik yondashuvlar natijasida umumilmiy va maxsus uslublarga asoslangan holda, xususan, mantiqiy, qiyosiy (qiyosiy-siyosiy va qiyosiy-tipologik), sistemali (sistemali-tuzilmaviy va sistemali-funksional), bashorat qilish, tahlil (kontent-tahlil va ivalent-tahlil) va sintez uslublaridan keng ko‘lamda foydalanildi. Shu bilan birgalikda, tadqiqotni olib borishda, O‘zbekiston ilm-fanida keng ko‘lamda sinovlardan o‘tgan tarixiy metoddan ham foydalanildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari va nutqlaridagi konseptual g‘oyalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2010 yil 27 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir” mavzuidagi ma’ruzasida belgilab bergan vazifalari va amaliy xulosalar ishning metodologik asosini belgilab berdi.

Shuningdek, ishning nazariy bazasini siyosatshunoslik ilmida umume’tirof etilgan doktrinalar, konsepsiyalar va yondashuvlar tashkil etdi. Shu asnoda, integratsiya masalalari bo‘yicha siyosatshunos va davlatshunos olimlar nazariyalari va qarashlari, jamoat va davlat arboblarning yondashishlari, arab davlatlari o‘rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalar va Arab davlatlari Konstitutsiyalari ishning metodologik asosini yaratib berdi.

Nazariy jihatdan dissertatsiyani yozishda O‘zbekiston hamda chet el olimlari, siyosatdonlarining asarlari va maqolalari ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Dissertatsiya oldida turgan nazariy-metodologik muammolarni yechish va mavzuni yoritish jarayonida zamonaviy siyosatshunoslik fani qarashlaridan va ijtimoiy ongga xos bo‘lgan ilmiy uslublardan foydalanildi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi arab davlatlaridagi demokratik jarayonlarning rivojlanishiga hozirgi zamon jahon siyosati, vujudga kelgan jahon

moliyaviy inqirozining ta'siri va bu mamlakatlarda amalga oshirilgan integratsiyaviy amaliyotni Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida qo'llash nuqtai-nazaridan qarash bilan namoyon bo'ladi:

- “demokratiya” tushunchasiga bildirilgan ta'riflar muallif tomonidan umumlashtirilgan;
- Demokratik jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda shart-sharoitlari aniqlashtirilgan va bayon etilgan;
- Hozirgi zamon demokratik davlatlari va ularning xususiyatlari aniqlashtirilgan;
- Misrdagi siyosiy jarayonlar va uning siyosiy tizimi, xususiyatlari va muammolari ochib berilgan;

Shu bilan birga Arab davlatlarida demokratlashtirish jarayonlarining siyosiy ta'siri, uning sabab va oqibatlari yangicha yondashuvda atroflicha tadqiq qilingan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning *ilmiy-nazariy ahamiyati* unda demokratik jarayonlar, demokratik davlatlar va arab davlatlarining siyosiy tizimi va mazkur davlatlarda kechayotgan siyosiy jarayonlarning barcha jabhalari kompleks tadqiq etilganligida, Misr misolida arab davlatlarida demokratlashtirish jarayonlarining xususiyatlari ochib berilganligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda keltirilgan xulosa va takliflardan ilmiy jamoatchilik demokratiya, demokratik davlatlar va arab davlatlarida kechayotgan siyosiy jarayonlarini o'rganish va nazariy tadqiq etish jarayonida foydalanishi mumkin. Shuningdek, Arab davlatlari siyosiy tizimi va Misrning siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik muammolarini hal qilishda muhim roli xozirgi siyosiy jarayonlarni tadqiq qilishda ham asosiy manbalardan biri bo'la oladi.

Mazkur tadqiqot materiallari oliy o'quv yurtlarida «Siyosatshunoslik», «Tatbiqiy siyosatshunoslik» va «Qiyosiy siyosatshunoslik» kurslaridan dars berish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati, avvalo, uning materiallari, jumladan tavsiyalari integratsiya, jumladan arab davlatlarida siyosiy jarayonlar, Markaziy Osiyoda siyosiy jarayonlarini rivojlantirishda inobatga olinishi mumkinligidadir.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasining arab davlatlaridagi elchixonalari faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

Ishning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 2 ta, xususan ikki ilmiy maqola (ToshDShI ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 2011 y, ToshDShI ilmiy-uslubiy konferensiya to'plami, 2012) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya uning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, kirish, 6 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

1-BOB. DEMOKRATIYA VA UNING MAZMUN VA MOHIYATI

1.1. Demokratiya tushunchasining xususiyatlari va ko‘rinishlari

Demokratiya – doimiy o‘zgarish, rovojlanishda bo‘lgan hodisa. Inson qo‘li bilan demokratiya ezgulikka ham, Yovuzlikka ham yo‘naltirilishi mumkin. Keyingisi yuz bermasligi uchun bu hodisaning tabiatidan kelib chiqadigan barcha nuqson-illatlar haqida o‘z-o‘ziga yaxshilab hisob berish kerak bo‘ladi. Asrlar davomida aksildemokratik tafakkurning juda mustahkam an‘analari mavjud bo‘lib kelganligi tasodifiy emas.

Demokratiyaning asosiy muammolari va xatto uning vakillik, plebissitlik, partisipatorlik modellari antic davrdayoq ta’riflab berilganligi katta ahamiyatga ega. Xatto demokratiyalar o‘rtasidagi tafovut kabi juda dolzarb muammo – qonun doirasida ko‘pchilikning ustunligi va ko‘pchilik hokimiyati demokratikligining hech narsa bilan cheklanmaganligi Arastugayoq ma’lum bo‘lib, u buni qat’iy qilib qo‘ygan edi.

Antik davr (Aflotun, Polibiy), o‘rta asrlar (Makiavelli) va xatto Yangi va eng yangi davr olimlari (Kroze, Xantington) demokratiyaga tanqidiy munosabatda bo‘ldilar, anarxiya, o‘zboshimchalikka o‘ta moyil boshqaruv shakli hisoblab, demokratiyadan nafratlandilar. Masalan, Aflotun uchun demokratiya qariyb xamisha bema’nilikka aylanish bilan yakun topdi. “Hokimiyat olomon qo‘lida ekan, safsatabozlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadilar va qonunlar o‘rnini xalq qarorlari egallaydi”¹.

Feodalizmda avtokratiya – avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadigan yakka shaxsning hukmronligi, ya’ni monarxiya davlat tashkilotining yetakchi shakli edi: u demokratiyaga ochiqdan-ochiq salbiy munosabatda bo‘ldi, boshqacha fikrlaydiganlarni shafqatsizlik bilan qatag‘on qildi.

“Demokratiya” iborasi yangi zamonda, ingliz va fransuz burjua inqiloblari davrida ijobiy mazmunga ega bo‘ldi. Sh.L. Monteskyo, T.Gobbs, J.Lokk, J.J.

¹ Качоха В. Проблема общего блага в современной демократии // Вопросы философии. – М., 2000. - № 5. – С. 321.

Russo, I.Kant kabi mutafakkirlar o'z qarashlari bilan bu terminning ilgarigi huquqini tikladilar. Sh.L. Monteske (J.Lokk bilan bir vaqtda) vakillik demokratiyasining institusional asosini – hokimiyatning bo'linish nazariyasini taklif qildi. Bu demokratiyani kashf etish edi, "Inson huquqlari deklaratsiyasi" (1791) esa demokratiyani davlat tashkiloti sifatida respublika shaklida rasman e'tirof etdi.

XIX asrda demokratiyaga nisbatan, umuman olganda, yana salbiy munosabat bildirila boshlandi. Jamoatchilik fikrida demokratiyaga nisbatan qaytadan ijobiy munosabat shakllanishi uchun mashhur fransuz davlat va siyosat arbobi Aleksis Tokvil (1805-1859)ning "Amerikada demokratiya" kitobi paydo bo'lishi katta turtki bo'ldi.

A.Tokvil demokratiya deganda toifalar o'rtasidagi tafovutlarning yo'qolishi, fuqarolar siyosiy tengligining qaror topishini tushundi. XVIII va XIX asrlardagi inqiloblar O'rta asrlardan meros bo'lib kelayotgan har bir kishining hokimiyat tizimi, nufuzi, madaniyatdagi mavqei aniq belgilanadigan tarixiy tuzilmalarga barham berdi. Ayni ma'noda, demokratiya tuzilmasiz jamiyat, turli toifadagi kishilarning tartibsiz ravishdagi aralashuvi prinsipini o'zida aks ettiradi. Agar ilgari har kimning o'zni oldindan belgilab qo'yilgan bo'lsa, endilikda jamiyatning har bir a'zosi o'z ahvolini na kafolatlangan, na tabiiy va na adolatli deb hisoblaydi.

Bunda har kuni kurash bo'ladi, unda kishilar nimaga arzishlari va qanday maqomga ega ekanliklarini bir-birlariga isbotlaydilar. A.Tokvil demokratiyani xar qancha yaxshi ko'rmasin, unga xos bo'lgan anarxiyaga aylanish xavfini ko'ra oldi. Lekin u hammadan ko'proq demokratik jamiyatlardagi ob'ektiv prinsiplar – markazlashuvdan, inson hayotining uning individual erkinlillarini cheklab qo'yadigan darajada davlatlashuvidan xavfsiragan edi. Erkinliklarning bu cheklanishi, jamiyatning qullikka qarab borishi ham demokratik xususiyatga ega. Bu xavfsirashlarning behuda bo'lmaganligini biz bugungi kun tajribasidan ko'rib turibmiz. Hozirgi davr uchun A.Tokvilning demokratiya bu – jamiyatni tashkil qilish shakligina bo'lib qolmay, ayni paytda, unda kechayotgan jarayon hamdir, degan xulosasi juda muhim.

1917 yil to'ntarilishlaridan so'ng o'rnatilgan proletariat diktaturasi – proletar demokratiyasining oliy tipi deb tantanali ravishda e'lon qilindi. Lenin ta'limotiga ko'ra, u burjua demokratiyasidan 100, 1000 marta demokratikroq edi. Lekin proletar demokratiyasining: “Nimaiki inqilob uchun maqsadga muvofiq bo'lsa, o'sha demokratikdir” (maqsadga muvofiqlik prinsipi), “almashtirib bo'lmaydigan kishilar yo'q” (har bir inson – takrorlanmas hodisa va shu jihatdan har bir insonning o'zni alohida, biron shaxs emas, olima jamiyat kelajagini hal etadi) prinsiplari amalda demokratik harakatga ozmuncha ziyon keltirmadi¹.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (1948) qabul qilinganidan keyin dunyoda demokratiya uchun kurashning yangi to'liqini boshlandi.

Hozirgi siyosatshunoslikda “demokratiya” iborasi to'rt ma'noda qo'llaniladi:

- 1) asosiysi – xalq hokimiyati, “xalq boshqaruvi, xalq tomonidan va xalq uchun saylanish”;
- 2) a'zolarining boshqaruvdagi teng huquqli ishtiroki va ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qilishga asoslangan har qanday tashkilotning tuzilish shakli;
- 3) muayyan qadriyatlar tizimi, muayyan dunyoqarashga asoslangan ideal jamiyat tuzumi. Erkinlik, tenglik, inson huquqi va boshqalarni bu idealning tarkibiy qismlari qatoriga kiritadilar;
- 4) xalq hokimiyatiga intilgan ijtimoiy va siyosiy harakatlar, demokratik maqsad va ideallarni amalga oshirish.

Ijtimoiy hayotni demokratiyalash shunday bir siyosiy tushunchaki, unda kishilarning jamiyatda erkinlik, tenglik tamoyillari hukmronligi sharoitida yashashlari ifodalanadi. Demokratiya sotsial adolatsizlikning har qanday ko'rinishlariga qarama-qarshi bo'lib, u orqali inson huquqlari, ularning manfaatlari jamiyat tomonidan himoya qilinadi².

Siyosiy tizim va siyosiy demokratik jamiyat siyosiy hayotida o'zaro bog'liq bo'lgan siyosiy hodisalardir. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Siyosiy tizim

¹ Васовин В. Переход к демократии в посткоммунистических странах // Вестник Московского Университета. Сер. Социология и политология. – М., 1998. – № 2. – С.17.

² Азизхонов А.Т., Ефимова Л.П. Теория и практика строительства демократического общества в Узбекистане: Учебн. пособие. – Т.: НУУЗ им. Мирзо Улугбека, 2005. – С.100.

demokratiyaga qanchalik ta'sir etsa, demokratiya ham siyosiy tizimning rivojlanishiga shunchalik kuchli ta'sir qiladi¹.

Demokratiyaning siyosiy tizim bilan bog'liqligi, avval siyosiy tizim sub'ektlarining jamiyat hayotiga qiladigan ta'siri, uning xalq ommasi manfaatlariga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Siyosiy tizimning demokratiyalash jarayonidagi o'rni davlat hokimiyati tomonidan keng xalq ommasi manfaatlarining himoya qilinishi va ular uchun siyosiy, huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy erkinliklarning qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilishi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo davlat hamma vaqt ham demokratiyani to'la amalga oshira olmaydi ham. Davlat qachonki xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi kuch sifatida harakat qilgandagina, u jamiyat hayotini demokratiyalashning asosiy quroli bulib xizmat qiladi.

Demokratiya qonunchilik sharoiti bilan uzviy bog'liq. Demokratiyalash jarayoni O'zbekistonda ham davom etmokda. Prezident Islom Karimov 1996 yil 29 avgustda Oliy Majlis 6-sessiyasida "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari" xususidagi nutqida bu masalaga chuqur yondoshdi. Keyinchalik ham bu masalaga bir necha bor etibor berib kelmoqda. "Demokratiyaning eng muhim tamoyili, degan edi u, - odamlarning saylov huquqini, o'z xoxish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ruyobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim"² ligini bayon etgan edi. Jamiyat hayotida demokratiyalash jarayoni qanchalik chuqurlashib borsa, bu ol shubhasiz, jamiyat siyosiy tizimining mustahkam bulishi va uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir kursatadi. Demokratiyalash jarayoni murakkab siyosiy hodisa bulib, u asosan vakolatli va bevosita demokratiya orqali amalga oshiriladi³.

1. Vakillik demokratiyasi - demokratiyaning bir shakli bulib davlatni boshkarishda, davlat va jamoat ishlarida fuqarolarning vakillari orkali ishtirok

¹ Фафуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 118.

² Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. –Т.: Ўзбекистон, 1999, Т 7. – Б. 64.

³ Лейпхарт А. Демократия в многообразных обществах. Сравнительное исследование./ Пер. с англ. Под ред. А.М.Салмина, Г.В.Каменской. – М.: Аспект-Пресс, 1997. – С. 287.

etishidir. Vakillik demokratiyasining yorqin ifodasi xalq deputatlari bo'lib, ular saylovchilarning vakilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalk vakilidir. Vakillik demokratiyasi amal qilishi natijasida fuqarolarning aksariyat ko'pchiligi davlat va jamiyatni boshqarishda, ularning faoliyatida keng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Bevosita demokratiya - demokratiyaning bir shakli bo'lib, u har bir fuqarolarning davlatni boshqarishda, davlat ishlarida bevosita - ya'ni shaxsan ishtirok etishidir. Bevosita demokratiyaning ko'rinishlariga saylovda ovoz berish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, qonun loyihalari va boshqa tadbirlarning muhokamasi, referendum (umumxalq ovozi), fuqarolar yig'ini ishlarida hamda davlat organlariga takliflar kiritishda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

Qadimda Yunonistonda demokratiya va oligarxiya o'rtasida kurash tarixi bo'lib kelganligini ham unutmaslik kerak. Yangi davrda uning mazmuni erkinlik, fuqarolik, xalq suvereniteti, milliy suverenitet, milliy davlat g'oyalari rivojlandi¹.

Hozirgi vaqtda demokratiya - xalqni hokimiyat manbai, deb e'tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik huquqlarining himoyalovchi, davlatning asosiy organlari - saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy hokimiyat tizimi, sifatida tushuniladi².

Demokratiyaning zamonaviy modellari: Ilmiy adabiyotlarda demokratiyaning 3 asosiy zamonaviy modeli mavjud: liberal, identitar, plyuralistik.

1. Mumtoz liberal demokratiya modeli: 2 muhim sohani: davlat va fuqarolik jamiyatini bir-biridan ajratadi (XIX-XX asr boshlarida). Belgilari: 1) hokimiyat manbai bo'lgan xalq qatoriga mulkdor erkaklargina (quyi tabaqa, ayollarsiz) kiritilgan. 2) Individuallik, shaxsni hokimiyatning birlamchi va bosh manbai, deb bilishi ko'zga tashlanadi.

2. Identitar demokratiya modeli: kollektivchilik demokratiyasi ham deyishadi. Belgisi: xalq, millat, sinf yaxlitligidan kelib chiqadi. Umumilliy

¹ Кирғизбоев М. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларининг шаклланиши ва ривожланиши / Сиёс. фанл. докт. ... дис. автореф. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, 2007. – Б. 67.

² Политология: Учебное пособие / Под ред. Г.В. Полуниной. – М.: Акалис, 1998. – С.171-172.

belgilari: 1) xalqni kollektivistik talqin etish, 2) xalq ichida qarama-qarshlik kuchlarning yoʻqligi, 3) erkinlikni kollektivistik, davlat va jamiyat ichida faolligi, 4) totalitar tabiatiga ega, 5) davrning tarkibi qismlari tengligi, 6) umumiy siyosiy safarbarlik, 7) siyosiy huquqlarni yuridik jihatdan eʼtirof etish va h.k.

3. Plyuralistik demokratiya modeli. Gʻarb demokratiyasi liberal siyosiy tizimidan oʻsib chiqqan. Ularga konstitusionalizm, hokimiyatlar boʻlinishi va hokazolar kiradi. Buni zamonaviy demokratiya modeli ham deyiladi¹.

Zamonaviy demokratiya - xilma-xil ijtimoiy guruhlariga oʻz manfaatlarini bayon etish raqobatli kurashda ularning muvozanatini aks ettiruvchi, murosamadoraga asoslangan boshqaruv shaklidir. Boshqa demokratik konsepsiyalar ham mavjud. Ular:

4. Reprezentativ demokratiya - xalq oldida masʼul, malakali vakolatli boshqaruv gʻoyasiga asoslangan.

5. Partisipatorlik demokratiyasi - boshqaruvda intellektual potensial.

6. Demokratiya va Sharq. Sharq demokratiyasining oʻziga xosligi. Jamoa.

7. Marksistik konsensiya

8. Plebissitar konsepsiya (umumxalq fikri, referendum yoʻli bilan)

9. Elitar demokratik konsepsiyasi.

Oʻzbekiston demokratiyaning qaysi yoʻnalishlaridan bormoqda?

1. Birinchidan, sharqona demokratik yoʻldan. Demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo hamjamiyati eʼtirof etgan qoidalari bor. Bular: 1) fuqaroning oʻz xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, 2) ozchilikning koʻpchilikka boʻysunishi, 3) barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy eʼtiqodidan qatʼiy nazar, teng huquqligi, 4) davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi, 5) saylov va saylanish huquqi va boshkalardir, Bular qariyb barcha mamlakatlar Konstitutsiyalarida belgilab qoʻyilgan tartib-qoidalaridir. Biroq demokratiyani joriy etishda bularning oʻzi kifoya qilmaydi. Faqat shuning oʻzi aholi barcha ehtiyojlarini, maʼnaviy-

¹ Лейпхарт А. Демократия в многосоставных обществах. Сравнительное исследование. / Пер. с англ. Под ред. А.М. Салмина, Г.В.Каменской. – М.: Аспект-Пресс, 1997. – С. 287.

ruxiyolamini qamrab ololmaydi. Chunki xar bir xalqning o‘z turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an‘analari, hayotga munosabati va boshqa jihatlari bor¹. Demak, demokratiyaga yondashish usuli bor. Prezidentimiz: “Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo‘lmaydi. Ya’ni, Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin (musulmonchilik asta-sekin, kofirlik bir pasta) taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o‘zgarishlar yasashga urinishlar g‘oyat noxush, xatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G‘arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo‘l bizga aslo to‘g‘ri kelmaydi”, deganida demokratiyani joriy etishning yurtimizda o‘zbekona tamoyillari shakllanayotganini ko‘rsatadi.

2. Ikkinchidan, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko‘r-ko‘rona ko‘chirish emas, balki tabiiy, tadrijiy o‘shini ta‘minlash. Bu degani O‘zbekiston mustaqillikka chiqqanidan keyin bir qator mamlakatlar, jumladan, Turkiya, Germaniya, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarning demokratik taraqqiyot yo‘llari bilan tanishdi, ularda biz uchun ibratli va o‘rganishga arziydigan jihatlari bor. Biroq O‘zbekiston Prezidenti bu masalaga o‘z munosabatini bildirdi. Har bir millat o‘z milliy ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondashishi zarur... Odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o‘zgarishlar darajasi va sur‘atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo‘lishiga bog‘liq. Tarixiy tajribaning ko‘rsatishicha, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirish aslo samara bermaydi. Aksincha, bunday yo‘l chalkash va xatarli oqibatlariga olib kelishi mumkin, degan edi I. Karimov.

3. Uchinchidan, mamlakat tub aholisining (jamoatchilik) ruhiyatini hisobga olish lozim bo‘ladi. Yoki hurriyatga munosabati xam boshqalardan andoza olish, mamlakat tub aholisi ruhiyatini hisobga olmaslik rahbarni ham, aholini ham, butun mamlakatni ham boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yadi. G‘arb demokratiyasini Sharq mamlakatlarida ko‘r-ko‘rona joriy etish mumkin emas.

¹ Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: О‘zbekiston, 2007. – Б. 17.

4. To'rtinchidan, jamiyatning ma'naviy qiyofasiga bog'lik, umumiy madaniy saviyasi, siyosiy va ijtimoiy faolligi, bebaxo mulk bulgan oliy qadriyatlariga bog'lik¹. Odatda yakka-yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, xatti-harakatlari va fe'l-atvorlaridan umumjamiyat kayfiyati, uning ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Umumxalq manfaatlarini hisobga olish, unga tayansagina qadriyatga aylanadi. Qadriyatlar esa - bebaho mulk, ularni xalk yaratadi, xalk baholaydi, o'zi asrab avvaylaydi. Demokratiya huddi ana shunday buyuk ne'mat.

1.2. Hozirgi zamon demokratik mamlakatlari va ularning xususiyatlari

Demokratik siyosiy tuzum mavjud bo'lgan davlatlardagi xalqlar ushbu tuzumni himoya qilishga qodir millatga aylangan desak, hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Demokratik siyosiy tuzumda jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy erkinlik darajasi yuksak pog'onaga ko'tarilgan bo'lib, ijtimoiy muhit davlat hokimiyatiga ta'sir o'tkazuvchi fuqarolik jamiyati institutlarining to'liq nazorati ostida bo'ladi. Demokratik siyosiy tuzumda inson manfaatlarini oliy qadriyat darajasida tavsiflanib, amalda o'z aksini topgan. Ushbu tuzum tufayli, inson o'z mulohazasiga ko'ra, shaxsiy manfaatlarini hamda jamiyat farovonligini ta'minlovchi siyosiy kuchni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu uning erkin saylovlar va referendumda qatnashish, hokimiyat organlariga murojaat qilish huquqlarida namoyon bo'ladi.

Manbalarda demokratiyada "xalq oliy hokimiyat timsoliga ega bo'lib, bu hokimiyatni yo o'zi bevosita amalga oshiradi yohud erkin saylov tizimi orqali o'zlari tanlagan vakillari vositasida amalga oshiradilar", deb ta'riflanadi. Avraam Linkoln (AQSh XVI prezidenti) ning so'zlariga qaraganda, demokratiya - "xalqning shu xalq uchun amalga oshiradigan xalq boshqaruvidir".

¹ Жўраев Н. Тарих фалсафаси. - Т.: Маънавият, 1999. – Б. 133-174.

Shu jihatdan I.Ilin ta'rif ham qiziqish uyg'otishi mumkin. U shunday yozadi: "Demos" so'zi xalq ma'nosini anglatadi, "kratos" so'zi kuch, hokimiyatni ifodalaydi. Haqiqiy davlat shu ma'noda "demokratik" bo'lishi mumkinki, o'zining eng yaxshi kuchlarini xalqdan oladi hamda uni o'z tuzilishida to'g'ri ishtirok etishga jalb qiladi. Bu shu eng yaxshi, kuchlarning doimiy tanlovi davom etib, xalq o'z davlatini to'g'ri qurishni bilishi darkor¹.

Demokratiya ikki asosiy turga - bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va vakillik demokratiyalariga bo'linadi. Bevosita demokratiya sharoitida saylangan yoki tayinlab qo'yilgan rasmiy shaxslar vositachiligisiz fuqarolar ijtimoiy qarorlarni qabul qilishda qatnasha oladilar. Qadimgi Afina - jahondagi birinchi demokratiya bevosita demokratiyani 5-6 ming kishi qatnashadigan yig'inlar yordamida amalga oshirilgan.

Hozirgi zamon jamiyati o'zining murakkabligi, ko'psonliligi bilan bevosita demokratiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun bugungi kunda uning eng ko'p qo'llaniladigan shakli vakillik demokratiyasidir. Bunda fuqarolar siyosiy qarorlarni qabul qilish, qonunlarni ta'riflab berish hamda ijtimoiy farovonlik yo'lidagi dasturlarni hayotga tatbiq etish uchun rasmiy shaxslarni saylaydilar. Bu rasmiy shaxslar murakkab ijtimoiy muammolarni chuqur o'ylab, tartibli hal etishlari mumkin. Buning uchun ular boshqa xususiy shaxslar ega bo'la olmaydigan kuch va vaqtlarini sarflashlari kerak bo'ladi.

Demokratik tuzum barcha odamlarning tengligi va ozodligini e'tirof etib, davlatni boshqarishda xalqning ishtirokiga asoslanadi. Demokratik davlat faqat o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini e'lon qilibgina qolmay, bu huquq va erkinliklarning iqtisodiy asoslarini ta'minlash, ularning konstitutsiyaviy kafolatlarini ham belgilashi kerak bo'ladi. Natijada, keng huquq va erkinliklar qog'ozda emas, amalda mavjud bo'lib qoladi².

Demokratik siyosiy tuzumning mavjudligini anglatuvchi qator talablar va shart-sharoitlarning umumiy yig'indisi shunchalik salmoqligi, muayyan davlatda,

¹ Пугачев В.П. Соловьев А.И. Введение в политологию: Учебник для студентов высш. учеб. заведений. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Аспект Пресс, 1999. – С. 427.

² Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: О'zbekiston, 2007. – Б. 21.

bir vaqtning o'zida bu talablarni bajarish eng demokratik davlatlar uchun ham og'irlik qilishi mumkin. Ya'ni, demokratik davlat deb tan olinishlik mas'uliyati juda ham yuqori. Shunga qaramay, aksariyat davlatlar o'z imkoniyatlarini shunday siyosiy tuzumni barpo etishga harakat qilmoqda. Bugungi kunga kelib, Yevropa davlatlari, qator Osiyo hamda Amerika davlatlarida demokratik siyosiy tuzum amal qilib, bu mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy salohiyati ham juda yuqori. Demokratik siyosiy tuzumni tavsiflovchi qator belgilarga asosan quyidagilarni kiritamiz:

Demokratik institutlarining erkin va faol harakatining nafaqat cheklanmasligi, balki davlat hokimiyati tomonidan ushbu sohaga doir shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga qaratilgan faoliyatning mavjudligi. Bunda ko'ppartiyaviylik tizimining barqarorligi, jamoat birlashmalari, uyushmalar, assotsiatsiya va ijtimoiy harakatlar, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va jamiyat hayotida tutgan mavqeining yuqori darajada baholanishi nazarda tutiladi;

Milliy huquqning konstitutsiya va qonun ustuvorligi prinsipi asosida amal qilishi, uning mazmuni va mohiyati Xalqaro huquq normalar talabalariga to'liq mos kelishi, huquq ustuvorligi tamoyilining Milliy qonunchilikda aks etishi; davlat hokimiyatini amalga oshirish tamoyillarining konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi;

Ijtimoiy hayotda, barcha ijtimoiy qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olinishi, shu jumladan, muxolifatchi siyosiy kuchlarning manfaatlarini ham oyoq osti qilmaslik, ularning faoliyatini majburiy kuch ishlatish orqali yoki tazyiq o'tkazish vositalari bilan cheklashga yo'l qo'ymaslik, siyosiy plyuralizm tamoyilininig talablariga rioya qilish;

Erkin saylovlar hamda demokratiya shakllari boshqa ko'rinishlarining davriyligini ta'minlanishi, bunda sun'iy cheklovlar yoki muxolifatchi siyosiy kuchlarni siyosiy kurashdan chetlatishga urinishlarga yo'l qo'yilmasligi;

Shaxs huquq va erkinliklarining keng e'tirof etilishi, huquq va erkinliklar ijtimoiy-iqtisodiy – huquqiy kafolatlarining kompleksligini ta'minlash, huquq va

erkinliklarni amalga oshirishning real mexanizmini yaratilganligi, nafaqat fuqarolar balki mamlakatdagi barcha shaxslarining qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi, teng huquqlilik, barchaning qonun oldida tengligi;

Davlat va uning hokimiyat tizimida tarmoqlar hisoblangan qonun chiqaruvchi, ijro qiluvchi hamda sud hokimiyatining to'la o'zaro mustaqilligi, ularning bahamjihat ishlash mexanizmining mavjudligi, hokimiyat taqsimlanishi va hokimiyat tarmoqlarining bir-birini tiyib turish hamda muvozanatda ushlash prinsipini amalda bo'lishi; davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va uning har bir a'zosi oldidagi mas'uliyat hissining yuqori darajadali;

Ommaviy axborot vositalari faoliyatida oshkoralik, erkinlik, ularga axborot olish erkinligini ta'minlanishi, senzura yo'l qo'yilmaslik, xususiy ommaviy-axborot vositalarining davlat va jamiyat hayotining ko'zgusi sifatida e'tirof etilishi.

Umuman olganda, demokratik siyosiy tuzum davlat boshqaruv shakli yoki tuzulish shakliga umuman bog'liq emas. Federativ davlat hisoblangan AQSh, GFR kabi davlatlarda, unitar davlat Yaponiya, Italiyada yoki monarxiya boshqaruvidagi Buyuk Britaniya, Niderlandiya, respublika shaklidagi Chexiya, Fransiya davlatlarida demokratik siyosiy tuzum o'rnatilgan¹.

Bizga ma'lumki, barcha demokratik davlatlarning saylov to'g'risidagi qonunchiligida saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jahon mamlakatlari tajribasida saylovlarni tashkil qilish va uni o'tkazishni amalga oshirilishida hozirgi davrda ma'lum bir tajribalarga erishildi. Buning natijasida, saylov o'tkazishning demokratik prinsiplari aniqlanib, barcha davlatlarning saylov to'g'risidagi qonunlarida o'z aksini topdi.

Demokratik davlatlarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan, umume'tirof etilgan tamoyillar asosida shakllangan va amal bo'lgan saylov o'tkazishning demokratik prinsiplari mazmun-mohiyatini quyidagi tartibda o'rganish mumkin: konstitutsiyaviy davlat tuzilishiga mos bo'lgan saylov tizimi va saylov huquqining

¹ Шарилов Ф. Сисатшунослик. - Т.: Ўзбекистон, 1992, - Б. 407.

zamonaviyligi prinsipi; saylovni tashkil etish va uni o'tkazishda qonun ustuvorligiga erishish prinsipi; saylovning xalqchilligi prinsipi; saylovning tejamkorligiga erishish prinsipi; saylovda barqarorlik, haqqoniylik, yuksak ma'naviyat va inson huquqlarining hurmat qilinish prinsipi; saylovning uyushqoqligiga erishish prinsipi;

Ushbu prinsiplar jahon mamlakatlari hayotida, tarixiy rivojlanish tajribalari asosida tabiiy ravishda vujudga kelgan bo'lib, bu prinsiplarga to'liq amal qilgan jamiyatgina demokratik huquqiy davlat qurish maqsadiga erishish mumkin.

Demokratik huquqiy davlat shakllanishida, Konstitutsiyadan boshlab, to barcha qonunlarda ularning maqsad va vazifalari prinsiplar tarzida o'z ifodasini topgan.

Har qanday demokratik huquqiy davlatning Konstitutsiya va qonunlarining yaratilishida ijtimoiy-huquqiy munosabatlarini belgilab beruvchi prinsiplarga tayanadi. Demak, Konstitutsiya va qonunlarning maqsad va vazifalarini belgilanishi boshlang'ich moddalarida o'z ifodasini topgan prinsiplari asosida bo'lishligini g'oyaviy mazmunida aks ettiradi.

Yanada kengroq tushuncha berilganda, dastlab Konstitutsiyaning asosiy prinsiplarida davlat tuzilishining shakli va maqsadi, kelajak istiqbollari belgilab olinadi. Undan keyingi bo'limlarida davlat boshqaruvi mexanizmi unga mos ravishda yaratiladi, qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida unga amal qilinishi ta'minlanadi. Shuning uchun ham davlatlarning asosiy qonunlarida belgilangan prinsiplar davlat boshqaruvining huquqiy poydevorini mustahkamlanishida dastur bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda, xorijiy demokratik davlatlardagi saylov o'tkazilishining asosiy prinsiplarini (shartli ravishda) quyidagi tartibda tahlil qilib chiqishimiz mumkin:

1) konstitutsiyaviy davlat tuzumiga mos bo'lgan saylov tizimi va saylov huquqining yaratilish prinsipi;

Demokratik davlat hokimiyati organlarining tashkil topishi xalqning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Uni amalda tatbiq etilishi uning ishtirokini ta'minlanishi bilan hal

etiladi. Shuning uchun ham saylov tizimi tartibda saylab qo'yiladigan vakillari orqali qonunda belgilanadi. Saylov huquqi vakolatli davlat hokimiyati organlari orqali ta'minlanishi kafolatlanadi.

Fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy tuzumi o'z xalqining xohish irodasini ifoda etadi. Asosiy Qonunda belgilangan xalq hokimiyatchiligi prinsipi turli xil shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Lekin uning zahirida inson huquqi yotadi, ya'ni inson qadri oliy ne'mat deb tan olinadi.

Fransiya demokratik Respublikasi Konstitutsiyasining to'rtinchi qism, 3-moddasida saylov huquqi mustahkamlangan bo'lib, irqi-jinsi va millatidan qat'i nazar respublika fuqarolarining voyaga yetganlari saylov huquqiga egadirlar, deb belgilangan. 1857 yildan boshlab takomillashtirilib kelingan "Saylov kodeksi"ning 2-moddasiga muvofiq, saylovchilar - 18 yoshga yetgan siyosiy huquqlarga va muomala layoqatiga ega bo'lgan fransuz fuqarolaridir¹.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozirgi rivojlanish bosqichida o'zini demokratik davlat deb e'lon qilgan mamlakatlarda saylov o'tkazishning asosiy prinsiplaridan biri hisoblangan teng saylov huquqning kafolatlanishi konstitutsiyaviy tuzum negizini ifoda etadi.

2) Saylovni tashkil etish va uni o'tkazishda qonun ustuvorligiga erishish prinsipi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyat prinsiplari ularni tashkil etilishi va faoliyatining huquqiy asosi demokratik prinsiplarga mos ravishda, har bir mamlakatning o'z xalqini boy tarixiy, madaniy-ma'naviy merosiga tayangan holda belgilanadi.

¹ Конституционное (государственное) право зарубежных стран. (учебник). – Особенная часть. Страны Европы. (Авторский коллектив). – М.: Бек, 1997. - С.121.

Xorijiy mamlakatlarning davlat hokimiyat organlarini tashkil etish saylov prinsiplari orqali o'z xalqining oldida turgan kelajak istiqbollarini ifodalaydi va maqsad, vazifalarini belgilanish poydevori hisoblanadi. Shu jihatdan demokratik davlatlarda amalga oshirilayotgan saylovlarda Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunchilikning ustuvorligi so'zsiz tan olinishi e'tirof etilgan.

Xorijiy rivojlangan demokratik mamlakatlarda saylovlarning o'tkazilish prinsiplari har bir davlatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, xalq hokimiyatchiligi yoki millat hokimiyatchiligi prinsiplarining amalga oshirilish shaklini namoyon etadi.

Xorijiy davlatlarning siyosiy boshqaruvi amaliyotida saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish qonun ustuvorligiga erishish prinsipi asosan jamoatchilik nazoratiga tayanadi va bunga oshkoralik prinsipi orqali to'liq erishiladi. Bu masalaning bir tomonini ochib bersada, ammo bu prinsipning asl mazmuni va mohiyatini yoritib bermoqda.

Saylovlarni o'tkazilishida qonun ustuvorligining so'zsiz tan olinishi prinsipini asl mohiyati uning natijasiga qarab aniqlanadi, ya'ni namoyon bo'ladi.

3) Saylovning xalqchillik prinsipi.

Saylovning xalqchillik prinsipi saylovlarda barcha fuqarolar ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratilishi bilan amalga oshiriladi. Saylovlarda fuqarolarga o'z xohish - irodasini erkin ifoda etish imkoniyatlari yaratiladi. Mavjud davlat boshqaruvining siyosiy amaliyoti o'z xalqining milliy va tarixiy rivojlanish xususiyatlari asosida belgilanadi.

Demokratiyaning eng muhim prinsipi – davlat boshqaruvida fuqarolarining keng ishtirok etishiga, davlat xizmatini o'tashga tobora ko'proq muntazam jalb qilishdir. Mazkur prinsipning amalga oshirilishi dastlab saylovlarni qay darajada o'tkazilishi bilan bog'liqdir.

Darhaqiqat, AQSh, Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliya va boshqa davlatlar demokratiyani rivojlantirish borasida eng uzoq tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Shunday davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda endigina o'z mustaqilligini qo'lga kiritib rivojlanayotgan xalqlar o'z davlat tuzumini

belgilashga harakat qiladi. Buni amalga oshirishda eng birinchi navbatda inson huquqlari yotadi. Qaysi jamiyatda inson huquqi ulug'lanar ekan u tez orada taraqqiyot sari ildam qadam tashlay boshlaydi. Buning negizida davlat hokimiyatini tashkil etish prinsiplari muhim o'rin tutadi. Davlat hokimiyatini tashkil etilishining demokratiyaviyligi saylovning xalqchilligiga erishish orqali amalga oshiriladi.

Saylovning xalqchilligi tashkil etilayotgan organning milliyligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Demak, saylovda xalqchilik prinsipiga erishish birinchi navbatda erkinlik, umumiylik, tenglik prinsiplarini ta'minlanishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan davlat hokimiyati organlarini tashkil etishda har bir millat o'z tarixiy davlat boshqaruvi tajribasiga tayanib uning tuzilishini belgilab oladi va o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishish uchun shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, saylovni xalqchil-ommaviy bo'lishini uyushtirishda ko'pgina davlatlarda uni o'tkazish kuniga katta e'tibor beriladi. Bu ham o'z navbatida saylovlarni ommaviylashtirishga xizmat qiladi.

4) Saylovning tejamkorligiga erishish prinsipi.

Dunyo demokratik davlatlari qonunchiligida saylovlarning tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlash uchun davlat byudjetidan mablag' ajratiladi. Saylov uchun ajratilgan mablag'lar uni tashkil etuvchi alohida organ tomonidan tejamli sarf-xarajat qilinish rejalari asosida belgilanadi. Tizimdan kam vaqt va mablag' sarflab samarali natijaga erishishga barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lmog'i lozim.

Barcha davlatlarda amalga oshirilayotgan saylovlarda qilinadigan sarf-xarajalar davlat byudjetidan qoplanadi. Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalar va fuqarolar o'z mablag'larini ixtiyoriy ravishda saylov o'tkazish uchun berishlari mumkin. Bu mablag'lar maxsus saylovni o'tkazish uchun tuzilgan organ tomonidan qabul qilib olinadi. Bu esa saylovlarni tenglik prinsipida o'tkazilishini ta'minlaydi. Barcha turdagi saylovlarda ortiqcha dabdababozliklarning bo'lishiga chek qo'yadi va boshqa manbaalardan kelib tushadigan mablag'larni xarajat qilinishi maqsadli bo'ladi¹.

¹ Masharipov O, Xoшимов Т Р. Рафиков А. / Политология. – Т.: ТошДИУ, 2000, - Б. 173.

Fransiya Respublikasining saylovini tejamli o'tkazilishini ta'minlashda nomzodlarga mas'uliyat yuklaydi.

Masalan, Prezidentlikka saylov to'g'risidagi qonunning 14-moddasiga binoan, nomzod o'z shaxsini xalqqa tanishtirish va dasturini e'lon qilish tadbirlari shaxsiy hisobidan bo'lishi belgilangan. Yana shunisi e'tiborga loyiqki, qonunning 5-moddasiga binoan, nomzod saylov kuni e'lon qilinganidan keyin 17 kun ichida, yashash joyida joylashgan omonat kassaga 10000 frank qo'yishi kerak.

Siyosiy partiyalardan saylov uchun o'tkazilgan mablag'lar ham Milliy Komissiya nazorati ostida tenglik prinsipi rioya etilgan holda xarajat qilinadi.

"Respublika Prezidenti sayloviga ommaviy ovoz berish to'g'risida"gi 1964 yil 14 martdagi Fransiya davlatining qonunida, saylovni tashkil etish va uni o'tkazish uchun ketadigan xarajatlar, saylov Konstitutsiyaviy Kengash tomonidan e'lon qilinganidan keyin saylov kompaniyasi qonunda belgilangan tartibda o'tkazilishini nazorat qilish uchun tuzilgan Milliy Komissiya ixtiyori bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, Prezidentlikka nomzodlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlanishiga doir va boshqa saylov muammolari bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun tegishli vakolatli organlarga murojaat qilish mumkin.¹

Fransiya Respublikasi saylovlarida davlat byudjetidan o'tkazilgan mablag' asosan, saylov byulletenlarini nashr qilish va uni ovoz berishga tayyorlash, saylov uchun ketadigan qog'ozlarning xarajatini, afishalar tayyorlash va uni tegishli joylarga yopishtirish va komissiyalar faoliyati uchun ketadigan sarf-xarajatlardan iboratdir.

Germaniya Federativ Respublikasining 1975 yil 1 sentyabrda qabul qilingan "Bundestag saylovi haqida" qonunida davlat byudjetidan saylov uchun ajratilgan mablag'lar federal saylovini o'tkazish rahbari tomonidan taqsimlanadi. Federal saylovini o'tkazish rahbari qonunda ichki ishlar vaziri tomonidan tayinlanadi. Rahbar o'lkalar bo'yicha tuzilgan saylov okruglari va saylov komissiyalari faoliyatini moliyaviy ta'minotini belgilaydi va uni nazorat qiladi. Ularning

¹ Чиркин В.Е. Конституционное право зарубежных стран. Ч-64. Практикум. – М.: Юрист, 1999. – С.163.

rahbarlari va o'rinbosarlari o'lka hukumati tomonidan tayinlanadi. Bu esa saylovning o'tkazilishida bir-birining ustidan nazoratni kuchaytirish prinsipini ta'minlaydi hamda ajratilgan mablag'ning aniq maqsadga ishlatilishini kafolatlaydi. Yana shunisi diqqatga sazovorki, davlat byudjetidan saylovda siyosiy partiyalar faoliyatining ta'minlanishi uchun mablag' ajratilishi Asosiy Qonunida belgilangan. Shuningdek, "Siyosiy partiyalar haqida"gi qonunida, saylovda siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlarga saylovchilarning bergan ovoz soniga qarab davlat tomonidan beriladigan summa miqdori ko'rsatilgan. Bu esa siyosiy partiyalar faoliyatida saylovchilarning ovozi uchun keskin kurashni keltirib chiqaradi. Albatta, Germaniya qonunchiligida bunday holatning belgilanishi milliy tafakkur mahsulidir. Shunday bo'lsa ham, har qaysi davlatda saylovlarning tejimli o'tkazilish prinsipi doimo dolzarbligicha qolmoqda. Chunki, uning o'tkazilishi uchun juda katta mablag' xarajat qilinadi.

5) Saylovda barqarorlik, haqqoniylik, yuksak ma'naviyat va inson huquqlarining hurmat qilinish prinsipi.

Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va tadbirlar aholiga normal hayot tarzini ta'minlash hamda siyosiy plyuralizmni rivojlantirishga qaratilgandir. Saylovlarda haqqoniylikka erishish barqaror rivojlanish va inson huquqlari ta'minlanishining kafolati hisoblanadi.

Davlat boshlig'i va qonunchilik organi parlament tinchlik, barqarorlik va haqqoniylik ramzidir hamda har qanday demokratik jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarining kafilidir.

Saylovlarda inson huquqlari va axloq qoidalariga rioya qilinishi mazkur amaliyotning yuqori saviyada hamda chet kuzatuvchilarining hurmatiga sazovor bo'lishga olib keladi. Saylov oldi kampaniyasida nomzodlarning bir birini obro'sini to'kish fuqarolarning ishonchsizligiga sabab bo'ladi. Bunday holatlar ayniqsa, Rossiya Federatsiyasining Davlat Dumasiga o'tkazilgan saylovlarda matbuot orqali berib borildi. Ularda bir-birini saylovda obro'sini to'kish tabiiy hol deb qaralib, demokratiyaning axloq chegaralaridan chiqib ketildi.

Saylov jarayonlarida barqarorlik, haqqoniylik, yuksak manaviyatli o'tkazilishiga erishish va uning natijasida inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi muhim bo'lib hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida mazkur prinsiplarning doimiy amal qilishini ta'minlanishi uchun shunday mexanizm yaratilganki, tabiiy ravishda saylov jarayonlarida turli xil siyosiy kuchlarning o'zaro munosabatlarida unga rioya etilishi qat'iy nazorat qilinadi.

Vaholanki, saylovni o'tkazilishida AQShda Kongress, Fransiyada Konstitutsiyaviy Kengash, Germaniyada Federal Majlis, Italiyada Prezident, Ispaniyada Qirol, Angliyada Qirolicha, Kanadada Qirol, Yaponiyada Imperator, Gresiyada Prezident va Parlament davlat va millat ramzi sifatida parlament saylovlarini e'lon qiladi va uni haqiqiylikini belgilaydi. Bu davlatlarda siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlar saylov jarayonlarida bir-birining faoliyatini nazorat qiladi. Bu esa saylovda belgilangan maqsadga erishish uchun eng birinchi navbatda inson huquqlari va erkinliklarining qat'iy rioya etilishini kafolatlaydi.

6) Saylovning uyushqoqligiga erishish prinsipi.

Ciyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Bu saylov prinsipida eng avvalo saylovning ommaviy uyushqoqlik bilan o'tkazilishida fuqarolarga keng erkinliklar beradi¹.

Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonunini 3-moddasida; barcha nemislar ittifoqlar va jamiyatlar tashkil etish huquqiga egadirlar, 20-moddasini ikkinchi bandida; butun davlat hokimiyati xalqqa asoslanadi. U xalq tomonidan saylov va ovoz berish yo'li bilan maxsus qonun chiqarish organlari, ijro etuvchi hokimiyat va odil sudlov vositasida amalga oshiradi, 21-moddasining birinchi bandida; partiyalar xalqning siyosiy irodasini shakllantirishga ko'maklashadi. Ular erkin ravishda tashkil etilishi mumkin. Ularning ichki tuzilishi demokratik tamoyillarga mos kelishi lozim. Saylovlarni uyushqoqlik bilan o'tishi

¹ Отамуродов С, Эргашев И, Акрамов Ш, Кодиров А. Политология. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 178.

xalqning tafakkuri, siyosiy faolligi va davlat organlari amalga oshiradigan o'zgarishlarga ishonchi bilan belgilanadi¹.

Demokratik mamlakatlarda ijro etuvchi hokimiyatni ifoda etuvchi hukumat o'zining ichki tuzilishi va tarkibiga ega. Hukumat turli mamlakatlar qonunchiligiga binoan turlicha asoslarda tarkib topadi. Hukumatning tarkibiga Premer ministr, Vice – Premer, vazirlar va maqomi jihatidan vazirlar bilan teng turuvchi shaxslar ham kiradi. Hukumat a'zolari huquqiy jihatdan bir – birlaridan farq qiladilar. Alohida vazirlik faoliyatiga rahbarlik qiluvchi vazirlar, tarmoq vazirliklarini ifoda etuvchi qo'mita rahbarlari, yana biror bir vazirlik faoliyatiga rahbarlik emas, balki alohida topshiriq va vazifalarni amalga oshiruvchi “portfelsiz” vazirlar ham hukumat tarkibiga kiradi. Bulardan tashqari turli xil hukumat departamenti rahbarlari, davlat ministrarlari, stats sekretarlar, ba'zan kichik ministrlar va parlament ministrlarini ham hukumat tarkibida faoliyat olib borishlarini kuzatishimiz mumkin.

Hukumat a'zolarining nomlanishi turlicha, lekin hukumat tarkibida bosh rolni Premer ministrdan tashqari ministrlar o'ynaydi. Mutlaq monarxiya tipidagi davlatlarda va prezidentlik respublikalarida hukumat tarkibiga monarx, turli xil soha vazirliklarini boshqaruvchi monarx xonadoni a'zolari, davlat rahbari bo'lmish Prezident ham kiradi².

Hukumat a'zolarining nomlanishi turlicha, lekin hukumat tarkibida bosh rolni Bosh vazirdan tashqari vazirlar o'ynaydi. Mutlaq monarxiya tipidagi davlatlarda va prezidentlik respublikalarida hukumat tarkibiga monarx, turli xil soha vazirliklarini boshqaruvchi monarx xonadoni a'zolari, davlat rahbari bo'lmish Prezident ham kiradi.

¹ Борисов Л.П. Политология: Учебное пособие / Издание 2-е исп. и доп. – М.: Белые альвы, 1998. – С.78. (или Политология: хрестоматия / Сост. проф. М.А. Василик, доц. М.С. Вершинин. — М.: Гардарики, 2000. – С. 231.

² Чиркин В.Е. Конституционное право зарубежных стран. Ч-64. Практикум. – М.: Юрист, 1999. – С.163.

1-BOB BO‘YICHA XULOSALAR

1. Arab dunyosining ajralmas qismi hisoblangan Shimoliy Afrika mintaqasining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti, eng avvalo, mazkur mintqa davlatlarida sodir bo‘layotgan integratsiyalashuv jarayonlarining barqaror davom etishi bilan uzviy bog‘liqdir. Globalizatsiya sharoitlarida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining istiqbollari esa, davlatlararo munosabatlarning mintaqaviy integratsiyalashuv jarayonlarida rivojlanib borishiga qarab aniqlanadi.

2. Tabiiy resurslar va xom ashyo tanqisligi muammosining mavjudligi va ularni qo‘lga kiritish uchun kurash. “Ko‘pdan buyon kuzatilayotgan haqiqat shundan iboratki, nima uchundir erkinlik va demokratiyani, odatda, neft va gazga boy davlatlar, mintaqalarga yoyishga, rivojlantirishga zo‘r beriladi” degan edi davlatimiz rahbari I.A.Karimov. Kundan-kunga jahon hamjamiyatining ehtiyoji ortib borayotgan energetika zahiralariga egalik qilishga xalqaro maydonda gegomonlikni ta‘minlovchi vosita sifatida qarash kuchaymoqda.

3. Demokratiya eksportining eng muhim jihati ko‘plab davlatlarning xavfsizligiga, siyosiy barqarorligiga tahdid solishdir. Ekspertlarning fikricha, “rangli inqilob”lar usuli iqtisodiy rivojlangan, lekin bir muncha beqaror, o‘zini eplay olmaydigan, biroq muhim geosiyosiy mavqeni egallaydigan, har qanday tojovuzkor mamlakatni o‘z tabiiy resurslari bilan jalb qila oladigan va o‘z milliy mafaatlarini butunlay amalga oshirishga qodir bo‘lmagan mamlakatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

2-BOB. ARAB DAVLATLARIDA KECHAYOTGAN SIYOSIY JARAYONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Shimoliy Afrika arab davlatlari siyosiy tizimlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda arab dunyosida demokratik asosda saylanadigan parlamentga ega bo‘lgan mamlakatlar orasida asosan Jazoir, Misr, Tunis, Livan, Marokashni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Shimoliy Afrika xalqlarining ma’naviy va madaniy asoslarini asrlar davomida islom dini shakllantirib keldi. Yevropa huquqi asoslari bilan bir qatorda islom huquqi va shariat qonunlari mintaqadagi davlatlar nizom va konstitutsiyalarining asosi hisoblanib keladi. Shimoliy Afrika mamlakatlarining mustaqil rivojlanishi tajribalari diniy omilga yangicha ma’no berib, uni ichki siyosiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biriga aylantirildi. Siyosiy faoliyat imidjini shakllantirish jarayonining ajralmas qismi sifatida qarashdi¹. Tunis va Jazoirning tarixiy rivojlanishi o‘ziga xos jihatlaridan biri islom dinidan muqaddas hokimiyatning ajralishi sodir bo‘ldi. Marokashda qirol oliy boshqaruvi bo‘lsada, Muhammad payg‘ambar avlodlaridan bo‘lgan shaxsning oliy hokimiyati ham mavjud edi. Bu holat Jazoir va Tunisda ham mavjud bo‘lib, ular muqaddas hokimiyatni boshqarar edi².

Shu bilan birga islom dini butun Afrika arab davlatlarining davlat dini sifatida e’lon qilinib davlat boshlig‘i shaxsan o‘zining axloqiy me’yorlariga, islom aqidalariga bo‘lgan hurmatini namoyish qilishi lozim edi. U bayramlarda va boshqa hollarda asosiy masjidlarda ibodat marosimlarida ishtirok etishi talab qilinardi.

¹ Мухаммадсидиков М.М. Араб давлатларида демократлаштириш жараёнлари: ютуқлар ва муаммолар // Ўзбекистонда парламент институтининг ривожини ва истиқболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 191.

² Ушбу жойда.

Tunisda Burgiblarning liberal-avtoritar tuzumi keyin esa uning davomchisi Ben Ali islomni modernizatsiya qilish va sekulyarizatsiyalashtirish siyosatini olib bordi.

Marokash davlat tuzilishiga ko'ra konstitutsiyaviy demokratik va ijtimoiy monarxiyadir. Ba'zi hollarda u teokratik va mutloq monarxiya deb yuritilsa, boshqa hollarda parlamentar va demokratik deb ta'kidlanadi. Bundan tashqari qirollik hokimiyati davlatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayotida eng muhim rolni o'ynaydi. Marokashda kuchli an'anaviy absolyutizm mavjud bo'lib, buni sobiq qirol Hasan II o'z so'zlari bilan ta'kidlab o'tadi: "Islom menga konstitusion monarxiya tuzishni taqiqlaydi, chunki qirol barcha o'zining vakolatlarini beradi va to'g'ri hukmronlik qilmaydi."

Siyosiy islom harakati ko'tarilishi muammolari bilan to'qnash kelgan holda qirol Hasan II boshqa arab davlatlari bilan taqqoslaganda yuqoriroq turardi, chunki u o'z qabiladoshi Hasan bin Ali orqali Muhammad payg'ambarning to'g'ridan-to'g'ri avlodlaridan hisoblanadi. Monarxlar fuqarolar orasida o'zlarining obro'sini ko'tarib turadigan "Hudoning yerdagi o'rinbosari" va "xudojuylarning olampanohi" kabi unvonlarga ega bo'lish huquqi bor.

Islom Marokash siyosiy tizimida doimo muhim rol o'ynab kelgan. Uning Marokash jamiyatidagi ahamiyati ikki tomonlama. Bir tomondan islom rejimi holatining kuchayishiga, davlat hokimiyati organlari tizimini mustahkamlashga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan esa ularga qarshi turadi. Vujudga kelayotgan islom tashkilotlari rejim bilan munosabatlarda xayrixohlik kayfiyatida bo'lib, ularning taktik maqsadlari podshoh manfatlari bilan to'g'ri kelgan edi: fundamentalistlar sionizm, marksizm, so'l kasaba uyushmalari, monarxiyaga qarshi bo'lgan kayfiyatdagi ziyolilar vakillari bilan kurashish shiorlarini ko'tarib chiqishdi.

Jazoir Konstitutsiyasi va 1997 yil martda qabul qilingan asosiy qonunga binoan Prezident besh yillik muddatga saylanadi. Prezident o'zining maxsus vakillari orqali hokimiyatning qonun chiqaruvchi va sud organlari bilan hamkorlik

qilib, qonunchilik borasida tashabbuslar bilan chiqishi va parlament qabul qilgan qonunlarni imzolashi koʻzda tutiladi.

Davlat boshligʻi sifatida Konstitutsiya, fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, Jazoir suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini taʼminlashga qaratilgan choralar koʻradi, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlarini belgilaydi va qurolli kuchlarning Oliy bosh qoʻmondoni hisoblanadi. 1996 yilgi Konstitutsiya davlat rahbariga parlament sessiyalari oraligʻi va favqulodda holatlar davomida qonun chiqarish, moliyaviy qonunlarni tasdiqlash va boshqa huquqlarni ham berdi¹.

Tunis Prezidenti H. Burgibo 1987 yilda Zin al-Abiddin Ben Alini Bosh vazir va general etib tayinladi. 1987 yil 7-noyabrda Ben Ali harbiy tarafdorlar koʻmagida Burgiboni Konstitutsiyani 56-moddasiga² muvofiq hokimiyatdan chetlashtirdi va oʻzini vaqtinchalik Prezident vakolatlarini bajarish uchun tayinladi. Keyinchalik “7-noyabr manifesti”³ deb nomlangan chiqishda Ben Ali Tunis mustaqilligi va davlatning oyoqqa turishi hamda katta demokratik oʻzgarishlarni qoʻlga kiritishda Burgiboning rolini yuksak baholadi. Shuningdek, yana ommaviy axborot vositalari va jamoat oʻrtasida hamda Prezident boshqaruvida “Koʻppartiyaviylik va koʻpgina ijtimoiy tashkilot prinsiplari asosida birlashmalar” barpo qilinganligi eʼlon qilindi.

Aksariyat mamlakatlarda boʻlgani kabi Shimoliy Afrika davlatlarida ham Konstitutsiyaga binoan davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud organlari orasida taqsimlangan. Jazoirda ijroiya hokimiyati Prezident va hukumat, qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali parlament, sud hokimiyati sud organlari

¹ Самариддинов Ф. Жазоирда парламент институти ривожланишининг айрим жиҳатлари // Ўзбекистонда парламент институтининг ривож ва истикболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 213.

² Согласно ст.56 тунисской конституции, «в случае неспособности Президента Республики выполнять свои обязанности его полномочия делегируются премьер-министру» – Конституция Тунисской Республики // Сапронова М.А. Государственный строй и конституции арабских республик. - М., 2003, - С. 323.

³ Видясова М.Ф. Джихад без войны. – М., - С. 418.

tomonidan amalga oshiriladi. Jazoiridagi davlat tizimida Prezident yetakchi o'rin tutadi¹.

Jazoir 1962 yilda o'z mustaqilligiga erishganidan keyin mamlakat parlamenti birpartiyaviylik asosida shakllandi. Jazoirda prezident hokimiyatining kuchliligi va birpartiyaviylik tizimi parlament imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. 1965 yilda Bumiddin hokimiyat tepasiga kelganidan keyin parlament a'zolari Inqilobiy kengash foydasiga o'z vakolatlaridan voz kechdilar. Bu bilan parlament ramziy shaklda saqlanib qoldi.

1976 yilda Jazoirda siyosiy institutlar tiklanishi boshlanib, yangi Konstitutsiya asosida 1977 yilda mamlakatda yakka hukmron bo'lgan Milliy ozodlik jabhasi (MOJ) partiyasi nazorati ostida parlament saylovlari o'tkazildi va ma'murlar xohish-istagini ifodalaydigan qonunchilik organi shakllandi.

1989 yilda Jazoirda demokratik jarayonlarning faollashuvi va ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi parlamentda o'z aksini topdi. Jazoir tarixida ilk bor 1991 yil 26 dekabrda ko'ppartiyaviylikka asoslangan saylovlarning birinchi bosqichi o'tkazilishi va unda diniy Islom xalos jabhasi (IXJ)ning g'alabasi Jazoiridagi siyosiy jarayonlarning keyingi rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Islomiy kuchlarning hokimiyat tepasiga kelishi aniq bo'lib qolgan sharoitda saylovlarning ikkinchi bosqichi bekor qilindi. 1992 yil yanvarda amaldagi parlament tarqatildi.

Jazoirni boshqarishni o'z qo'liga olgan Oliy davlat kengashi tomonidan 1992 yil 22 aprelda parlament vazifalarini bajaruvchi 60 kishidan tarkib topgan Milliy maslahat kengashi ikki yillik muddatga tuzildi. 1994 yildan e'tiboran uch yil davomida parlament vazifalarini ado etgan Milliy o'tish kengashi faoliyat ko'rsatdi².

Yuqoridagilar asosida 1997 yilga qadar Jazoirda demokratik parlament bo'lmaganini ko'rish mumkin. Jumladan, Jazoir mustaqillikka erishganidan keyin

¹ Entelis J. Islam, Democracy, and the State: The Reemergence of Authoritarian Politics in Algeria//Revised paper presented at Eighteenth Annual Symposium, Center for Contemporary Arab Studies, Georgetown University on "Islamism and Secularism in North Africa" (01-02.04.1993). – Washington.

² Самаридинов Ф. Жазоирда президент институти мустахкамланишининг айрим жиҳатлари // Ижтимоий фанларнинг долзарб муаммолари: илмий-услубий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 49-51.

35 yil mobaynida parlament (1962-1965 va 1977-1992 yillar) yoki uning vazifasini ado etgan organlar (1965-1977 va 1992-1997 yillar) amalda mamlakat rahbariyati irodasiga bo'ysundirilib, ko'proq dekoratsiya vazifasini o'tadi.

1996 yilda qabul qilingan Jazoir Konstitutsiyasida xalq o'z vakillarini saylash va erkin tanlash huquqiga egaligi ko'rsatildi. Konstitutsiya parlament ikki palatadan tarkib topishini ko'zda tutdi: quyi palata - Milliy xalq kengashi (MXK) va yuqori palata - Millat kengashi (MK). 1997 yil martda qabul qilingan Saylovlar to'g'risidagi yangi qonunda parlament (MK va MXK) va mahalliy hokimiyat organlari - Viloyatlar xalq kengashlari (VXK) va Kommunal xalq kengashlari (KXK)ga saylovlarga doir masalalar yoritildi.

389 deputatdan tarkib topadigan quyi palata kundalik ichki va tashqi siyosat masalalarini hal qilishga mas'ul bo'lib, besh yillik muddatga saylanadi. Ko'pgina mamlakatlarda bo'lgani kabi yuqori palata quyi palata ishiga ekspertlik qiladi va qabul qilinadigan qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini ko'rib chiqadi¹.

Ayni vaqtda MK a'zolari soni MXK a'zolarining yarmidan oshmasligi belgilangan. Bunda ularning 1/3 qismini (48 kishi) Prezident tayinlaydi va 2/3 qismi (96 kishi) mahalliy hokimiyat organlari bo'lgan viloyatlar va kommunalar xalq kengashlari a'zolari orasidan bilvosita va yashirin saylovlarda saylanadi (har bir viloyatdan ikki kishidan). MK a'zolarining yarmi har 3 yilda yangilanadi.

Demokratiyalashtirish jarayoni doirasida Jazoirda 1989 yil iyulda siyosiy partiyalar tuzish haqida qonun qabul qilinishi bilan ko'ppartiyaviylik tizimiga yo'l ochib berildi. Shundan keyin mamlakatda o'nlab siyosiy partiyalarning faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular ichki tuzilmasi, ijtimoiy mohiyati va vazifalari, g'oyalari va dasturlari, jamiyat siyosiy tizimidagi o'rniga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

XXI asrning boshlariga kelib, Jazoirda milliy-konservativ, diniy, millatchi, demokratik, dunyoviy partiyalar faoliyat olib bormoqda. Ularning orasida 9 partiya so'nggi yillarda mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda nisbatan faol ishtirok etishi bilan ajralib turadi.

¹ Ушбу жойда.

1) Milliy-konservativ partiyalar - “Milliy ozodlik jabhasi” (MOJ) va “Milliy demokratik birlashma” (MDB) Jazoir siyosiy hayotida faol qatnashishidan tashqari, mamlakatda hukmron mavqelarga egaligi bilan ajralib turadi. Jazoir rahbarlari aynan shu partiyalarga tayanib ish ko‘radi.

Jazoirda 1962-1989 yillarda yagona legal siyosiy partiya sifatida faoliyat ko‘rsatgan MOJ 2002 yil mayda o‘tkazilgan parlament saylovlarida MXKdagi 389 o‘rindan 199 tasini olishga erishdi va mamlakat siyosiy hayotidagi yetakchi mavqeini qaytarib oldi. 2007 yilda o‘tkazilgan saylovlarda MOJ 136 o‘rin bilan cheklangan bo‘lsada, mamlakatdagi yetakchi siyosiy partiya mavqeini saqlab qoldi.

1997 yil fevralda Prezident Zirvalga ko‘maklashgan kuchlar asosida barpo etilgan MDB tezda Jazoirda hukmron mavqelarni egalladi. Jumladan, tuzilganiga uch oy bo‘lganiga qaramasdan, parlament saylovlarida 156 o‘rinni olib, mamlakatdagi hukmron partiyaga aylandi. 2002 yilgi saylovlarda MDB siyosiy partiyalar orasida qiyinchilik bilan ikkinchi o‘rinni (47 o‘rin) egalladi. MDB 2007 yilgi saylovlarda 61 o‘rinni olib, o‘z mavqelarini birmuncha mustahkamladi. 2008 yilda MDB rahbari Ahmad Uyahyo Jazoir Bosh vaziri mansabini qaytadan egalladi.

2) Diniy partiyalar - “Tinchlik jamiyati harakati” (TJH), “Milliy isloh harakati” (MIH), “Nahda harakati” (NH) va “Islom xalos jabhasi” (IXJ, faoliyati man etilgan) 1989 yildan beri Jazoir siyosiy hayotida qatnashib keladi. Bu davrda diniy partiyalar Jazoirda ikkinchi siyosiy kuchga aylandi. IXJdan boshqa diniy partiyalar mo‘‘tadil g‘oyalarga suyanishi kuzatiladi¹.

TJH partiyasi 1997 yilgi saylovlarda 69 o‘rinni egalladi. 2002 yilgi saylovlarda 38 o‘rin bilan cheklandi va siyosiy partiyalar orasida to‘rtinchi o‘ringa tushib qoldi. 2007 yilgi saylovlarda 51 o‘rin olib, mavqelarini birmuncha mustahkamladi. 1997 yildan beri muntazam ravishda hukumat faoliyatida ishtirok

¹ Самариддинов Ф. Жазоирда президент институти мустаҳкамланишининг айрим жиҳатлари // Ижтимоий фанларнинг долзарб муаммолари: илмий-услубий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 49-51.

etib kelayotgan TJH hozirgi bosqichda MOJ va MDB bilan Jazoiridagi hukmron uch partiyadan biri sanaladi.

MIH 2002 yilgi saylovlarda 43 o‘rin olishga erishib, MXKdagi uchinchi siyosiy kuchga aylandi. Keyingi yillarda partiya saflarida jiddiy ichki nizolar yuz berib, MIHning nufuzi pasaydi. Shuning uchun 2007 yilgi saylovlarda 3 o‘rin bilan cheklandi.

NH partiyasi 1997 yilgi saylovlarda 34 o‘rinni egalladi. 1999 yilda partiyada yuz bergan bo‘linish NH (MIH mustaqil partiya sifatida ajralib chiqdi) imkoniyatlari pasayib qolishiga sabab bo‘ldi va 2002 yilgi saylovlarda 1 o‘rin va 2007 yilda 2 o‘rin olishga erishdi.

3) Barbarlar partiyalari - “Sotsialistik kuchlar jabhasi” (SKJ) va “Madaniyat va demokratiya uchun birlashma” (MDUB) dunyoviy-demokratik partiyalar safiga kiritiladi. Ular doimiy ravishda Jazoirida dunyoviy davlat barpo etilishini yoqlab, demokratiya tamoyillariga asoslanishini bildirsada, ochiqdan-ochiq milliy tabiati va barbarlar manfaatlarini himoya qilishi ularga nisbatan arablarning salbiy mavqeini belgilaydi.

1997 yil iyunda o‘tkazilgan saylovlarda SKJ va MDUB 19 tadan o‘rin egalladi. Barbarlarning ikkala partiyasi ham 2002 yilgi saylovlarda ishtirok etmadi. SKJ 2007 yilda ham saylovlarda qatnashmaslik yo‘lini tutib, MDUB 19 o‘rin olishga erishdi.

4) So‘l partiyalar Jazoir siyosiy hayotida sezilarli o‘rin tutmasada, keyingi yillarda trotskiyparast “Ishchilar partiyasi” (IP, 1990 yilda tuzilgan)ning faolligi oshib bormoqda. IP 2002 yilgi saylovlarda 21 va 2007 yilda 26 o‘rin olishga erishganiga qaramay, aholi orasida katta nufuzga ega bo‘lmagan partiyalar qatoriga kiradi. Partiya rahbari Luiza Hanunning nomzodi 2004 va 2009 yillarda o‘tkazilgan prezident saylovlarida ko‘rsatildi. Bu bilan Luiza Hanun prezident saylovlarida nomzodi ko‘rsatilgan nafaqat birinchi jazoirlik, balki birinchi arab ayoli ham bo‘ldi.

Bundan tashqari, Jazoirida “Jazoir milliy jabhasi”, “Progressiv respublika partiyasi”, “Ahd 54”, “Milliy kelishuv harakati”, “Milliy tiklanish partiyasi”,

“Ijtimoiy liberal partiya” va boshqa kichik, imkoniyatlari cheklangan bir necha o‘n partiya ham faoliyat ko‘rsatadi. Ulardan ayrimlarining vakillari parlament a‘zolari bo‘lsada, faoliyati Jazoirdagi siyosiy jarayonlarga deyarli ta’sir ko‘rsatmasligi kuzatiladi.

Jazoirning hozirgi siyosiy tizimida 1991 yil dekabrda parlament saylovlari tajribasi inobatga olinadi. Shuning uchun muayyan bir partiya kuchayishiga yo‘l berilmaydi. Ayniqsa, islomiy kuchlarga ehtiyotkorlik bilan qaraladi¹.

Konstitutsiya parlamentda ko‘ppartiyaviylik va plyuralizmni ko‘zda tutgan bo‘lsada, hokimiyat tepasiga mavjud nizom tashqarisidan yo‘lboshchi kelishini qiyinlashtiradi. Shubhasiz, 1991 yilgi parlament saylovlarida sodir bo‘lgan voqealar Prezident vakolatlarini yanada oshirishga undadi. Bu bilan parlamentda ko‘p o‘ringa ega bo‘lgan partiya mamlakatdagi tuzum va davlat muassasalarining respublikacha tabiatini o‘zgartirishga urinishlarining oldi olindi, deb hisoblanadi. Konstitutsiya ham mamlakat prezidentiga MK orqali parlamentni boshqarish imkonini beradi. Bunda Prezident MK a‘zolarining 1/3 qismini tayinlashini ko‘rsatib o‘tish mumkin. MKga o‘ziga hamfikir va taniqli kishilarni tayinlash bilan Prezident qonunchilik va ijroiya hokimiyatlarini boshqarish imkoniyatidan har tomonlama foydalanadi.

2009 yilning aprelida bo‘lib o‘tgan navbatdagi prezident saylovlarida ham Butaflqa 90%dan ziyod ovoz bilan g‘alabaga erishdi. Unga Luiza Hanundan tashqari munosib raqib (ovozlarning 4,5%i) bo‘lmadi. Boshqa 4 nomzodning har birini saylovchilarning 2%dan kamrog‘i qo‘lladi. Ma’murlarni 1999 yilda bo‘lgani kabi nomzodlarning so‘nggi lahzalarda saylovlardan chiqib ketish ehtimoli tashvishga solgani ayrimlari saylovlarda muqobillik ruhini saqlash uchun qatnashgani zikr etildi.

Prezident saylovlari hozirgi bosqichda Jazoirda Butaflqaga teng keladigan xarizmatik shaxs yo‘qligini ko‘rsatdi. Shuning uchun saylovlar natijalari oldindan deyarli ma’lum bo‘lgani uchun qancha saylovchi qatnashishi katta ahamiyat kasb

¹ Самариддинов Ф. Жазиорда парламент институти ривожланишининг айрим жиҳатлари // Ўзбекистонда парламент институтининг ривожи ва истиқболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 217.

etdi. Bunda saylovchilarning 74,6%i qatnashishi prezident saylovlarining muvaffaqiyati sifatida baholandi.

Ma'lumki, prezident respublikasi uning davlat organlari tizimidagi muhim o'rnidan dalolat beradi. Prezident aksariyat hollarda parlamentdan mustaqil ravishda umumiy, to'g'ri, yashirin saylovlarda saylanadi. Jazoirda ham prezident hokimiyati muttasil mustahkamlanib bormoqda. Jazoirning 1996 yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi asosida prezident vakolatlari sezilarli darajada oshirildi¹.

2008 yil noyabrda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar prezident vakolatlarini yanada oshirdi. Eng muhimi, prezidentlik muddati ikki muddat bilan cheklanishi bekor qilindi va amaldagi Prezident Butafliqaning uchinchi muddatga saylanishiga yo'l ochib berdi. Shuning uchun Jazoirdagi muxolif kuchlar tomonidan so'nggi o'zgarishlar "davlat to'ntarishi" sifatida ta'riflandi².

O'zgarishlar prezidentning ijroiyl hokimiyatdagi nufuzini oshirib, Vazirlar Mahkamasiga raislik qilishi, vazirlarni Bosh vazir bilan kelishgan holda tayinlashini qamrab oladi. Bu bilan Prezident Butafliq davlat rahbari, Vazirlar Mahkamasi raisi, qurolli kuchlar oliy qo'mondoni va hukmron MOJ partiyasi raisi sifatida Jazoirdagi hokimiyatni deyarli to'laligicha o'z qo'lida jamladi.

Tunisda muhim siyosiy voqealardan biri 2004 yildagi prezident va parlament saylovlari bo'ldi. Bu saylovlardan oldingi muhim voqea 2002 yilgi umumxalq referendumini bo'lib, bunda referendum yakuni bo'yicha Tunis konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritildi. Bu o'zgartirishga ko'ra Tunis parlamentining quyi palatasi – maslahat majlisi tashkil topdi³. Bungacha Tunis parlamenti deputatlar majlisidan iborat edi. Shu bilan bir qatorda prezidentni keyingi muddatga saylashga to'sqinlik qiladigan ba'zi cheklanishlar bekor qilindi, hamda prezidentlikka nomzodning yoshiga bo'lgan cheklanish uzaytirildi (75 yoshgacha). Bu narsa 1936-yilda tug'ilgan hozirgi prezident Ben Ali o'z nomzodini 4- marta (2004-2009 yy) qo'yish imkonini berdi. 2004 yili internetdan foydalanishga bo'lgan cheklanish

¹ Дустьур 1996. - ал-Жазаир: ал-Матбаа ар-расмия, 1996. – Б.15-19.

² Aghrout A.and Zoubir.Y. Introducing Algeria's President-for-Life. - Middle East Report Online. – 01.04.2009.

³ Согласно принятым поправкам к туниской конституции, Консультативный совет состоит из 126 членов. Часть из них избирается депутатами Палаты депутатов (85), часть назначается главой государства (41) – www.tunisiaonline.com/news/ 7.07.2005.

bekor qilingandan keyin Tunisliklarga Tunis tuzumini tanqid qiluvchi chet el gazetalarning saytlari ochildi. Bular: Fransuz gazetasi “Yumanite”, “Liberason”, xalqaro inson huquqini himoya qiluvchi tashkilotlar “Amnesti interneyshenel”, xalqaro yuristlar komissiyasi, jurnalistlarni himoya komiteti va boshqalar. Muxolafatdagi partiyalar nashriyoti katta mustaqillik oldi, masalan: “al-Mavqif” gazetasi, demokratik taraqqiyot partiyasi organi, “at-Tariq aljadid” (Yangi yo‘l) – yangilanish partiyasi organi gazetasi. Muxolafatdagi siyosiy partiya liderlari rasmiy ravishda o‘z tarafdorlari bilan yig‘in va mitinglar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishdi va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lishdi¹.

Prezidentni saylov kompaniyasida 4 ta nomzod qatnashdi bular: hozirgi prezident Zin al-Abiddin Ben Ali, xalq birligi partiyasining bosh kotibi Muhammad Buxisha, yangilanish partiyasi yetakchisi Muhammad Ali Xaluani va Sotsial liberal partiyasi prezidenti Muhammad Munir Beji. Bu kompaniyada 24-oktyabr 2004 yil hamma siyosiy tahlilchilar bashorat qilishganidek bo‘lib chiqdi.

Saylov natijalariga ko‘ra hozirgi prezident Zin al-Abiddin Ben Ali 94,49% saylovchilar ovozini olib g‘alaba qozondi. Qolgan nomzodlar quyidagicha ovoz olishdilar: Muxammad Buxisha 3,78%, Muhammad Ali Xaluani 0,95%, Muhammad Munir Beji 0,79%². Prezident saylovi bilan bir qatorda parlament saylovlari ham bo‘lib o‘tdi, unda 7 ta siyosiy partiya qatnashdi. Bu saylovda 152 ta deputat o‘ringa (jami 189) DKB ega bo‘lib uning 25%ni deputat ayollar tashkil etdi, qolgan 37 deputat o‘rin Tunis qonunchiligi bo‘yicha saylov okruglarida ko‘p ovoz ololmagan partiyalarga berildi. Bunda Demokrat sotsialistlar xarakati 14 o‘rin, Xalq birligi partiyasi 11 o‘rin va Demokrat yoshlar ittifoqi 7 o‘rin. Shuni aytib o‘tish kerakki Ben Alining 4-prezident muddatiga saylanishidan oldin ham keyin ham G‘arb va ba’zi bir Sharq ommaviy axborot vositalarida Arab mamlakatlari qisman Tunis haqiqiy demokratiyani rivojlantirishga qodir emas, bu

¹ Мухаммадсидиков М.М. Араб давлатларида демократлаштириш жараёнлари: ютуқлар ва муаммолар // Ўзбекистонда парламент институтининг ривожини ва истиқболлари: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2010. – Б. 191.

² www.tunisiaonline.com/elections2004/nouvelles/ 1.07.2005.

mamlakatlarda arab jamiyatlariga xos an'anaviy avtoritarizm saqlanib qolishligini e'tirof etadi¹.

2.2. Arab davlatlarida siyosiy jarayonlar va ularning mohiyati

Bizlarga ma'lumki, Yaqin Sharq (Tunis, Misr, Liviya, Yaman, Bahrayn, va Suriyada)dagi siyosiy voqealar butun dunyoni oyoqqa turg'azdi va uning butun diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib turibdi. Ko'plab siyosatchi va tahlilchilar "sungsvange" holatiga tushib, mintaqadagi voqealarning keyingi rivojini oldindan aytishga shoshmayaptilar². Ushbu demokratik rivojlanish yo'ldan borayotgan mamlakatlarda esa endi islom yo'ldan ketilishi aniq namoyon bo'lmoqda. Hukumatga diniy radikallarning kelishiga imkon berish AQSh yoki uning NATOdagi ittifoqchilarining siyosiy kun tartibiga kiritilmayapti. G'arb demokratiyasi uchun voqealarning bunday xavfli tomonga o'zgarishiga qaramay, AQSh "mo'tadil islomchilar" bilan muzokaralarni boshladi. Buni anglagan "Musulmon birodarlari" tashkiloti Misrdagi hokimiyatga da'vo qilmoqdalar. Ushbu tashkilot o'zining kuchli mafkuraviy imkoniyatlariga qaramay davlatni boshqarishda yetarli tajribaga, mamlakatni rivojlantirishdagi aniq rejaga ega emas. Bundan kelib chiqqan holda, "Musulmon birodarlar" o'z siyosiy tarjimai holida ushbu kamchilikni to'ldirishga intilmoqda. Misol uchun, ular o'zlarining "al-Xurriya va al-Adala" (erkinlik va Adolat) partiyasini tashkil etib, u orqali 2011 yil dekabrda parlamentga saylovlarda o'z nomzodlarini qo'yib mamlakatning yuqori palatasi (Al-Majlis ash-Shuraa)dagi jami 180 ta o'rindan 105 tasini ya'ni – 40% ovoz! "Nur" salafiyalar partiyasi esa yana 20% ovozni ya'ni 45 o'rinni qo'lga kiritdi³. Bunga o'xshash holat Tunisda ham ro'y berdi. Ma'lumki, 2010 yilning 17

¹ Camau M., Geisser V. Le syndrome autoritaire. Politique en Tunisie de Bourguiba à Ben Ali. Presses de Science Po, 2006. Cit.: L'Express, 23.10.2006, с. 24.

² Ёвқочев Ш.А. Трансформация внешнеполитической стратегии США в свете «твиттерных революций» на Ближнем Востоке // илмий-амалий конференция материаллари тўплами. -Т.: ТошДШИ, 2011. – Б. 11.

³ Об изменениях в военно-политической обстановке на Ближнем Востоке и в Северной Африке (20-26 февраля 2012 года) <http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/18-02-30c.htm>

dekabrida aynan shu yerda “Arab bahori” deb nomlangan hodisalarning uchquni olovga aylandi. 2011 yilning noyabrida Tunisda parlament saylovlari bo‘lib o‘tib, unda ko‘pchilik ovozni “an-Nahda” (“Tiklanish”) islom partiyasi qo‘lga kiritdi. Liviyada esa voqealar juda qo‘rqinchli ko‘rinishga ega bo‘lib, voqealar AQSh va uning NATOdagi hamkorlari ko‘z oldiga keltirgan demokratik ssenariyga o‘xshamadi. Liviyadagi O‘tish milliy hukumati tarkibiga M.Kaddafini sud va tergovsiz o‘ldirgan jangarilar, xavfsizlikni saqlash idoralarini o‘z qo‘lida ushlab turgan sobiq islomiy komandirlar kirganligini ko‘ramiz.

2011 yilning 25 noyabrida Marokash Qirolligida muddatidan avval bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida kutilganidek islomiy Adolat va taraqqiyot partiyasi (ATP) g‘alaba qozondi¹. Natijada yangi hukumatni “mo‘‘tadil” islomchilar shakllantirishdi. ATP a‘zolari jami 30 ta vazirlik lavozimlaridan 12 tasini shu jumladan tashqi ishlar, adliya, hamda axborot vazirliklarini ham qo‘lga kiritishdi. Aytish mumkinki, Yamandagi sobiq prezident Ali Abdulloh Solihning hukumatdan ketishi va natijada 2012 yilning 26 fevralida prezidentlik qasamyodini qilgan yangi preziden A.M. Xadining hokimiyatga kelishi ham Yamanda hukumatga islomiylarning kelishi aniq bo‘lganidan dalolat beradi deyish mumkin.

Albatta, ushbu mamlakatlarda ko‘p yillardan beri davlat tepasida o‘tirgan rahbarlarning iste’fosini talab qilib ommani ko‘chaga chiqishga undagan jiddiy portlovchi kuch-qudrat ko‘p yillar mobaynida yig‘ilib qolgan edi. Insonlar hukumatga qarshi adovatga to‘lib yashab keladilar va qulay fursat tug‘ilganda ijtimoiy portlash yuz beradi. Ammo, yaxshi bo‘lmagan hissiyot va siyosiy qasosning shakllarini qo‘llab-quvvatlash va kuchaytirish mutlaqo mintaqada demokratik prinsiplar va erkinliklarning g‘alabasi degani emas.

Tabiiyki, Yaqin Sharq mintaqasida ro‘y berayotgan barcha siyosiy voqealarning asosiy sababi nafaqat ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, balki siyosiy ehtirolarni junbushga keltirishda yaxshigina rol o‘ynagan tashqi omillar (“الجزيرة” Al-Jazira telekanali, “Facebook” va “Twitter” texnologiyalari)dir.

¹ Куделев В.В. Ситуация в Марокко: январь 2012 г. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/18-02-12c.htm>

Masalan, H.Muborakning iste'fosini talab qilib ommaviy norozilik namoyishlarini keltirib chiqargan 2011 yil 25 yanvardagi Misrda umumiy ish tashlash va Nafrat kuniga bo'lgan da'vat Facebookda joylashtirilgan, o'zini "6 aprel harakati" deb nomlagan tashkilot tomonidan qilindi¹. Noroziliklarning jiddiy bo'lganligi va yaxshi tashkillashtirilganligidan Muborak o'z kabinetini iste'foga chiqarib, yangi vise prezident etib, sobiq razvedka vaziri, general Umar Sulaymonni tayinlashga majbur bo'ldi. "6 aprel harakati"ni Misrning Maxalla shaharchasida 2008 yil 6 apreldagi ishchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ish tashlashga chaqirib, Facebookda sahifa ochgan 29 yoshlik muhandis Ahmad Mohir Ibrohim boshqardi. E'tiborlisi shundaki "Al-Jazira" kanali va Qatarda nashr etiladigan gazetalarning birinchi sahifasida xursandchilik bilan «Boshlandi !!!» degan xabar e'lon qilindi².

New York Timesning hisobiga ko'ra, 2009 yildan 800000 misrlik, ulardan ko'pchiligi yoshlar, o'shandayoq Facebook va Twitter foydalanuvchilari edilar. Vashingtonning Karnegi fondi muxbiri bilan suhbatda "6 aprel harakati" rahbari Mohir quyidagi gaplarni aytgan: "Internet tarmog'i, masalan Twitter orqali aloqa qiluvchi Misrdagi ilk yoshlar harakati bo'la turib, biz ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi ishtirokni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan demokratiyaga ko'maklashishga intilmoqdamiz"³. Yana shunisi alohida ta'kidlash mumkinki, "Al-Jazira" kanali 2011 yilning bahor faslida Bahrayndagi tartibsizliklarni bartaraf etish maqsadida Saudiya Arabistoni ichki qo'shin kuchlarining Bahrayn poytaxtiga kiritilishini hamda 2011 yilning mart-aprel oylari davomida SAPning Jidda va Ar-Riyod shaharlarida ziyolilarning chiqishlarini hamda SAPning Sharqiy hududlaridagi shialarning namoyishlarini ham efirda yoritmadi⁴. Bundan tashqari 2011 yilning mart oyida Qatardagi harbiy to'ntarishga urinish hodisasini, 2011 yilning sentyabr oylarining boshida Qatar amiriga bo'lgan suiqasd harakatlarini

¹ Хишам Ш. Мубаррирот ал вилаят ал муттаҳидату ал амрикия фи мумарасат ат тадаххул фи шуун ад дахилия лиддувал <http://www.dahsha.com/t48168.html>

² Львов П.П. КАТАР - карлик с амбициями гиганта или мираж в пустыне? Часть 7 <http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/19-01-12a.htm>

³ Jijo Jacob. What is Egypt's April 6 Movement? // <http://www.ibtimes.com/107387/20110201/what-is-egypt-s-april-6-movement.htm>.

⁴ Львов П.П. КАТАР - карлик с амбициями гиганта или мираж в пустыне? Часть 7 <http://www.iimes.ru/rus/stat/2012/19-01-12a.htm>

umuman gapirmadi ham. Odatda “Al-Jazira” Qatarning Fors ko‘rfazidagi qo‘shni monarxiyalardagi yuz berayotgan voqealar to‘g‘risida lom mim demasligi odatiy holga aylangan. Biroq, Misr, Liviya va Suriyadagi hodisalarni esa har daqiqali takror ko‘rsatish tartibidagi ko‘rsatuvlarda va hatto bir kadrni bir kunda bir necha marta namoyish etish holatida namoyish etdi va etmoqda.

Misrdagi muxolifatda bo‘lgan “6 aprel harakati”ning faoliyati xalqaro tashkiliy-informasion resurslar bilan qo‘llab-quvvatlangan. Eng avvalo, bu Ford fondi, Makarturlar fondi, “Ochiq jamiyat” hamda IT ishlab chiqaruvchilari va tarqatuvchilari tomonidan moliyalashtirilgan Global Voices tarmog‘idir. Aynan muntazam ravishda xalqaro konferensiya va muloqot uchrashuvlar o‘tkazib turgan Global Voices orqali “O‘zgarishlar tarafdori bo‘lgan vrachlar”, “O‘zgarishlar tarafdori bo‘lgan jurnalistlar”, “O‘zgarishlar tarafdori bo‘lgan ishchilar” va h.k. kabi ixtisosga oid ijtimoiy tuzilmalarga mablag‘lar ajratilingan. Alohida yo‘llar orqali yuristlar uyushmasi, ayollar tashkilotlari hamda milliy kamchilikni tashkil etgan tuzilmalar qo‘llab-quvvatlangan. Shuningdek, aniq maqsadli yordamni eng avvalo “al-Masri al-yavm” kabi polisiya sayti, xalqaro miqyosda esa “al-Jazira” nashriyotlari tahririyati olishgan. Asosan OAV sohasidagi alohida zakovatli odamlar – feleton va karikatura janri ustalari ham qo‘llab-quvvatlangan. Asosiy urg‘u kamchilikni tashkil etgan qibtiylar bilan ishga berilgan. 1980-yillarning boshlarida Sudandagi kabi Misrdagi xristian kamchilik ular uchun alohida tashkil etilgan tashkilotlar – Xalqaro xristian birligi (CSI) va Pax Christi fondiga kirishgan.

AQShning qator nohukumat tashkilotlari shu jumladan demokratiyani qo‘llab-quvvatlash tashkiloti, Yoshlar harakati Alyansi, «Fridom xaus» NHT, Xalqaro respublika instituti (senator Djon Makkeyn), Xalqaro munosabatlar milliy demokratik instituti (rahbari – AQSh sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt). Ular AQSh Davlat departamenti talabiga ko‘ra tadqiqot korporatsiyasi (RAND) ishlab chiqqan ishlanmalaridan foydalandilar. Shuningdek, Demokratiyani qo‘llab-quvvatlash milliy fondi muxolifatchi kadrlarni tayyorlashda faol ish olib bordi. Ular Polshadagi “Hamjihatlik”, chexoslavakiyadagi “Xartiya 77” va Serbiyada

“Otpor”. Keyinchalik esa ularning geografiyasi Ukraina, Gruziya va Markaziy Osiyo respublikalariga yoyildi.

Arab mamlakatlaridan kelib mazkur tashkilotlar tashkil etgan seminarlar va o‘quv kurslarida tinglovchi bo‘lgan arab yoshlari o‘z qatorlarida Rossiya va MDH davlatlaridan ham muxolifatchilarni va bloggerlar ishtirok etganini ta’kidlaydilar. Xususan 2008-2010 yillar mobaynida Arab mamlakatlari faollari bilan bir safda turib MDH davlatlari yoshlari ham Facebook, Twitter, YouTube, Google, CNN, CBS-news, ABC, NBC, RAND kabi tashkilotlarda faol ishlagan. Arab yoshlari orasida esa “Al-Jazira” mutaxassislari faol ish olib borgan. Ular Misrda Prezident Muborakka qarshi namoyishlarning dastlabki oylarida yuz bergan hodisalarni to‘liq tasvirga tushirib uni o‘zaro tahlil etib yangi “revolyusioner”lar uchun qo‘llanma sifatida taqdim etilgan. “Al-Jazira” kanali tomonidan ishlangan Misrdagi 2011 yilning fevral-mart oylaridagi siyosiy jarayonlarni hamda unda “6 aprel” harakatining faoliyatini keng yoritishga bag‘ishlangan “Revolyusiya urug‘i” filmini misol qilib keltirish mumkin. Hatto Misrning “6 aprel” harakati tashkiloti faollarini Serbiyaga olib borib u yerdagi “Otpor” tashkiloti taktikalari bilan ham yaqindan tanishtirilgan. AQShdagi “Fridom xaus” tomonidan “Yangi avlod” dasturlari doirasida muntazam ravishda ikki oylik o‘quv kurslari tashkil etilgan bo‘lib, mazkur o‘quv kurslarida yuqorida zikr etilgan tashkilotlardan tashqari Yamandagi “Intisar Kadxi” yoshlar harakati, Bahrayndagi “Inson huquqlari markazi” faollari imtiyozli grantlar asosida ishtirok etishgan.

“Ko‘pdan buyon kuzatilayotgan haqiqat shundan iboratki, nima uchundir erkinlik va demokratiyani, odatda, neft va gazga boy davlatlar, mintaqalarga yoyishga, rivojlantirishga zo‘r beriladi”¹, degan edi davlatimiz rahbari I.A. Karimov. AQSh Energetika Departamenti tahliliga ko‘ra, jahonda energetika mahsulotiga bo‘lgan talab 1993 va 2015 yil oralig‘ida 50%ga ortadi. Kaspiy dengizi atrofidagi inqiloblar yuz bergan mintaqalarda 17-49 mlrd barel neft va 232 trln.kub gaz zaxiralari mavjud bo‘lsa, Yaqin Sharq mintaqasida dunyo neft

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. —Т.:Ўзбекистон, 2005. — Б.39.

zaxirasining 61,7% va gaz zaxirasining 40,6% joylashgan¹. Natijada kundan-kunga jahon hamjamiyatining ehtiyoji ortib borayotgan energetika zahiralariга egalik qilishga xalqaro maydonda gegomonlikni ta'minlovchi vosita sifatida qarash kuchaymoqda.

Hozirgi kunda “rangli inqilob”lar texnologiyasini qo'llash tendensiyasi saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning avj olishiga monelik qiluvchi bir qator omillar mavjud. Mazkur omillarni “rangli inqilob”larning salbiy oqibati sifatida ham izohlash mumkin.

Inqiloblarda xalq tashabbusi mavjud bo'lsa-da, asosan ularni “yirik” mamlakatlarning manfaatlaridan kelib chiqqanligi tobora oydinlashib bormoqda. Bu xususda Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: “Bu mamlakatlardagi har bir xalqning turmush tarzi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Va “rangli inqilob”lar ham mutlaqo bir-biriga o'xshamaydi”². “Barcha mamlakatlar uchun, ularga xos bo'lgan xususiyat va alomatlarini hisobga olgan holda, birdek mos keladigan yakkayu yagona – universal demokratiya modeli yo'q va mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Demokratiyani eksport qilish va uni chetdan turib zo'ravonlik bilan joriy etish – o'zi aynan demokratiya tabiatiga zid narsa. Bu haqiqatni oxirgi davrda juda ko'p misollarda ko'rish mumkin”.

Yuqorida aytib o'tganimizdek G'arb o'z manfaatlariga erishish uchun aksariyat hollarda nodavlat tashkilotlardan keng foydalanadi. Masalan, Qirg'izistonda 7 mingga yaqin nodavlat tashkilotlari mavjud bo'lgan. 2006 yilda AQSh chet elda demokratiyani qo'llab-quvvatlash loyihasi uchun 1.3 mlrd. dollar, keyinchalik yana qo'shimcha ravishda 4.6 mldr. dollar pul ajratgan. Faqatgina Qirg'izistonga nazar tashlasak, u yerda demokratiya himoyasi uchun qudratli tizim yaratilgan: 30ga yaqin turli xildagi xalqaro tashkilotlar mavjud bo'lib ularda 200 dan ortiq loyihalar amalga oshirilgan. Bu tashkilotlarning eng ko'zga ko'ringanlari – AQSh xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID), Milliy demokratik institut (NDI), “Soros-Kirgiston” fondi, “Fridom Xaus”, “Kaunterpart Konsorsium”, “Tinchlik

¹ Мирский Г. Большой Ближний Восток — самый конфликтный регион мира //

<http://www.wpec.ru/text/200704171449.htm> –Клуб мировой политической экономики.

² Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч қимга қарам бўлмайди. 13-жилд. - Т., “Ўзбекистон”. 2005. – Б. 330.

Korpusi”. O‘zini jahon miqyosida inson huquqlari himoyachisi sifatida ko‘rsatishga harakat qilayotgan AQSh bu yo‘lda (aslida milliy manfaatlarni qondirish uchun) inson huquqlari uning uchun amalda ahamiyatsiz ekanligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari Gruziya, Ukraina va Qirg‘izistondagi “rangli” inqiloblardan farqli o‘laroq, Arab Sharqida ijtimoiy tarmoqlardan yuqori darajada foydalanildi. Eng avvalo, Facebook va Twitterdan, chunki uning bloggerlari tinglovchilarni hayajonga solish va chiqishlarni muvofiqlashtirishga safarbar qilingan edilar. Masalan, Yaman va Iordaniyadagi isyonlar bir vaqtda boshlandi. 15 yanvar bir kunning o‘zida Bahrayn va Liviyada qo‘zg‘olonlar ko‘tarildiki, bunga tarmoq tuzilmalarisiz erishib bo‘lmasdi. Shuning uchun ushbu voqealarni “twitter-inqilob” deb odilona aytish kerak¹.

Prezident I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “Xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan yangi tahdidlarning ko‘lami emas, balki qo‘yilgan geosiyosiy maqsadlarga erishishning ma’no-mazmuni, vosita va uslublari ham, har bir mamlakatning o‘ziga xosligi va undagi mavjud vaziyatni hisobga olgan xolda, tubdan o‘zgarib borayotganligiga e’tibor qaratish joiz”². Ana shu vositalar sirasiga “Rangli inqilob”lar texnologiyasini keltirish mumkin. Professor S.Jo‘raev ta’kidlaganidek, hozirgi global sharoitda ayrim yirik davlatlar o‘rtasida gegemonlikka intilish avj olgan bo‘lib, bu yo‘lda turli usul va vositalardan keng foydalanishmoqda. Ulardan biri “rangli inqilob”lardir.

“Rangli inqilob”lar – bu geostrategik va geosiyosiy kuchlar markazlarining manfaatlarini avj oldirish, u yoki bu davlatning ichki ishlariga aralashish, hokimiyat tepasiga qo‘g‘irchoq hukumatni keltirishning o‘ziga xos yo‘lidir. Asosiy maqsad – inqilobni moliyalashtirgan va uning qonuniyligini e’tirof etgan tashqi kuch foydasiga geosiyosiy yo‘nalishni o‘zgartirishdir³.

Ma’lumki, “rangli inqilob”lar atamasi Markaziy va Sharqiy Yevropa jamiyatlarining kommunizmdan keyingi harakatlari bilan bog‘liq. Bu harakatlar “demokratiya”, “liberalizm”, “milliy mustaqillik” shiorlari ostida olib borilgan.

¹ Ёвқочев Ш.А. Трансформация внешнеполитической стратегии США в свете «твиттерных революций» на Ближнем Востоке // илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Т.: ТошДШИ, 2011. – Б. 11.

² Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч қимга қарам бўлмайди. 13-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2005. – Б. 442.

³ <http://www.press-info.uz> – 2006 йил 10 май.

Serbiyadagi 2000 yil Slobadan Meloshivichni agʻdarishga qaratilgan inqilob “birinchi tinch” inqilob sifatida baholansa-da, lekin koʻplab mutaxassislar bu inqilob biror rangni ramz qilib olmagani uchun “rangli inqilob”larning boshlanishi sifatida tan olishmaydi. Ular “rangli inqilob” ilk bor Gruziyada boshlangan deb hisoblashishadi¹.

11 sentyabr voqealaridan keyin Vashington arab mamlakatlarida “demokratiyani rivojlantirish” va AQSh tarafdori boʻlgan fuqarolar tabaqasini tashkil etish uchun katta moliyaviy resurslarni safarbar qildi va taʼlim, madaniyat va informatsiya sohasida taxminan 350 ta yangi dasturlar tuzdi. Barcha dasturlar AQSh Davlat departamentining “Yaqin Sharqdagi hamkorlikni qoʻllab-quvvatlash tashabbusi” nomi ostidagi ulkan loyihada birlashtirilgan². 2002 yilda ushbu loyihaning maqsadi aniq belgilangan – Jazoir, Bahrayn, Misr, Iordaniya, Quvayt, Livan, Marokash, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, Tunis, Birlashgan Arab Amirliklari, Falastin hududi, Eron, Iroq va Liviya... kabi mamlakatlarda demokratik oʻzgarishlarni amalga oshirish.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish muhim yangiliklar bilan maʼqullangan. AQSh hukumati mavjud elita, harbiy va dindan qaytgan ziyolilar oʻrniga 25 yoshgacha boʻlgan ayol va erkaklarni oʻqitishni boshladi. Bundan tashqari, Davlat departamenti ushbu mintaqada oʻz taʼsirini kuchaytirish taktikasini oʻzgartirdi. Vashington, siyosiy tuzum va armiyani qoʻllab-quvvatlash oʻrniga, alternativ partiya, notijorat tashkilotlarni tuzishni, taʼlim tizimini isloh qilishni boshladi.

Oʻn yil ichida amalga oshirilgan “oshkora diplomatiya” natijasida AQShda va oʻzining vatanida siyosiy taʼlimni olgan arab yoshlarining soni anchaga oshdi. Agar 2000 yilning oxirida mingga yaqin fuqaro oʻzaro almashuv va taʼlim dasturlariga jalb qilingan boʻlsa, 2004-2009 yillarda ularning soni yuz mingga yetdi. Masalan, 1998 yilda Misrdan AQShga demokratiyani rivojlantirish sohasidagi dasturlar boʻyicha oʻqishga 3 300 kishi taklif qilingan boʻlsa, taklif qilinganlarning soni 2007 yilda 47300, 2008 yilda esa 148700 kishiga yetdi.

¹ http://en.wikipedia.org/wiki/Color_revolution

² Middle East Initiative Partnership // <http://www.medregion.mepi.state.gov/about-mepi.html>.

Jamiyatda uncha ta'minlanmagan sinf vakili bo'lgan va ta'lim olish imkoniyatidan mahrum yoshlarga "ishlov berildi". Ushbu guruh yoshlari – underserved youth, yoki xavfli guruh yoshlari – terroristik guruhlar a'zolari bo'lib qolish uchun imkonga ega edilar. Ular demokratiya va fuqarolik jamiyati asoslari bo'yicha ta'lim beruvchi maxsus maktablarda o'qib, siyosiy texnologiyalar va pro-test harakati asoslarini o'rganib, "demokratik o'zgarishlar"ning zarbdor otryadiga aylandilar va faqat "Zero" soatini poyladilar¹.

Bundan tashqari, qator informasion dasturlar tuzildi. AQSh hukumati 2002-2004 yillardan boshlab o'nga yaqin radiostansiya va telekanallar tashkil etdi. Ulardan eng mashhurlari – "Sava", "Farda", "Mustaqil Iroq", "Kurd tilida Amerika Ovozi", "Fors (Eron) yangiliklari tarmog'i" va boshqa kanallardir. Ularning ko'pchiligi, nomlardan ko'rinib turibdiki, Yaqin Sharq mamlakatlarida tashkil etilgan. Eng kattasi – "al-Hurra" ("Ozodlik") telekanali bo'lib, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi barcha mamlakatlarni qamrab olgan. Asosiy e'tibor faol jamoatchi-bloggerlar tayyorlashga qaratilgan edi. Masalan, faqat Kolumbiya universitetining o'zida yuridik maktabi bazasida kelajakdagi chiqishlar tashkilotchilari oldida Obamaning saylanishini ta'minlagan uning guruhidagi asosiy xodimlar "taqdimotlar" o'tkazishgan. Muxolifatchilarni tayyorlashga javob beruvchi yana bir tuzulma ham AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriluvchi Alliance for Youth Movements bo'ldi. Bundan tashqari, inqilob ssenariylarini ishlab chiqishda va muxolifat o'zagini tayyorlashda Global Voices ta'sischi va Google hamkori New America Foundation, Garvard qoshidagi Kennedi nomidagi Davlat boshqaruvi maktabining OAV va oshkora (xalq) siyosat(i) markazi, Garvardning huquq maktabi qoshidagi Berkman "Internet va jamiyat" markazi, NEXA markazi, Oksford Internet instituti, Kolumbiya va Iel universitetlari huquq maktablari va boshqalar bevosita ishtirok etgan².

¹ Ёвқочев Ш.А. Трансформация внешнеполитической стратегии США в свете «твиттерных революций» на Ближнем Востоке // илмий-амалий конференция материаллари тўплами. -Т.: ТошДШИ, 2011. – С. 13.

² Ушбу жойда. – С. 13.

Misrdagi boshqa norozilik harakati bu “Kifaya/Kifoya” bo‘ldi. “Kifoya” harakati MAGATening sobiq rahbari Muhammad al-Baradei nomzodini qo‘llab-quvvatlovchi Misrdagi norozilik namoyishlarini safarbar etishning qoq markazida turdi. “Kifaya” so‘zi “Etar/kifoya” deb tarjima qilinadi. Shunisi qiziqki, 2003 yil noyabr Gruziyadagi Atirgullar inqilobi uchun AQSh tomonidan moliyalashtirilgan nohukumat tashkilot (XSP – xalq siyosiy tashkilotlari) tuzumni almashtirishga qaratilgan yoshlar harakatini belgilash uchun “Kmara!” degan yorqin so‘zni tanlashgan. “Kmara!” ham gruzin tilida “Etar/kifoya” degan ma’noni anglatadi¹. Shuning uchun arab dunyosidagi “xalq” inqiloblarining o‘z-o‘zidan paydo bo‘lganligi haqida gapirish to‘g‘ri kelmayapti.

Biroq Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi shiddatli voqealar AQShni qiyin ahvolga solib qo‘ydi. AQSh hukumatlar ustidan oshib xalq bilan so‘zlashuv prinsipini qurol qilib olib, ham hukumatsiz, ham xalqsiz qolib ketdi. Bu, albatta, hozirgi prezident B.Obama paytidan boshlanmadi.

Afg‘oniston va Iroqdagi urushlar AQSh va uning ittifoqchilarini ancha-muncha zaiflashishiga olib keldi. Saddam Husayn tuzumi ostidagi dunyoviy Iroqni yo‘q qilinishi, Afg‘onistondagi Tolibon harakatini qayta jonlanishi, Eronning geosiyosiy ahamiyatining oshishi va kuchayishiga olib keldi. Bundan tashqari, agar Eron oldin Yaqin Sharqdagi o‘z siyosatining instrumenti sifatida “islom inqilobi” eksportidan voz kechgan bo‘lsa, endi, yuqorida keltirilgan mintaqadagi AQSh siyosatining inqirozga uchraganidan keyin, nafaqat mintaqa mamlakatlari, balki dunyoning boshqa musulmon davlatlariga o‘zining davlat tuzumi modelini ochiqchasiga ommalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, AQShning dunyodagi butun tashqi siyosiy strategiyasini xavf ostida qoldirdi. Jamiyatni islomlashtirish yo‘lini hatto dunyoviy demokratik davlat Turkiya ham tanladi. Yaqin Sharqda “G‘arb demokratiyasi”ni taraqqiy ettirish siyosati Vashingtonning totalitar tuzumlari yuqori doirasi uchun “domino effekti”ga qo‘shimcha teskari effektga olib keldi.

¹ National Endowment for Democracy. Middle East and North Africa Program Highlights 2009 // <http://www.ned.org/where-we-work/middle-east-and-north-africa/middle-east-and-north-africa-highlights>.

Shu bilan birga AQSh ochiqchasiga, masalan, Tunis, Misr va Liviyada bo'lgani kabi, o'zining oldingi ittifoqchilarini ular totalitar tuzumni qo'llab-quvvatlayapti deya ularga birin ketin xiyonat qila boshladi. Ta'kidlash lozimki, AQSh ssenariylash almashinuvini oldindan his etib, siyosiy islom harkatlari bilan yashirincha ittifoqlashishga ham ulgurgan. Shuning uchun AQSh prezidenti B.Obama muxolifatning "demokratik shiorlari"ni qo'llab-quvvatlashga qaror qilganida, Vashington bunday holatlarda "V/B" planiga o'tgani ma'lum bo'ldi. Ehtimol, o'sha kunga ko'p qolmadi, AQSh shu tarzda o'zining mintaqadagi asosiy strategik ittifoqchisi bo'lgan Isroilni ham topshirib yuborar.

Hozirgi paytda AQShda o'zgarib borayotgan dunyoning yangi voqealariga muvofiq AQSh uchun "Katta strategiya"ni ishlab chiqish zarurati haqidagi bahs ketmoqda. Ushbu strategiyaning muhim qismlaridan biri, aftidan, "Katta Yaqin Sharq"ni tuzish g'oyasidir. AQSh strateglari va siyosatchilari o'rtasida bo'lib o'tayotgan bahs AQSh ham iqtisodiy, ham harbiy jihatdan buyuk davlat bo'la turib, dunyoda bir tomonlama, global miqyosda ustun bo'lish siyosatini davom ettirish uchun resurslarga ega emas degan gapga olib bormoqda. Ishsizlik, ta'lim, qarz, noqonuniy muhojirlar masalasi, bunga qo'shimcha boshqa ko'p sonli muammolar AQSh iqtisodi va soliq to'lovchilari uchun og'ir yuk bo'lmoqda. Shubhasiz, AQShning dunyo YaIMdagi hissasi kamayib bormoqda. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Rossiya, Turkiya va bir qator boshqa davlatlar kabi yangi iqtisodiy gigantlar o'smoqda.

Asosiy muammolarni kuch ishlatish yo'li bilan hal etishga intilayotgan islom harakatlarini AQSh tomonidan tolerantlik (bag'rikenglik) va muloqot tomonga qo'zg'atish siyosati islomiylar mavqelarini yanada siyosiy lashuvi va radikallashuviga sabab bo'ldi. Kuchlarning bunday taqsimlanishi Vashingtonning Yaqin Sharqni demokratlashtirishga bo'lgan intilishlaridan ko'ra musulmon olamida "inqilob eksporti"ni yanada ko'proq amalga oshirish ma'quldek ko'rinmoqda. Chunki "fuqarolar erkinliklari" avtoritar tuzumlarda radikal kayfiyatdagi islom harakatlari faollashuviga katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Shimoliy Afrika va musulmon olamidagi inqilobiy to'ntarishlar bu jarayonlarni to'xtatish yoki yo'naltirishga bo'lgan AQShning ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyatlari qanchalik cheklanganligini namoyon qildi. Ehtimol, dunyo kerakli paytda o'zgara oladigan ittifoqchi va koalisiyalar hamda, turli hamkorlar bilan istalgan paytda xalqaro munosabatlarning yangi tizimini bino qilish uchun imkoniyatlar tug'iladigan davrga qadam qo'ymoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Rangli inqilob"larning eng muxim jihati ko'plab davlatlarning xavfsizligiga, siyosiy barqarorligiga tahdid solishdir. Ekspertlarning fikricha, "rangli inqilob"lar usuli iqtisodiy rivojlangan, lekin bir muncha beqaror, o'zini eplay olmaydigan, biroq muhim geosiyosiy mavqeni egallaydigan, har qanday to'jovuzkor mamlakatni o'z tabiiy resurslari bilan jalb qila oladigan va o'z milliy mafaatlarni butunlay amalga oshirishga qodir bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan qo'llaniladi¹.

Xullas, milliy qadriyatlarni hisobga olmagan xolda demokratiyani "eksport" qilishning bunday usuli jahonda hukmronlikka intilayotgan davlatlarning geosiyosiy maqsadlariga erishish vositasi bo'lib, bu yo'lda turli nohukumat tashkilotlar, diniy-ekstremistik guruhlar va muxolifatlardan ularga har tomonlama yordam ko'rsatish orqali foydalanilmoqda. Bosh maqsad jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tartibsizlikdan foydalangan holda hokimiyatga o'z tarafdorlarini keltirishdir. Muayyan davlatda hukumat milliy manfaatlarni ta'minlashga qaratilgan va puxta ishlab chiqilgan strategiya asosda qat'iy siyosat yurgizsa, jamiyatda yuzaga kelgan muammolarning hal etilishi davlat tomonidan doimo nazorat etib borilsa hamda hukumat organlari va fuqarolar aloqasini mustahkamlovchi ijtimoiy institutlar faoliyati to'g'ri tashkil etilsa, demokratiyani chetdan joriy etishning bu kabi salbiy usullari o'zini oqlamaydi. Jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan tahdidni bartaraf etish imkoni oshadi.

¹ С. Саидолимов, С. Жўраев, З. Абдуғаниева. Халқаро хавфсизлик. - Т., Академия. 2007. – Б. 118..

2-BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Bugungi kunda Shimoliy Afrika davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy kelishmovchiliklar, hududiy muammolar, iqtisodiy inqiroz va diniy ekstremizm fundamentalizm kabi qator muammolar Shimoliy Afrika davlatlari siyosiy tizimi va demokratik jarayonlarining rivojlanishiga xalaqit berayotgan asosiy sabablardan deb hisoblash mumkin.

Arab mintaqasining iqtisodiy va siyosiy rivojiga ta’sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi omillarni aniqlash, ularning jahon hamjamiyati siyosiy maydonida yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga ta’sirini tadqiq qilish, qo‘lga kiritilgan tahliliy natijalar va chiqarilgan xulosalardan boshqa mintaqalarning barqaror rivojlanishida, kuchlar muvozanatini ta’minlash maqsadida foydalanish ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur mintaqadagi xavfsizlikni ta’minlash, demokratik jarayonlarni rivojlantirish va ko‘zlangan siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, bu yo‘lda to‘sqinlik qilayotgan har qanday sabab va omillarni chuqur nazariy-siyosiy tahlil qilishni taqozo etadi. Ularning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi shart-sharoitlarini o‘rganish, eng avvalo, Shimoliy Afrika mintaqasida yuz berayotgan siyosiy jarayonlar rivoji va bugungi umumiy vaziyat bilan uzviy bog‘liqdir:

1. Mazkur mintaqada Yevropa Ittifoqi kabi siyosiy va iqtisodiy birlik, hamda barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydigan tuzilma – Shimoliy Afrika Ittifoqining (AMI) 1989 yilda rasman tuzilganligi jiddiy voqealardan biri bo‘lganligini qayd etib o‘tish o‘rinlidir.

2. Shimoliy Afrika mintaqasida ichki va tashqi xavfsizlikni ta’minlashda tashqi tahdidlardan ko‘ra ichki tahdidlarning kuchliligi saqlanib qolmoqda.

3. “Rangli inqilob”larning eng muxim jihati ko‘plab davlatlarning xavfsizligiga, siyosiy barqarorligiga tahdid solishdir. Ekspertlarning fikricha, “rangli inqilob”lar usuli iqtisodiy rivojlangan, lekin bir muncha beqaror, o‘zini eplay olmaydigan, biroq muhim geosiyosiy mavqeni egallaydigan, har qanday

tojobuzkor mamlakatni o'z tabiiy resurslari bilan jalb qila oladigan va o'z milliy mafaatlari butunlay amalga oshirishga qodir bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan qo'llaniladi.

3-BOB. MISRDA DEMOKRATIK JARAYONLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

3.1. Misrda demokratik tamoyillarni siyosiy jarayonlarga tadbiq etishning uslubiy jihatlari va muammolari

Har qanday jamiyatning siyosiy tizimi uning barqarorlik qobiliyatini ta'minlovchi muayyan siyosiy mexanizmlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Mazkur mexanizmlar yordamida ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar va harakatlarning maqsadlari muvofiqlashtiriladi. Siyosiy tizim siyosiy hokimiyat bilan aloqador bo'lgan elementlarini o'zida birlashtiradi. Siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash, jamiyat tizimidagi elementlarni birlashtirish va mavjud imkoniyatlarni amalga oshirishga safarbar qiluvchi mexanizmdir. Demak, jamiyatning siyosiy tizimi siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi vositalari bo'lgan davlat, davlat tashkilotlari va munosabatlarning yig'indisidir.

Yer yuzida mavjud bo'lgan 200 ga yaqin davlatning har biri o'ziga xos siyosiy tizimga ega.

Ma'lumki, Misrda davlat boshqaruv shakli respublikadir. 1953 yilning 18 iyunida Misrda monarxiya boshqaruv shakli tugatildi va Misr respublikasi deb e'lon qilindi¹.

Shuni unutmaslik joizki, ilm va ta'lim insonga hukmronlik huquqini beradi. Ta'lim barchaga barobar bo'lganligi sababli har bir yigit-qizga o'z ijtimoiy darajasini ko'tarish uchun real shart-sharoit yaratilgan. Bunga VIII asrda boshlangan "tarjimon harakati" yaqqol dalil. Shunisi e'tiborga loyiqki, arablar nafaqat yunon ellinistik, balki ilmiy-falsafiy adabiyot bilan ham qiziqqanliklari diqqatga sazovordir.

Bag'rikenglik, ko'p millatlilik, ko'p konfessiyalilik, asketizmdan voz kechish, mehnatga zarurat, mulkning rag'batlanishi, (birinchi navbatda sunniylar

¹ <http://shp.by.ru/spravka/encyclop/bes/6q/6a.shtm>

uchun) xudo va inson o'rtasida vositachi "cherkov"ning yo'qligi, shahar xarakteri va ilm bugungi kungacha saqlanib qolgan mumtoz musulmon- arab madaniyatining eng muhim belgilari hisoblanadi. Misr Arab Respublikasining siyosiy partiyalari bo'lgan Xalq Demokratik partiyasi, Milliy taraqqiyot (Tagammu), Sotsial mehnat partiyasi, Liberal sotsialistik partiyasi va Vafd partiyalari yuqorida zikr qilingan tamoyillarga amal qilib keladi.

Bugungi kunda dunyoda hukmronlik qilayotgan inson huquqlarining himoyasi, demokratiya, plyuralizm, ko'ppartiyaviylik, fuqarolar erkinligi va hokazolar jamiyat siyosiy sohasini tashkil qilmoqda. Jumladan, Misr Arab Respublikasi ham ushbu tamoyillar asosida o'z siyosatini, va qolaversa siyosiy hayotini ular bilan chambarchas bog'lamoqda.

Misr o'z tarixi davomida allaqachon partiyaviy hayotni boshidan kechirgan edi. Vatanchilar, yosh misrliklarning avvaldan bo'lganligi ushbu fikrimiz isbotidir. Zamonaviy shakldagi partiyalar I-jahon urushi (1919 yil)dan so'ng shakllana boshlandi. Tunisdan tashqari boshqa arab davlatlaridagi ushbu jarayon 30-yillarning o'rtalaridan boshlab namoyon bo'la boshladi.

1922 yili Misr Arab Respublikasi suverenitetga ega bo'lganidan so'ng siyosiy partiyalar faol ravishda parlament saylovlarida qatnashib, burjuaziyaning "Vafd" partiyasi bir necha marta hukumatni shaklantirishga intilgan. Biroq partiyalararo qarama-qarshiliklar va parlamentdagi o'rin uchun kurashlar kabi masalalar Misr jamiyatining asosiy figurasi bo'lgan qishloq dehqonining kundalik hayotiga qiziq bo'lmagan.

Shunga qaramay, A.X. Dessuki so'zlariga ko'ra 1923 yili qirol Konstitutsiyasi e'lon qilingandan so'ng va 1952 yilgi harbiy to'ntarish o'rtasidagi davrni Misr siyosiy tarixidagi ilk liberal era deb noto'g'ri xarakterlashadi. Ushbu davr Konstitutsiya tomonidan berilgan hukumat doirasida faoliyat olib borish huquqidan bosh tortgan yoki shubhasiz saylov natijalarini tan olgan despotik qirol tomonidan buzilgan. Sababi u juda osonlik bilan parlamentning ko'pchilik a'zolari tomonidan shakllangan (1924, 1928, 1930, 1937, 1942 va 1944 y) Vazirlar Mahkamalariga iste'fo berib, 1924, 1928, 1930, 1934, 1938 va 1948 yillarda ikki

marotaba tarqatgan. Shu bilan birga, 1930-1934 yillarda Konstitutsiyani amal qilishini to'xtatgan. Natijada Britaniya okkupasion hukumatlari partiyalar kurashi ular manfaatlariga xavf solmasligini kuzatib, bunday holatni darhol bartaraf qilishga uringanlar¹.

Shuni qayd etish lozimki, "liberal asr"ning saylov qonunlari parlament a'ziligiga kirish uchun nomzoddan katta miqdorda garov puli talab qilingan².

Inqilobdan avvalgi Misrda monarxiya qo'llab-quvvatlagan hamda parlament kurashlarida faol ishtirok etgan "saroy" partiyalarini hisobga olmaganda, 4 ta asosiy komponent bo'lgan. Ularning 2 ta eng kattasi:

Birinchisi - asosan dunyoviy qarashli, liberal-burjuaziya demokratiyasi tarafdorlari bo'lib, ularga 1919 yilda shakllangan "Vafd" partiyasi kiradi. Uning nomi "delegatsiya" ma'nosini anglatadi. Sababi uning tarixi Britaniya protektoratini bekor qilishni talab qilgan Parijning tinchlik konferensiyasida misrlik vakillarning paydo bo'lishi bilan boshlangan;

Ikkinchisi - islomiy yo'nalishdagi arboblardan bo'lib, mulkning kapitalistik shakliga qarshi bo'lmagan, biroq shariat qonunlarining amal qilishini yoqlagan, 1928 yili Xasan al-Banna tomonidan shakllantirgan "Musulmon birodarlar" uyushmasi bo'lgan.

O'zining faollari va tarafdorlari soniga nisbatan mashhur bo'lmagan 2 ta komponentga kelsak, ular quyidagilardan iborat:

- Yevropa fashizmi modellaridan ilhomlanadigan va o'z faoliyatini II-jahon urushi davrida boshlagan avtoritar partiya;
- noqonuniy marksistlar bo'lib, Shimoliy Afrika mamlakatlari va Falastin mintaqalarining uncha katta bo'lmagan, lekin ancha tartibli kompartiyalardan farqli o'laroq ko'plab mikroskopik doiralar, o'tkinchi partiya va guruhlar, shuningdek, diskussiya klublariga bo'lingan edi³.

¹ Қаранг: Dessouki A.E. Ideology and Legitimacy in Egypt: The search for a "Hybrid Formula" // Developmentalism and Beyond. Society and Politics in Egypt and Turkey /-Cairo: The AUC Press, 1994.

² Korany B. Restricted Democratization from Above: Egypt // Political Liberalization and Democratization in the Arab World – Vol. 2. –Comparative Experiences / Korany B., Brynen R., Noble., eds. – Boulder, London: Lynne Rienner Publishers, 1998. - P. 43.

³ Косач Г.Г. Красный флаг над Ближним Востоком? Компартии Египта, Палестины, Сирии и Ливана в 20-30-е годы. – М.: ИСАА при МГУ, 2001.

- Ma'lumki, 1952 yilgi harbiy to'ntarishdan so'ng barcha siyosiy partiyalar, jumladan ilgari eng ta'sirchan partiyalardan "Vafd" ham tarqatilib, yagona partiya tuzish yo'llari boshlandi. Avval o'tish davrining partiyasi – Ozod qilish tashkiloti paydo bo'ldi¹. Undan so'ng u Milliy ittifoqqa o'zgartirildi. O'z navbatida ushbu ittifoq "sotsialistik dekret" hisoblangan mahalliy mulkka tegishli bo'lgan korxonalarni milliyalashtirish qonunlariga uning aksariyat a'zolari dushmanlik munosabatida bo'lganligi uchun 1961 yilning noyabrida tugatilgan. Biroq milliy ittifoqning ba'zi ishtirokchilari ijtimoiy va siyosiy sabablarga ko'ra ushbu dekretni qabul qilmagan bo'lsa, boshqalari J.A.Nosir ushbu qarorni yakka o'zi qabul qilishi, uni sir tutib, o'z imzosi bilan tasdiqlashdan norozi bo'lib qabul qilmaganlar.
- Bir necha tajribalardan so'ng, jumladan muvaffaqiyatsiz tajribalardan biri bo'lgan 1958 yilning fevralidan 1961 yilning sentyabrigacha - Suriyani birlashtirish davrigacha Misrda 14 yil mobaynida bir partiyali tizim amal qilgan. Ushbu vazifani 1962 yilning 6 noyabridan prezident dekretiga asosan yagona hukmron siyosiy tashkilot – Arab sotsialistik ittifoqi bajargan. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatini belgilash hamda uning bajarilishini nazorat qilish ushbu tashkilot vazifalari qilib belgilangan.²
- Shu bilan birga, Arab sotsialistik ittifoqi asosiga xalq ishchi kuchlari alyansi g'oyasi kiritilgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ushbu ommaviy tashkilot ham partiya, ham inqilobni qo'llab-quvvatlovchi siyosiy kuchlarning bloki vazifasini bajargan. Uning asosiy siyosiy hujjati – 1962 yilda qabul qilingan "milliy harakatlar Xartiyasi" bo'lib, sotsialistik jamiyat qurish g'oyasini ilgari surgan.
- 1974 yildan Misr siyosiy tarixida Arab sotsialistik ittifoqini tashkiliy jihatdan qayta qurish jarayoni boshlandi. Shu yilning may oyida prezidentning harbiy g'alabasi sharafiga nomlangan "Oktabr hujjati" qabul qilindi. Uning mazmuni shundan iborat ediki, mamlakat hali ko'ppartiyaviy tizimga tayyor emas edi. Ammo Arab sotsialistik ittifoqini qayta isloh qilish zarur bo'lgan. Shu sababli

¹ Richards A, Waterbury. A political Economy of the Middle East. State, Class and Economic Development etc.: Westview Press, 1990. - P.305.

² Сейранян Б.Г. К вопросу о критериях классификации современных арабских стран // Арабские страны Западной Азии и Северной Африки (история, экономика и политика) / Под ред. Сейраняна Б.Г. и др. –Вып. 4. – М.: ИВРАН, 2000. - С. 36.

uning tarkibida turli fikrlarni taqdim qiluvchi tribunlar (manabir) tuzish g'oyasi shakllandi. Arab sotsialistik ittifoqi a'zolari faol ravishda ushbu g'oyani tatbiq qilishga intilgan bo'lsalar ham, hech kim uni amalga oshirishga jur'at qilmagan. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu harakat dasturi bilan birinchi bo'lib A.Saodatning kuyovi Maxmud Abu Vofiya chiqdi. U 1975 yilning 22 oktyabrida ijtimoiy-demokratik tribun tuzishni e'lon qildi.

- Shu bilan birga, hususiy sektorni qo'llab-quvvatlovchi va uning rolini oshiruvchi, o'ng va so'l og'machilikning sotsialistik muvaffaqiyatlarini himoyalovchi, matbuot erkinligini ta'minlovchi harakat dasturining bosh g'oyaviy asosi - "Xudoga ishonuvchi sotsializm" deb e'lon qildi.

- Undan so'ng boshqa harakat dasturini yaratish boshlanib, 1976 yilning 24 yanvariga kelib ularning soni 43 taga yetdi. Arab sotsialistik ittifoqining birinchi kotibi, Qohira universiteti iqtisodiy va siyosiy fanlar kafedrasida professori Rifaat al-Maxjub fikriga ko'ra, siyosiy platformalar tuzishning yagona sharti – "Xalq ishchi kuchi alyansi", ya'ni yagona falsafa, yagona mafkura tamoyiliga sodiqligi bilan belgilanadi. Shuningdek, uningcha, tribunlarni tuzishdan maqsad – oppozitsiya qarashlariga tashkiliy shakl berishni anglatadi.

- Misrlik siyosatshunoslar tadqiqotlariga ko'ra, platformalar amalda hech qanday aniq dasturga ega bo'lmay, alohida shaxslar o'rtasidagi raqobatni aks ettirgan. Ikkinchidan esa, ushbu urinishlar Arab sotsialistik ittifoqning tarkibida mafkuraviy va siyosiy qarama-qarshiliklar mavjudligini tasdiqlagan.

- Dastlabki tartibda Kamol Rifaat boshchiligida so'l nosirchilar, Xolid Moxi ad-Din boshchiligida marksistlar va Xilmi Murod boshchiligida o'nglar platformasi tuzildi. Shuningdek, bir necha diniy yo'nalishdagi platformalar tuzildi. Masalan, "Ozod musulmonlar", "Islom mehnati" shular jumlasidandir. 1976 yil yanvar oyining oxirida A.Saodat tomonidan platformalar tuzishni qayta ko'rib chiqish bo'yicha yangi qo'mita tuzildi. Ushbu qo'mita ichida o'tkazilgan ovoz berish natijasida quyidagilar aniqlandi:

- 70 ta ovoz – Arab sotsialistik ittifoqini saqlab qolish hamda ittifoq ichida doimiy platformalar tuzish;

- 33 ta ovoz - Arab sotsialistik ittifoqini saqlab qolish, faqatgina uni tarkibida vaqtincha shakllanadigan va konkret masalalarning muhokamasiga yo‘naltirilgan ma’lum yo‘nalish va tribunlar amal qilish sharti bilan;
- 7 ta ovoz - Arab sotsialistik ittifoqi faoliyatini to‘xtatish va munosib siyosiy platformalarni shakllantirish;
- 2 ta ovoz – siyosiy partiyalarga aylanish sharti bilan Arab sotsialistik ittifoqi ichi va tashqarisida platformalar faoliyatiga ruxsat berish.
- Yakuniy ovoz berishda 3 ta siyosiy platforma-tribun – o‘ng, markaziy va so‘llarni tuzish formulasi taqdim etilgan. Ular uchun umumiy talab sifatida 1952 yilgi iyul inqilobi talablariga amal qilish majburiyati yuklatilgan. Shunday qilib, 1976 yil mart oyining oxirida 3 ta platforma yaratilib, shu yilning noyabrida mustaqil siyosiy partiyalar, jumladan Liberal sotsialistik partiya, Misr Arab sotsialistik partiyasi va Milliy taraqqiyot partiyasiga aylantirildi. Arab sotsialistik ittifoqi kotibiyati ushbu partiyalar faoliyatini nazorat qiluvchi organ qilib belgilandi. Shu bilan birga, yangi shakllangan 3 ta partiyadan 2 tasining ishtirokchilar soni va qarashlarini hisobga olganda, ular J.A. Nosir davrida o‘ng markaziy va o‘ng siyosiy qanot maqomini egallagan. O‘z navbatida prezident birorta partiyaga a‘zo bo‘lmasdan, oliy siyosiy arbitr bo‘lishga ahd qilgan¹.
- Arab sotsialistik ittifoqining markaziy qo‘mitasiga mamlakatning siyosiy hayotini nazorat qiluvchi organ funksiyalari berildi. So‘ngra esa Arab sotsialistik ittifoqi markaziy qo‘mitasi prezidentning uchdan ikki saylanadigan va uchdan bir prezident tomonidan tayinlanadigan Maslahat Kengashiga o‘zgartirildi. Ushbu Kengashga ham shunday vakolatlar berilgan. Arab sotsialistik ittifoqining bosh kotibiyati esa bevosita yangi partiyalar faoliyatini nazorat qiluvchi organga aylantirildi.
- 1977 yili Milliy Majlis partiyalar faoliyatini nazorat qiluvchi 40 –raqamli Qonunni qabul qildi. Unga asosan partiyalar endi demokratik sotsializm, milliy birlik va ijtimoiy tinchlikka rioya qilish, ishchi va dehqonlar muvaffaqiyatini himoyalovchi tamoyillar asosida mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy

¹ Беляев И.П., Примаков Е.М. Египет: время президента Насера. - М., 1981. – С. 67.

rivojlanishida ishtirok etishi lozim bo'lgan. Shuningdek, partiyalarga harbiy yoki yarim harbiy tuzilishga ega bo'lish ta'qiqlangan, va, hatto, a'zolarining sinfiy mansubligi, irqiy yoki diniy xususiyatlari asosida shakllanishiga ruxsat berilmagan.

- Rasmiy jihatdan №40 Qonun Konstitutsiya va Arab sotsialistik ittifoqidan tashqarida siyosiy tashkilotlarni ta'sis qilishni ta'qiqlovchi 1972 yilgi "milliy birlik to'g'risida"gi Qonunga zid bo'lgan. Shu sababli qonun matniga 1979-1981 yillarda ba'zi o'zgartirishlar kiritildi. Ularga ko'ra g'oyaviy ko'rsatmalar, dasturlar va partiyalar faoliyati quyidagilar bilan, jumladan:

- a) asosiy qonunchilik manbasi deb hisoblanadigan islom shariatini;
- b) 1952 yilgi 23 iyul va 1971 yilgi 15 may inqilobini;
- v) milliy birlik, ijtimoiy tinchlik va demokratik sotsializm tartibini buzmasligi kerak.

Qonunning qoidalari orasida shunday shart borki, unga ko'ra partiya xorij siyosiy tashkilotining qandaydir filiali bo'la olmaydi. Boshqa punktda esa yangi partiyaning tuzilishi 1953 yilgi №37 Qonunga asosan tarqatilgan partiyalarning biri bo'lib qayta tuzilishga yo'l qo'yilmagan. Shuningdek, kimdir qonuniy bo'lmagan siyosiy tuzilmani, hatto u "uyushma" yoki "guruh" nomidan foydalanuvchi "diniy tashkilot" niqobi ostida bo'lsa ham qamoq jazosiga mahkum qilinadi. 1977 yilgi №40 Qonunni qabul qilish paytida Misrda 3 ta partiya mavjud bo'lgan¹.

Misrda 1978 yildan boshlab ko'ppartiyaviylikka o'tish tartibi amal qilgan.

Xalq demokratik partiyasi – sobiq Arab sotsialistik ittifoqining "markaziy" platformasi bo'lgan Arab sotsialistik partiyasi asosida tashkil qilingan. Uni tuzish haqidagi qaror 1978 yilning iyulida mamlakat prezidenti A.Saodat tomonidan e'lon qilinib, shu yilning sentyabrida ta'sis etuvchi, 1980 yilning aprelida birinchi qurultoyi bo'lib o'tgan. A.Saodat o'limidan so'ng partiyaning favqulotdagi qurultoyi 1982 yilning yanvarida partiya raisi etib Misrning yangi prezidenti

¹ М.Ф.Видясова, М.Ш.Умеров Египет в последней трети XX века: опыт либерализации экономики и политической системы. - М., 2002. – С. 87.

H.Muborakni saylaydi. U 1983 yilning fevralida XDP g'oyaviy yo'nalishlari haqidagi dasturiy hujjatni ma'qullaydi.

“1952 yilgi iyul inqilobi” muvaffaqiyatlarini tasdiqlab, partiya adolat va ijtimoiy tinchlikka asoslangan jamiyat qurish yo'li bilan misrlikka farovonlikni ta'minlashni o'zining asosiy maqsadi deb e'lon qildi. Ushbu masalaning yechimi sifatida din, arab millatchiligi va demokratik sotsializm belgilandi. Kuchli partiyaviy tuzilmaning tuzilishi rasmiy ko'ppartiyaviylik tizimiga qaramasdan mamlakat siyosiy hayotini nazorat qilishga imkoniyat yaratdi.

Milliy taraqqiyot partiyasi – 1976 yil Arab sotsialistik ittifoqi “so'l” platformasining asosida tashkil topgan. Ushbu partiyaga 1952 yilgi to'ntarishning sobiq yetakchilaridan biri Xolid Moxi ad-Din raislik qildi. Partiyaning maqsadlari – milliy demokratik inqilob masalalarini bajarish va J.A.Nosir tomonidan boshlangan islohotlarni amalga oshirishdan iborat. Partiya tarkibida ham J.A.Nosir tarafdorlari, ham kommunistlar mavjudligi qator dasturiy qoidalar uchun murosa yo'llarini belgilagan. Shu sababli, MTP sinfiy qarama-qarshiliklar mavjudiligini tan olsa-da, sinfiy kurashni tinchlik yo'li bilan olib borish zarurligini qayd etadi. Ijtimoiy tinchlikni saqlab qolishni ma'qullab, partiya bir vaqtning o'zida xalq ommasining ehtiyojlarini qondirish, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarining demokratik yechimlariga ishtirokini ta'minlash kabilar partiyaning asosiy maqsadi qilib belgilandi.

Tashqi siyosatda partiya milliy mavqeni qo'llab, prezident A.Saodatning AQSh bilan hamda Isroil bilan tinchlik bitimini keskin tanqid qilgan.

Liberal sotsialistik partiya – 1976 yil Arab sotsialistik ittifoqining “o'ng” platformasi asosida shakllangan. Unga 1952 yili to'ntarish ishtirokchisi, iqtisodiyotchi va tadbirkor Mustafo Komil Murod raislik qilgan. Liberallar dasturi – tadbirkorlikning erkinligi, davlat nazoratining keskin qisqartirilishi, chet el investisiyalarini jalb qilish, sinfiy kurashni qat'iyman man qilish, G'arb mamlakatlari bilan aloqalarni mustahkamlashdan iborat¹.

¹ Шахмудбеков Ш. Борьба народа Египта за независимость (1918-1970). – Т., 1992. – С. 56.

“Yangi Vafd” partiyasi – 1952 yili yetakchi rol o‘ynagan va to‘ntarishdan so‘ng man qilingan “Vafd” partiyasi an‘analarini davom ettirgan partiyadir. 1977 yilning avgustida partiyani qayta tuzish e‘lon qilinib, 1978 yilning fevralida rasman qayd qilingan. Vafd harakatining veterani Fuad Siroj ad-Din uni raisi bo‘lgan. Partiya dasturiga asosan “Yangi Vafd” respublika tuzishni tan olib, demokratik sotsializmni axloqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizim sifatida ma‘qullaydi. Sinfiy qarama-qarshiliklar o‘rniga vafdchilar insonparvarlikni, davlat va xususiy sektor milliy iqtisodiyot doirasida bo‘lishini ta‘kidlaydi. Ular fikriga ko‘ra, davlat sektori ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida yetakchi rol o‘ynashi zarur. Shunga qaramay davlat hususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Partiya demokratik erkinlikni kafotlatlash, prezident tizimini parlament tizimiga o‘zgartirish, sud va prokuratura mustaqilligini ta‘minlash maqsadida Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritdi.

“Vafd”ning qayta tuzilishi Misr partiyaviy-siyosiy tizimida muhim o‘zgarishlarga olib keldi. Natijada unga ko‘pgina oppozision kuchlar qo‘shildi. Vafdchilar faolligining sabablaridan biri milliy birlik va ijtimoiy tinchlik haqidagi 1978 yilgi Qonunni qabul qilish bo‘lib, uning asosida hukumat respublika davrigacha bo‘lgan qator yetakchilar, jumladan “Yangi Vafd”ning ba‘zi arboblari jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishini ta‘qiqladi. Natijada partiya o‘z faoliyatini to‘xtatishni e‘lon qildi va 1981 yilda uning boshliqlari repressiya qilindi. “Yangi Vafd” 1984 yili prezident H.Muborak davrida qonuniylashtirildi. Partiya tuzumni liberalizatsiya qilishni, davlat sektorini cheklash va chet el investisiyalarini kengaytirishni talab qildi¹.

Sotsialistik mehnat partiyasi – 1978 yilning oktyabrida qonuniylashtirilib, 1933 yilda mavjud bo‘lgan va 1952 yilda ta‘qiqlangan “Misr al-Fattat” (Yosh Misr) partiyasi an‘analarini davom ettirgan. Sotsialistik mehnat partiyasining dasturi “Milliy sotsializm”, panarabizm va panislomizmga asoslangan. Tashqi siyosatda milliy mavqega ega bo‘lib, A.Saodat siyosatini tanqid qilgan².

¹ Ўша жойда. - Б. 3-21.

² Шахмудбеков Ш. Борьба народа Египта за независимость (1918-1970). – Т., 1992. - Б. 67-77.

“Al-Umma” partiyasi – 1983 yilning iyulida ilohiyotchi Axmad as-Sabaxi Avadalla tomonidan tuzilib, shariat asosidagi “Misr islom arab respublikasi” va “konsultativ demokratik sotsialistik tuzum”ni ilgari surgan. Partiya dasturi milliy va islomiy-ilohiy konsepsiyalarga asoslanadi.

“Musulmon birodarlar” uyushmasi – boshqa arab davlatlarida bo‘limlarga ega bo‘lgan Misrning eng katta musulmon diniy-siyosiy tashkiloti hisoblanadi. 1928 yili o‘qituvchi Xasan al-Banna tomonidan tuzilgan. Uyushma davlatning islom dinidan ajralmasligini e‘lon qilib, teokratik tuzum va islom dinining asosi bo‘lgan xalifalikni o‘z maqsadi qilib oldi. Ilk qadam sifatida “Musulmon birodarlar” Misr qonunchiligini Qur’oni Karim va shariat me‘yorlariga muvofiq bo‘lishini talab qilgan. Sadaqa vositasida qambag‘allar foydasiga daromadni taqsimlovchi “islom iqtisodiyoti”ni ma’qullaganlar.

1952 yildan so‘ng uyushma ta’qiqlanib, J.A. Nosir tuzumiga qarshi fitnalar uyushtirishni boshlagan. Natijada uning minglab a’zolari qamoqqa olinib, ba’zilari o‘lim jazosiga mahkum qilinganlar. Omar Telmisani boshchiligidagi uyushma rahbariyati A.Saodatni qo‘llab-quvvatlab, Isroil bilan tinchlik bitimini imzolagani uchun unga keskin ravishda qarshi chiqqan. 1981 yili musulmonlar va qibtiylar o‘rtasidagi shiddatli to‘qnashuvlardan so‘ng hukumat yuzlab “Musulmon birodarlar”ni, jumladan Telmisanini qamoqqa olib, uyushma nashrlarini to‘xtatib qo‘ygan. Hukumat rahbarligiga H.Muborak kelganidan so‘ng uyushma yana faollashib, qat’iy ravishda qonuniylashtirishni talab qilgan¹.

Bugungi kunda Misr jamiyatining barcha sohalari, jumladan siyosiy-partiyaviy sohaga ham bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Misrda ilk parlament instituti tarixan 1866 yilda tashkil etilgan. O‘zining 135 yillik tarix davrida 32 marataba qayta saylangan. Dastlab deputatlar soni 75tani tashkil etgan bo‘lsa, hozirda 458tagacha soni ortgan.

1805 yilda Usmoniylar imperiyasining Misrdagi voliyi Muhammad Ali va Al-Azhar ulomolari mamlakatda yangi norozilik jarayonini boshlashadi. Buning natijasida Muhammad Ali ma’muriy boshqaruvda yangi institutlarni joriy etishga

¹ Шахмудбеков Ш. Борьба народа Египта за независимость (1918-1970). – Т., 1992. – Б. 70-77.

intiladi. 1824 yilda Yuqori Kengash ta'sis etiladi. U vakillik kengashi bo'lib, aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi. Dastlab ular soni 24 bo'lib, keyinchalik 48 taga oshiriladi. 1825 yil yanvar oyida uning huquqiy maqomi belgilab beriladi. O'rnatilgan maqomga ko'ra Yuqori kengash vazifasi ichki siyosatda Muhammad Ali tomonidan joriy etilayotgan olib borilayotgan masalalarni muhokama qilish iboratt bo'ladi¹.

1829 yili Yuqori kengash o'z vazifalari Maslahat kengashi tashkil etish orqali unga topshiradi. Maslahat kengashi davlatning yuqori manchabdorlari, ulomalardan tashkil topadi. Kengash boshqa mamlakatlardagi parlament singari 156 a'zodan iborat bo'lib, 33 tasi yuqori mansabdor shaxslar va ulomalardan, 24 tasi ma'muriy birlik vakillaridan va 99 tasi aholi tomonidan saylangan Misr dignitariesdan iborat bo'lgan. Kengash o'z sessiyalarini ta'lim, ma'muriy va jamoat ishlari bo'yicha qanday tavsiyalari berishni hal etishgan. 1837 yil Muhammad Ali Davlat asosiy qonunini qabul qiladi. Asosiy qonunga binoan Maslahat kengashi Maxsus qonunchlik kengashi va Umumiy qonunchilik kengashiga ajratiladi. Shu bilan birga 7 vazirlik portfeliga ega Vazirlar kengashi tashkil etiladi².

Britaniya tomonidan 19 asr o'rtalarida Misrning bosib olinishi 1883 yilda yangi Asosiy qonunning qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Mazkur Qonun Misr parlamentini ikki palatali shakllantirilishini belgilab berdi: Qonunchilik bo'yicha Maslahat kengashi va Bosh Assambleya.

Qonunchilik bo'yicha Maslahat kengashi 30 a'zodan iborat bo'lib, 6 yillik muddatga saylanadi. Deputatlardan 14 tasi, jumladan, Spiker va uning ikki o'rinbosari tayinlanadi va 16 nafari saylanadi. Bosh Assambleya 83 a'zodan iborat bo'lib, 46 nafari saylanadi va qolganlari hukumatning sobiq amaldorlaridan tashkil topishi belgilab berildi.

1923 yil Misr rasmiy ravishda o'z mustaqilligini e'lon qildi, milliy konstitutsiyasini qabul qildi. Siyosiy voqelikda bu davrda mamlakatda

¹ The Egyptian Parliament. / Konrad Adenauer Stiftung, Research Paper. –Berlin, 2008. –P23-25. // http://www.kas.de/wf/doc/kas_456-54-2-30.pdf

² The Egyptian Parliament. / Konrad Adenauer Stiftung, Research Paper. –Berlin, 2008. –P23-25. // http://www.kas.de/wf/doc/kas_456-54-2-30.pdf

Angliyaning nazorati oʻrnatilgan edi. 1923 yilda mamlakat Konstitutsiya qabul qilinib, unda qirollik boshqaruvi koʻppartiyaviy va liberal demokratik tamoyillarga asoslanishi bayon etilgan. Ilk partiyalar yashirin jamiyatlardan iborat boʻlib, keyinchalik siyosiy partiya sifatida oʻzlarini namayon eta boshladilar. Konstitutsiya koʻra Misr parlamenti ikki palatali: Senat va Vakillar palatasi sifatida tashkil etildi. Vakillar (qonunchilik palatasi)dagi barcha deputatlar besh yil muddatga saylanishi va Senat aʼzolarining 3/5 qismi saylanishi qolganlari tayinlanishi belgilab berildi.

Vakillar palatasiga 1952 yilgi davlat toʻntarishiga qadar 4 marotaba saylovlar boʻlib oʻtgan va unda deputatlar soni oshirilib borilgan. Tashqi kuchlarning mamlakat ichkarisiga keskin aralashuvi, qirol atrofidagi konservativ kuchlar mavjudligbuning asosiy sababi edi. 1923-1952 yillarda 40 marotaba hukumatning oʻzgartirilishi buning isboti sanaladi¹.

1951 yil Misr parlamenti 1936 yil Buyuk Britaniya bilan imzolangan ingliz-misr shartnomasidan bir tomonlama chiqdi. 1952 yil “Ozod ofiserlar” harbiy vatanparvar tashkiloti Jamol Abdul Nosir boshchiligida davlat toʻntarishini amalga oshirib, monarxiya oʻrniga respublika tizimini joriy etishdi.

1961 yil oʻrtalarida Misrda inqilobning ikkinchi davr iboshlandi. Unda 1964 yil Muvaqqat konstitutsiya qabul qilindi va mamlakat “sotsialistik demokratik davlat” deb eʼlon qilindi. 1971 yilga kelib mamlakatda yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Unda mamlakat oliy organi sifati Xalq kengashi belgilanib, davlat rahbari sifatida Prezident huquqiy maqomi mustahkamlandi. Garchi konstitutsiya mamlakat sotsialistik tamoyillarga asoslanishi qayd etilgan boʻlsada, 1970 yil oʻrtalaridan kapitalistik yoʻnalishda rivojlana boshlandi. Bugungi kunda Misr parlamenti ikki palatadan iborat boʻlib, katta vakolatlar ega. 1971 yilgi konstitutsiyaga binoan parlament Hukumatni nazorat qilish, respublika prezidentini istefoga chiqarish vakolatiga ega².

¹ Sawi A. Parliamentary Reform. – Cairo: Cairo University Press, 2003. –P.47-48.

² Qarang: Misrning 1971 yilgi konstitutsiyasining ikkinchi bob, 86-136 moddalarida parlamentning huquqiy maqomi belgilab berilgan. // The Constitution Of The Arab Republic Of Egypt, 1971 (as Amended to 2007) // http://www.cabinet.gov.eg/AboutEgypt/ConstitutionalDeclaration_e.pdf

Mirs konstitutsiyasiga ko‘ra, parlament ikki palatadan iborat etib belgilangan. Quyi palata – Xalq assambleyasi (Medjlis Ash-Shaab) 518ta deputatdan iborat bo‘lib, 508tasi mojaritar tizimi asosida saylanadi qolgan 10tasi prezident tomonidan tayinlanadi. Quyi palata besh yil muddatga saylanadi, 1990-2011 yillardan Fatxi Surur quyi palata spikeri vazifasini bajargan. “Arab bahori”dan oldin so‘nggi saylov 2010 yil 5 dekabrda amalga oshirilgan bo‘lib, parlamentda Xusni Muborak rahbarligidagi Milliy demokratik partiya 80%ga yaqin o‘rinlarni qo‘lga kiritgandi¹. “Musulmon birodarlari” faollarining saylovda ishtirok etishi taqiqlangan edi. Yangi Vafd partiyasi saylovda ishtirok etishdan bosh tortdi. Prezident X.Muborak hokimiyatdan ketganidan so‘ng qayta demokratik saylovlar o‘tkazilishi 2012 yil may oyiga qoldirildi.

Yuqori palata - Sho‘rolar majlisi (Medjlis Ash-Shura) 264 ta a‘zodan iborat bo‘lib, ular 6 yil muddatga saylanadi. Misrda parlament har to‘qqiz oyda chaqirtiriladi va favquloddagi holatlarda prezident navbatdan tashqari parlamentni chaqirishi mumkin.

Aytish mumkinki, Misrda 2011 yil boshlagan xalq noroziligi va Xusni Muborak hukmronligining barham topishi mamlakatda o‘tish davri hukumatini shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda mamlakat konstitutsiyasini qayta qabul qilish yoki unga tuzatishlar kiritish asosiy masalaga aylandi. 1971 yilgi konstitutsiyada prezidentlik maqomi kuchli e‘tibor qaratilgan, va hokimiyat boshqa institutlari vakolatlari bilan muvozanat mavjud emasligi kuzatish mumkin².

2011 yil 19 mart kuni Misrda konstitutsiyaga tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha referendum o‘tkazildi. Unda quyidagi masalalar aks etganligini kuzatish mumkin³:

- Misr prezidenti vakolati ikki marta ketma-ket to‘rt yilga saylanish mumkinligi bilan cheklash;

¹ Qarang: Misming 1971 yilgi konstitutsiyasining ikkinchi bob, 86-136 moddalarida parlamentning huquqiy maqomi belgilab berilgan. // The Constitution Of The Arab Republic Of Egypt, 1971 (as Amended to 2007) // http://www.cabinet.gov.eg/AboutEgypt/ConstitutionalDeclaration_e.pdf

² Habibi M., Jafari P., Jones-Nerzic R., Keys D., Smith D. History of Europe and the Middle East. –Oxford, 2010. – P.126-128.

³ Референдум по внесению поправок в конституцию пройдет в Египте // РИА Новости http://local.mb.rian.ru/cgi-bin/iframe/shesternik_inside_240x400_2.shesternik_inside_240x400_2?13357&options=T&n=1 - (19.03.2011).

- Prezident faqatgina Misr fuqarosi bo'lishi lozimligi;
- Prezident xorijlik ayol bilan oila qurmagan bo'lishi kerakligi;
- Prezident saylanganligidan e'tiboran 60 kun ichida Vise-prezidentni tayinlash zarurligi;
- Prezidentlikka nomzodlarning qayd etish talablarini qisqartirish – mazkur jarayonda talabgor 15 gubernatorlikdan 30 ming fuqaro yoki parlamentdan 30 deputat imzosini yo'g'ish talab etiladi. Parlamentga partiyalar tomonidan taqdim etilayotgan nomzodlarning avtomatik tarzda qayd etilishiga ruxsat berish.
- Saylov jarayonlariga sudlar nazorati joriy etildi;
- Favqulodda holatlarda qo'llaniladigan chora-tadbirlarga o'zgartirishlar kiritish;

Bundan tashqari Misr konstitutsiyasining 79 moddasiga binoan terrorizm tahdidiga qarshi kurash borasidagi maxsus vakolat bekor qilindi. Referendumda ovoz beruvchilarning 77%i o'zgarishlarni yoqlab chiqdi, 22.7%i bunga qarshi chiqdi. Hozirda Misrda parlament faoliyati mustahkamlash choralari ko'rilmoqda.

Xulosa qilganda siyosiy partiyalar o'z oldilariga qo'ygan vazifalarni amalga oshirishda, demokratik jarayonlarning rivojlanishiga, mustaqillik tafakkurini shakllantirishda misrliklar bilan bog'lanishi, bir-biridan ajralib qolmasligi muhim. Misrda globallashtirish sharoitida sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar umummilliy ehtiyojdan kelib chiqqan holda partiyalar o'z faoliyatlarini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda amaliy takliflar bilan chiqib, turli ijtimoiy guruhlarining demokratik jarayonlarda ishtirokini ta'minlab, o'z vakolatlari darajasida misrliklarni o'z orqalaridan ergashtirishlari lozim.

3.2. Misr davlat boshqaruv tizimining shakllanishining amaliy masalalari

1952-yil "Iyul inqilob"idan so'ng Misr ijtimoiy-siyosiy hayotida demokratik qadriyatlar va prinsplar asta-sekin qaror topa boshladi. Misrda mana shu davrdan boshlab davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar

olib borildi. Bu islohotlarning zamirida demokratik prinsplarga asoslangan, inson huquqlari va erkinliklari to'laqonli ta'minlangan, xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lgan, iqtisodiy rivojlangan va har tomonlama kuchli davlat qurish yotadi. O'tgan yarim asrdan ko'proq bu davrdagi Misr tarixi bir tekisda kechmadi va murakkab bir sharoitni boshdan kechirdi. Murakkab bu vaziyatlarga qaramay Misr o'z oldiga qo'ygan vazifalarni uddalay oldi. Misr xalqi prezidenti misolida markazlashgan kuchli davlat qura oldi.

Misrning arab davlatlari o'rtasidagi siyosatini shakllantirish, mintaqadagi xalqaro munosabatlarda uning o'rni va rolini aniqlash va mustahkamlashga bir qator iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va diniy omillar ta'sir qiladi¹. Davlatning ichki tuzilmalarida qat'iy va mustahkam siyosat olib borish ko'p hollarda xalqaro maydonda va mintaqada davlatning o'rni va mavqeidan, yuritilayotgan kuchli tashqi siyosatdan kelib chiqadi. Misrning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatgichlari hukumat oldida yetarlicha muammolar borlig'ini ko'rsatadi. Ishsizlik va kambag'allikning yuqori darajadali sababli Misr inson rivojlanish indeksi bo'yicha dunyoda 120-o'rinda turadi. Ishsizlik rasmiy ma'lumotlar bo'yicha 8-10% ni tashkil qiladi. Misr aholisining qariyb yarmi – 35 mln misrlik kambag'al hayot kechiradi. Shundan 6 mlni og'ir ahvolda. Shuning uchun ham iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va boshqa shu kabi masalalar yuzasidan chet el investitsiyalari jalb qilinadi. Bu esa siyosiy jihatdan rivojlangan davlatlar ta'sir doirasiga tushib qolishiga olib keladi. Iqtisodiyotni zamonaviylashtirish, yangi ish joylarini yaratish, aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan Misr hukumatining say-harakatlari yuqori darajadagi demografik o'sish bilan to'qnash keladi. 1996 yil Misr aholisi 60.2 mln tashkil qilgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatgich 74 mmlnga yetdi. Kuniga 4 ming chaqaloq dunyoga keladi. Bunday o'sish saqlanadigan bo'lsa 2030 yilga kelib Misr aholisi ikki barobarga ko'payishi mumkin.

¹ Ёвкочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – С.32.

Eng rivojlangan sohalardan biri bu turizm hisoblanadi. Yiliga YIMning 10% miqdorida daromad keltiradi. 1996-yildan boshlab Misrga sayyohlar oqimi qariyb ikki barobarga ko'payib, 2004-yilda 8mlnga yetdi va davlat g'aznasiga 6 mlrd dollarni olib keldi. Misr neft eksport qiluvchi davlat bo'lib, Arab davlatlari neft eksport qilish tashkiloti (OAPEK) azosi hisoblanadi. Neft eksporti yillik jami eksportning 40% ni tashkil qiladi. Neft qazib olish esa yalpi ichki maxsulotning 10/1 qismini tashkil qiladi. Neftga bo'lgan ichki talabning ortishi va Qizil dengizning Suvash qo'ltig'idagi konlarning tugashi yaqin yillar ichida Misrni neftni import qiluvchi davlatga aylantirishi mumkin. Misr hukumati bunga qarshi yangi neft konlari topishni va ichki talabni gaz muqobilida almashtirishni yo'lga qo'ymoqda. Bugungi kunda Misrning neft zaxirasi 3.5 mlrd barelni tashkil qiladi¹.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash Misr siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki chet el investitsiyalari tinch va barqaror mintaqalardagina joriy qilinadi. Misr o'zining mintaqadagi va jahondagi obro' e'tibori va ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida aksariyat mintaqaviy loyihalarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi.² Integratsion loyihalar, Arab-Isroil muammolarini hal qilish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va umuman Yaqin Sharqdagi nizoli hollarni hal qilish shular jumlasidandir. Aynan mana shu omillar Misr prezidentini davlat rahbari va yetakchi sifatidagi obro'yini ko'tarib yuboradi. Bundan tashqari o'zaro foydali asoslarda chet el investitsiyalarini jalb qilinishiga olib keladi. Misrning xalqaro maydondagi yana bir maqsadi BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosiga bo'lishdir. Bu haqda Milliy Majlisning tashqi ishlar qo'mitasi 1996 yil mayda qilgan maruzasida aytilgan edi. Unga ko'ra Misr BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy azosi bo'lishi uchun xalqaro maydondagi barcha davlatlar bilan yaqin va do'stona aloqalar o'rnatish va mintaqada Misrning yetakchi sifatida ta'sir doirasini kengaytirish lozimligi aytib o'tildi. Bu mintaqada davlatlari va Misr bilan do'stona aloqada bo'lgan barcha davlatlar manfaatlariga mos kelar edi. Rasmiy Qohira BMTni

¹ <http://www.oilpress.ru/index.html/>

² Ал-Бухари М., Гафуров С. Арабская Республика Египет. Учебное пособие. (под ред. акад. Н.Ибрагимова). – Т.: ТашГИВ, 2002. – С.87.

isloh qilish dasturi bo'yicha Afrikaga ajratiladigan Xavfsizlik Kengashidagi ikki o'rindan biriga mos kelishini bir qator omillar bilan izohlaydi. Buni isbotlash uchun ko'pgina dalillarni keltirib o'tadi. Misr tashqi ishlar vaziri Axmed al- Hait shunday deydi: "Misr butun Afrika bo'yicha eng katta iqtisodiyotga va xalqaro hamjamiyat bilan keng aloqalar o'rnatishga imkon beruvchi eng ko'p diplomatik missiyaga ega". Bundan tashqari Misr ko'plab xalqaro tinchlikparvar operatsiyalarda qatnashayotgan ko'psonli armiyaga ega. Shunday ekan arab, islom va O'rtayer dengizi nomidan Xavfsizlik Kengashida qatnashishi mumkin bo'lgan Afrika a'zosi bo'la oladi. Misr buning uchun kerakli yordamni arab davlatlaridan oladi¹.

Misrning kelgusidagi taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlovchi omillar qatoriga geografik joylashuvini keltirishimiz mumkin. Misr Arab Sharqining ikki qismini – Mag'rib va Mashriqni bir-biri bilan bog'labgina qolmay, turli madaniyatlar tutashgan markazda joylashgan. Bu Misrning bir paytning o'zida bir necha mintaqaning xalqaro munosabatlarida faol ishtirokchi bo'lish imkonini beradi. Chunki u Arab, Afrika, Osiyo va O'rta Yer dengizi mintaqalari tutashgan joyda joylashgan. XX-XXI asr davomida mana shu mintaqalar bilan faol hamkorlik munosabatlarini o'rnatib, integratsion tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Suvaysh ustidan Misrning to'laqonli mustaqilligi uning xalqaro maydondagi strategik ahamiyatini oshirib yuboradi. Bu kanal orqali dunyo bo'yicha 10% tashuvlar amalga oshiriladi. Suvaysh kanalidan Misrga 2002-yil 1.9 mlrd dollar daromad kelgan bo'lsa, 2004-yil bu ko'rsatgich 3 mlrdga yetdi.

Misr iqtisodiyoti uchun qimmatga tushayotgan yana bir holat bu Arab-Isroil mojarosining davom etayotganidir. Chunki bu juda katta harbiy xarajatni talab qiladi. XXI asrda Misr o'zining ko'p sonli aholisi bilan mintaqada yetakchilik uchun davogarlardan biri bo'ldi. Misr tashqi siyosati ko'p qirraliligi va faolligi bilan, zamonaviy xalqaro munosabatlarning dolzarb masalalarini qamrab olganligi bilan munosib o'rin egallaydi. Ko'p sonli armiya nafaqat o'z suverenitetini balki,

¹ Миср Араб Республикасида: давлат ва диний институтлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қуриш академияси. –Т., 2007. – Б.32.

mintaqa xavfsizligining garovi hamdir. Misr o'z qo'shnilari bilan iliq va do'stona munosabatlar o'rnatib, mintaqaning ommaviy qirg'in qurollaridan holi bo'lishiga harakat qiladi¹.

Misrda prezidentlik institutining istiqboli haqida gapirar ekanmiz, davlatda hukumatni shakllantiruvchi asosiy kuch - siyosiy partiyalarga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim. Misrda siyosiy partiyalarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin: birinchisi bu xalq ichidan chiqqan va xalqning haqiqiy xohish irodasini o'zida aks ettirgan partiyalardir. Bu partiyalar o'z faoliyatida biroz keskinlikni ifoda etib, ko'proq diniy xarakterga ega bo'lib, aksariyat hollarda faoliyati taqiqlab qo'yiladi (Musulmon Birodarlar). Ikkinchisi esa hokimiyatda hukmron g'oya, qarashlar ta'sirida, ya'ni ayni paytdagi siyosiy ehtiyojdan kelib chiqib shakllanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak hukmron doiralar tomonidan shakllantiriladi. Misol sifatida prezident Abdul Nosir hokimiyatga kelishi bilan davlat siyosati sotsialistik yo'l tomon o'zgarishi munosabati bilan Misr Sotsialistik Partiyasi yetakchilikni qo'lga oladi. Anvar Sadat hokimiyatga kelishi bilan davlat siyosati kapitalistik yo'nalish tomon yuz buradi. Endi Milliy Demokratik Partiya yetakchilikni qo'lga oladi. Umuman Misrning yaqin o'tmishdagi tarixiga sinchiklab nazar tashlaydigan bo'lsak, davlat hayotidagi siyosiy munosabatlar ko'proq davlat rahbarining irodasiga bog'liq holda rivojlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki Misrda davlat rahbari bo'lgan prezident qo'l ostida kuchli markazlashgan hokimiyat shakllangan. Bu esa Misr siyosatining qat'iy yo'nalishda, ustuvor maqsadlardan og'ishmay borishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa so'nggi yillarda Misr davlat va jamiyat hayotiga demokratik tamoyillar va qadriyatlarni jadal suratlarda tadbqiq qilmoqda. Arab dunyosida, ayniqsa mintaqada alohida ta'sirga ega bo'lgan Misrdagi demokratlashtirish jarayoni zamonaviy jahon siyosatida alohida ahamiyatga ega. Butun dunyodagi, ayniqsa mintaqadagi kelgusidagi taraqqiyot aynan mana shu jarayonga bog'liq. 2005-yil 7-sentabrda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlari bizning nazarimizda davlatning zamonaviy

¹ Мунавваров З.И Страны Аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях 20 века: автореф. дисс. ... док. полит. наук. – Т., 1997. –С.34.

ijtimoiy-siyosiy hayotida ikki xil tendensiyada namoyon bo'ldi. Birinchisi, hokimiyatning demokratik yo'ldan borayotganini yoki dunyo hamjamiyati nigohida Misrning demokratik imidjini yaratish uchungina harakat qilinayotganini aks ettirsa, ikkinchidan jamiyatda islomiy harakat kuchayayotgani bilan xarakterlanadi.

Prezident saylovi natijasida Xusniy Muborak 88.5% ovoz bilan beshinchi marta qayta saylandi. Aytib o'tish lozimki, bu prezidentlik saylovida ilk bor mamalakat tarixida prezidentlik uchun ko'p (o'nta) nomzod ko'rsatildi. Xusniy Muborakning asosiy raqiblari Ayman Nur 7.6%, Noaman Jamaa 2.9% ovoz oldi. Bu nomzodlar amaldagi prezident X.Muborak uchun munosib qarshilik ko'rsata olmasada, g'alaba uchun teng huquqli kurash olib borishining o'zi Misrda demokratik yo'lda yana bir muhim qadam bo'ldi. 2005-yil boshida X.Muborak tashabbusi bilan konstitutsiyaning 76-moddasiga o'zgartirish kiritildi.¹ Bunga muvofiq endi prezidentlikga nomzodlar to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladigan bo'ldi. Ilgari nomzod parlament 3/2 qismi ovozi bilan tasdiqlanib, referendumga qo'yilar edi. Bu tartib qonuniy faoliyat yuritayotgan barcha siyosiy kuchlarning saylovda qatnashishi va mamlakat taqdirini belgilash imkonini yaratdi. Shunday bo'lishiga qaramay bu hali haqiqatdan yiroq, chunki amalda hokimiyat yagona – Milliy Demokratik Partiya qo'lida. Rahbari Xusniy Muborak bo'lgan Milliy Demokratik Partiya parlamentda ko'pchilik o'ringa ega. 2005-yil bo'lib o'tgan saylovlar Misr ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ba'zi bir muhim holatlarni yaqqol aks ettirib ketdi. Biri “Musulmon Birodarlarning” g'alabasi bo'lsa, ikkinchisi oliy tabaqa partiyalarning mag'lubiyati va yana biri boshqaruvdagi Milliy Demokratik Partiya ichidagi o'zaro kurashdir. “Musulmon Birodarlar” asotsatsiyasi 1954-yil rasman taqiqlangan bo'lsada, o'z vakillarini parlament saylovlarida mustaqil nomzod sifatida ko'rsatadi. Natijada Musulmon Birodarlar Milliy Assambleyaning 88 ta o'rnini egallashdi. Hokimiyat vakillari keng va ochiq-oydin qarshilik ko'rsatsalarda Musulmon Birodarlarning yaqqol ustunligini aytib o'tish muhim.

¹ Сапронова М.А. Конституционно-правовой механизм осуществления внешней политики в арабских странах // Конституционно-правовой механизм внешней политики: Учебное пособие. – М.: РОССПЭН, 2004. –С.289.

Musulmon Birodarlar tarafdorlari va milliy politsiyaning saylov kunlaridagi to'qnashuvida tarafdorlarning ko'pchiligi qamaldi ko'pi esa halok bo'ldi. "Nosiriylar"(Jamol Abdul Nosir va uning siyosati tarafdorlari) esa hech qanday o'rin egallay olmadi. Shu bilan birga boshqaruvdagi MDP ko'pchilik o'rin bilan raqiblaridan o'zib ketdi va 336 ta, ya'ni umumiy tarkibning 73% ni egallash nasib etdi. Shundan 10 nafari konstitutsiyaga muvofiq prezident tomonidan tayinlandi. Ammo bulardan faqat 147 tasi J.Muborak boshchilik yangi boshqaruvdagi MDP tomonidan ma'qullandi. Qolgan 179 deputat MDP vakili bo'lib parlamentda mustaqil deputat sifatida harakatlanishi lozim bo'ldi. Bu hol partiyaning yangi yosh vakillari va parlamentning tanlangan spikeri hisoblangan Fathi Surur boshchiligidagi eski vakillari o'rtasida ichki kurash mavjudligini anglatadi. Misrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tadqiq qilar ekanmiz, bu safargi parlament partiya saylovlari murakkab ichki siyosiy sharoitda o'tganligini aytib o'tish lozim. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni boshdan kechirmoqda.¹ Bunga iqtisodiy o'sishning pasayishi(2004-yil 3%ni tashkil qilgan), demografik o'sishning kuzatilishi(2.1%ni tashkil qiladi), chet el investitsiyasining qisqarishi, 2001-yil AQShdagi, 2005,2006-yillarda Misrdagi terroristik xurujlar oqibatida sayyohlar sonining qisqarishi. Inflatsiya oqibatida narxlar 40%gacha ko'tarilgan, ishsizlik oshgan. Ish bilan band aholi atigi 11%ni tashkil qiladi. Misr jami aholisi 73.4mln bo'lgan bir paytda 56mln aholi, ya'ni 4/3 qismi 2 dollardan kam turmush sharoitida yashaydi. Bu aholi davlat tomonidan beriladigan maxsus subsidiyali oziq-ovqat maxsulotlari bilan kun kechirishi mumkin.

2011 yil butun arab davlatlarida "Arab bahori" nomi ostida ommaviy noroziliklar bo'lib o'tdi. Buning o'ziga xos xususiyati shundaki bu noroziliklar oqibatida arab davlatlarining aksariyatida tub ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirildi, shu jumladan Misrda ham. Bu inqilobiy to'lqin oqibatida Misr prezidenti istefoga chiqishga majbur bo'ldi. 2011 yil 4 martda X.Muborak tashabbusi bilan Oliy Harbiy Kengash 19 mart kuni umumxalq referendumi

¹ Ал-Бухари М., Гафуров С. Арабская Республика Египет. Учебное пособие. (под ред акад. Н.Ибрагимова). – Т.: ТашГИВ, 2002. – С.38.

o'tkazilishini elon qildi. Bu referendumga asosan konstitutsiyaning sakkiz moddasiga o'zgartirish kiritildi, bular quyidagilar:

- a) Prezident vakolat muddati to'rt yil bo'lib, faqat ikki muddatga saylanadi;
- b) Faqat Misr fuqarosigina prezident bo'lish huquqiga ega;
- c) Prezident chet el fuqarosiga uylanishi mumkin emas;
- d) Prezident saylanganidan so'ng 60 kun ichida vitse-prezidentni tayinlashi lozim;
- e) Prezidentlikka nomzod ko'rsatish tartibi soddalashtirildi – 15 gubernatorlikdan 30 ming imzo to'plashi, yoki parlamentda 30 deputat qo'llab-quvvatlashi lozim;
- f) Sudyalar saylov jarayoni uchun ma'sul qilib belgilandi;
- g) Favqulotda holat joriy qilish tartibi o'zgartirildi;

Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha prezidentning maxsus vakolatini aks ettirgan 179-modda bekor qilindi.

Milliy Demokratik partiya va “Musulmon Birodarlari” referendumni to'laonli qo'llab-quvvatladi. Mamlakat aholisining 77% referendumni qo'llab-quvvatladi.¹

Shuni xulosa qilib aytganda, mintaqa miqyosida Misr Arab Respublikasida demokratik prinsplarning rivojlanishi jadal suratlarda davom etmoqda. So'nggi yillarda o'tkazilgan saylov jarayonlari va amaldagi hokimiyatning davlat va jamiyat hayotida olib borayotgan demokratik islohotlari Misrda prezidentlik institutining istiqboli yuqori ekanligidan dalolat beradi. Nomzodlarning turli siyosiy guruhlar tomonidan ko'rsatilayotganligi, saylovoldi kompaniyalarida diniy partiyalarning ishtirokiga ruxsat berilishi, umuman saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida amalga oshirilishi bunga yorqin misol bo'la oladi. O'tgan davr mobaynida turli siyosiy holatlardan qat'iy nazar Misrda mustahkam davlat boshqaruv tizimi shakllandi.

¹ Мамед-заде П.Н. О перспективах политической модернизации в арабских странах // <http://www.iimes.ru/rus/stat/2011/08-04-04.htm>

3-BOB BO`YICHA XULOSALAR

Uchinchi bobda bayon etilgan mulohazalar quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishimizga imkon beradi:

1. Bu o'rinda asosiy gap demokratiyaning jamiyat miqyosida to'liq qaror topganligini bildiruvchi asoslar: demokratiya institutsionallashuvi va demokratiyaning sotsial darajada amal qila boshlashligi masalasi ustida bormoqda. Demokratiyaga nisbatan qo'yilayotgan bunday mezonlar davr talablarining mahsulidir. Zero,ki, zamonaviy tendensiyalar demokratiya o'lchamlarini yangi darajalarda kengaytirilishini talab etmoqda. Bunday holat ayniqsa demokratiyaning barcha yetakchi institutlari, ustunlarini zamonaviylashtirilishini ob'ektiv ravishda taqozo qiladi.

2. Mustaqillikni qo'lg'a kiritgan hamma davlatlar, shu jumladan arab davlatlari ham iqtisodiy inqirozlar, harbiy – siyosiy o'zgarishlar, jamiyat sinfiy – strukturasiga radikallarning siqilib kirishi, turmush tarzidagi odatlar va ananaviy tasavvurlarning darz ketishini boshidan kechirdilar. Bularning hammasini G'arb madaniyati, normalari, etikasining ekspansiya qilinishi oqibatida chuqurlashib ketdi. Mana shunday bir holatda tabiiyki arab davlatlari aholisining katta qismining dinda yuz berayotgan muammolardan nafaqat boshpana topish, balki ularga yechim qidirishga urinishi saqlanib qolgan. Shu sababli islomga etiqod qiluvchi har qanday sinf, har qanday ijtimoiy – siyosiy harakat, har qanday partiyalar islom dinidan o'z doktrinalarini, siyosiy dasturlarini dindagi g'oyalar bilan jihozladilar, harakatlari din me'yorlariga asoslanganiga e'tibor qarata boshladilar. Shu bilan bir qatorda zamonaviy talablarga asoslangan harakatlar va boshqa bir qator faktlar – ijtimoiy – iqtisodiy, ichki va tashqi siyosat, sivilizatsiyaviy psixologik – harakatlar asosida islomizmning ko'tarilishi yuz berdi.

3. Arab dunyosida qayd etilmagan g'arbiy namunadagi demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rnatishga bo'lgan urinishlar ochiqchasiga ko'ngilsiz, ya'ni yoqimsiz deb ataldi. Shu bilan birga bu narsa Misrda ham kuzatildi va milliy psixologiyalarning, an'analarning va tarixiy rivojlanishning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

XULOSA

Keltirib oʻtilgan maʼlumotlarni umumlashtirgan holda Misr Arab Respublikasida demokratlashtirishning asosiy bosqichlari va muammolari borasida quydagilarni keltirish mumkin:

1. Arab dunyosining ajralmas qismi hisoblangan Shimoliy Afrika mintaqasining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti, eng avvalo, mazkur mintaqa davlatlarida sodir boʻlayotgan integratsiyalashuv jarayonlarining barqaror davom etishi bilan uzviy bogʻliqdir. Globalizatsiya sharoitlarida zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining istiqbollari esa, davlatlararo munosabatlarning mintaqaviy integratsiyalashuv jarayonlarida rivojlanib borishiga qarab aniqlanadi.

2. Tabiiy resurslar va xom ashyo tanqisligi muammosining mavjudligi va ularni qoʻlga kiritish uchun kurash. “Koʻpdan buyon kuzatilayotgan haqiqat shundan iboratki, nima uchundir erkinlik va demokratiyani, odatda, neft va gazga boy davlatlar, mintaqalarga yoyishga, rivojlantirishga zoʻr beriladi” degan edi davlatimiz rahbari I.A.Karimov. Kundan-kunga jahon hamjamiyatining ehtiyoji ortib borayotgan energetika zahiralariga egalik qilishga xalqaro maydonda gegomonlikni taʼminlovchi vosita sifatida qarash kuchaymoqda.

3. Demokratiya eksportining eng muhim jihati koʻplab davlatlarning xavfsizligiga, siyosiy barqarorligiga tahdid solishdir. Ekspertlarning fikricha, “rangli inqilob”lar usuli iqtisodiy rivojlangan, lekin bir muncha beqaror, oʻzini eplay olmaydigan, biroq muhim geosiyosiy mavqeni egallaydigan, har qanday tojovuzkor mamlakatni oʻz tabiiy resurslari bilan jalb qila oladigan va oʻz milliy mafaatlarni butunlay amalga oshirishga qodir boʻlmagan mamlakatlarga nisbatan qoʻllaniladi.

4. Milliy qadryatlarni hisobga olmagan holda demokratiyani “eksport” qilishning bunday usuli jahonda hukmronlikka intilayotgan davlatlarning geosiyosiy maqsadlariga erishish vositasi boʻlib, bu yoʻlda turli nohukumat tashkilotlar, diniy-ekstremistik guruhlar va oppozisiyalardan ularga har tomonlama yordam koʻrsatish orqali foydalanilmoqda. Bosh maqsad jamiyatdagi ijtimoiy-

iqtisodiy tartibsizlikdan foydalangan holda hokimiyatga o'z tarafdorlarini keltirishdir. Muayyan davlatda hukumat milliy manfaatlarni ta'minlashga qaratilgan va puxta ishlab chiqilgan strategiya asosida qat'iy siyosat yurgizsa, jamiyatda yuzaga muammolarning hal etilishi davlat tomonidan doimo nazorat etib borilsa hamda hukumat organlari va fuqarolar aloqasini mustahkamlovchi ijtimoiy institutlar faoliyati to'g'ri tashkil etilsa, demokratiyani chetdan joriy etishning bu kabi salbiy usullari o'zini oqlamaydi. Jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan tahdidni bartaraf etish imkoni oshadi.

5. Mazkur tadqiqotda demokratiyaning jamiyat miqyosida to'liq qaror topganligini bildiruvchi asoslar: demokratiya institutsionallashuvi va demokratiyaning sotsial darajada amal qila boshlashligi masalasi ustida boradi. Demokratiyaga nisbatan qo'yilayotgan bunday mezonlar davr talablarining mahsulidir.

6. Zamonaviy tendensiyalar demokratiya o'lchamlarini yangi darajalarda kengaytirilishini talab etmoqda. Bunday holat ayniqsa demokratiyaning barcha yetakchi institutlari, ustunlarini zamonaviylashtirilishini ob'ektiv ravishda taqozo qiladi.

7. Mustaqillikni qo'lga kiritgan hamma davlatlar, shu jumladan Misr Arab Respublikasi ham iqtisodiy inqirozlar, harbiy – siyosiy o'zgarishlar, jamiyat sinfiy – strukturasiiga radikallarning siqilib kirishi, turmush tarzidagi odatlar va ananaviy tasavvurlarning darz ketishini boshidan kechirdilar. Bularning hammasini G'arb madaniyati, normalari, etikasining ekspansiya qilinishi oqibatida chuqurlashib ketdi. Mana shunday bir holatda tabiiyki Misr aholisining katta qismining dinda yuz berayotgan muammolardan nafaqat boshpana topish, balki ularga yechim qidirishga urinishi saqlanib qolgan. Shu sababli islomga etiqod qiluvchi har qanday sinf, har qanday ijtimoiy – siyosiy harakat, har qanday partiyalar islom dinidan o'z doktrinalarini, siyosiy dasturlarini dindagi g'oyalar bilan jihozladilar, harakatlari din me'yorlariga asoslanganiga e'tibor qarata boshladilar. Shu bilan bir qatorda zamonaviy talablarga asoslangan harakatlar va boshqa bir qator faktlar – ijtimoiy –

iqtisodiy, ichki va tashqi siyosat, sivilizatsiyaviy psixologik – harakatlar asosida islomizmning ko‘tarilishi yuz berdi.

8. Arab dunyosida qayd etilmagan g‘arbiy namunadagi demokratiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rnatishga bo‘lgan urinishlar ochiqchasiga ko‘ngilsiz, ya’ni yoqimsiz deb ataldi. Shu bilan birga bu narsa Misrda ham kuzatildi va milliy psixologiyalarning, an‘analarning va tarixiy rivojlanishning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

9. Mintaqadagi xavfsizlikni ta‘minlash, demokratik jarayonlarni rivojlantirish va ko‘zlangan siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, bu yo‘lda to‘sqinlik qilayotgan har qanday sabab va omillarni chuqur nazariy-siyosiy tahlil qilishni taqozo etadi. Ularning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi shart-sharoitlarini o‘rganish, eng avvalo, Arab davlatlarida yuz berayotgan siyosiy jarayonlar rivoji va bugungi umumiy vaziyat bilan uzviy bog‘liqdir.

Yuqorida keltirilgan nazariy xulosalarga asoslangan holda quyidagi amaliy tadbir va takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Arab davlatlari, xususan Misrdagi siyosiy jarayonlar, demakratlashuv jarayonlari barqaror davom etishi, birinchi navbatda mamlakatdagi va qolaversa mintaqa davlatlaridagi ichki vaziyatlar barqaror bo‘lishini taqazo etadi.

2. Arab davlatlaridagi demokratlashtirish jarayonlarining mavjud imkoniyatlar doirasida izchil davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir. Siyosiy va iqtisodiy integratsiyalashuv yo‘lidan borayotgan Arab davlatlarining jahonning boshqa mintaqalari bilan manfaatli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishida ham mazkur jarayonning muntazam davom etishi muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda jahon siyosiy maydonida yetakchi kuch hisoblangan AQSh va Yevropa Ittifoqining jiddiy qo‘llab-quvvatlashiga erishish uchun ham demokratlashtirish jarayonlarini davom ettirish lozim.

3. Mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy hamkorlik aloqalarini aniq va manfaatli loyihalar asosida jadal rivojlantirib borishi bosh mezonga aylanishi lozim. Globalizatsiya sharoitida mintaqa davlatlarining mintaqaviy va global integratsiyalashuvining negizini iqtisodiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirib borish

tashkil etadi. Shuningdek, mavjud milliy iqtisodiyotlarning o'zaro integratsiyalashuvida ham bunday siyosat yuritilishi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

4. Mintaqa davlatlarining yangicha hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yo'lidan borib xavfsizlik borasida ham jiddiy munosabatlarga kirishishi talab qilinadi. O'z navbatida, siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga tahdid solishi mumkin bo'lgan diniy fundamentalizm va ekstremistik harakatlarga qarshi kurashishda ham o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirib borish muhim ahamiyatga ega.

5. Arab davlatlari, xususan Misrdagi demokratlashtirish jarayonlarining natijasi mintaqa davlatlarining o'zaro integratsiyalashuviga turtki bo'ladi. Bu jarayonlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan kuchli ichki siyosatga ham bog'liq. Bugungi kunda aksariyat Arab davlatlari ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash sohasi va aholini ijtimoiy himoya qilishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Mintaqaviy integratsiyalashuv jarayonlarining muvaffaqiyatini ta'minlashda ushbu jabhalarning tubdan isloh qilinishi va bu borada yangi dasturlarning joriy qilinishi zarurati vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahbariy adabiyotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –364 б.
- 1.2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Т.2. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –380 б.
- 1.3. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. –429 б.
- 1.4. Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. –Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –376 б.
- 1.5. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. –Т.8. –Т.: Ўзбекистон, 2000. –528 б.
- 1.6. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. –Т.9. –Т.: Ўзбекистон, 2001. –432 б.
- 1.7. Каримов И.А.. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. –Т.10. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –432 б.
- 1.8. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11. –Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
- 1.9. Каримов И.А.. Тинчлик ва ҳафсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. –Т.12 –Т.: Ўзбекистон, 2004. –400 б.
- 1.10. Каримов И.А.. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. –Т.13. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –264 б.
- 1.11. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлиштириш, ислохатларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. –Т.15. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –320 б.

- 1.12. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. –Т.17. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –264 б.
- 1.13. Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –144.б.
- 1.14. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –326.б.
- 1.15. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Т.:Маънавият, 2008. –176 б.
- 1.16. Каримов И.А. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисида сўзланган нутқ. // «Халқ сўзи». 2010 йил 22 сентябрь.
- 1.17. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. –Т.:Ўзбекистон, 2010. – 80 б.
- 1.18. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақиликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. - 440 б.

2. Meyoriy – huquqiy hujjatlar

- 2.19 О'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi. – Т.: О'zbekiston, 2008.
- 2.20 О'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsplari to'g'risida. – Т.: О'zbekiston, 1996.

3. Kitoblar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalar

- 3.21 Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. –Т.:Шарқ, 2005. – 456 с.
- 3.22 Алимов Р., Арифханов Ш. и др. Центральная Азия: формирование новой архитектуры безопасности. –Т.:Шарқ, 2002. –314 с. Ал-Бухари

- М., Гафуров С. Арабская Республика Египет. Учебное пособие. (под ред. акад. Н.Ибрагимов). – Т.: ТашГИВ, 2002. – 110 с.
- 3.23 Ас-Сайид Салим М., Арафат И., Ибрагимов Н., Иногамов С. Узбекистан: государство и его лидер (перевод на рус.яз. Международного фонда Имама ал-Бухари). –Т., 1999. –268 с.
- 3.24 Ахмедов Э., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –323 б.
- 3.25 Бжезинский З. Великая шахматная доска. –М.,Меж.отношение, 1999.
- 3.26 Васькин К., Касымов А. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. –Т.: Ўзбекистан, 1994. –154 с.
- 3.27 Ёвкочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. –Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. –252 с.
- 3.28 Конституции зарубежных государств: Учебное пособие/Сост. проф. В.В.Маклаков. - 4-е изд., перераб. и доп. –М.:Волтерс Клувер, 2003. – 478 с.
- 3.29 Ланда Р.Г. История арабских стран. –М., 2005. –353 с.
- 3.30 Мунавваров З.И., Хасанов А. Ислом: Ханафийлик ва ваххобийлик. – Т.: Мовароуннахр, 1998. –87 б.
- 3.31 Нартов Н. Геополитика. – М.: ЮНИТИДАНА, 2002. –307 с.
- 3.32 Одилқориев Х.Т, Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик . –Т.: Ўқитувчи, 2008. – 344 б.
- 3.33 Сапронова М.А. Государственный строй и конституции арабских республик. –М., 2003. –168 с.
- 3.34 Сахаров Н. А. Институт президентства в современном мире. –М.: Юридическая литература, 1994. –318 с.
- 3.35 Сахаров Н.А. Институт президентства в современном мире. –М.: Юридическая литература, 1994. – 521 с.
- 3.36 Шарапов С, Каримова Н, Шарапов А, Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран востока и запада. – Т.: Фан, 2006. – 404 с.

- 3.37 Юрченко В.П. Египет: проблемы национальной безопасности (1952 – 2002 гг.) –М., 2003. – 399 с.
- 3.38 Гафуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў., Сиёсатшунослик асослари:Ўқув қўлланмаси. –Т.:Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонасининг нашриёти, 2006. – 239 б.
- 3.39 Ғиясов Б. Камилжанов А, Мустапова Х Международные отношения и Дипломатия на современном этапе - Т.: ТашГИВ, 2009. – 318 б.

4. Avtoreferatlar

- 4.41 Мунавваров З.И Страны Аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях 20 века: автореф. дисс. ... док. полит. наук. – Т., 1997. –26 с.
- 4.42 Абдуллаев Н.А. Региональная политика Сирийской Арабской Республики в свете ближневосточного урегулирования. Автореф. дисс. ...канд. полит. наук. – Т.: ТашГИВ, 2000. –28 с.
- 4.43 Мухаммадсидиков М.М. Саудия Арабистонининг Қизил денгиз минтақасида хавфсизликни таъминлашсиёсатининг хусусиятлари. С.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. –Т.:ТошДШИ, 2005. –27 б.
- 4.44 Таха Фарғали Абдел Хаким. Процессы становления и развития современных египетско-узбекских отношений. Автореф. дисс. ...канд. полит. наук.–Т.: ТашГИВ, 2002. –27 с.
- 4.45 Шаниязов К.К. Палестинская проблема в ближневосточной политике США. Автореф.дисс. ...канд.полит.наук. –Т.: ТошДШИ, 2005. –27 с.
- 4.46 Абдисатторов А.А. Форс кўрфази араб давлатлари ташқи сиёсатида “ислом омили”нинг сиёсий таҳлили. с.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. –Т.: ТошДШИ, 2005. –26 б.

5. Davriy nashrlar

- 5.47 Арунова М. Трудный путь к миру // Азия и Африка сегодня. –2002. – №11. –С.15-18.

- 5.48 Яшин И.Г. «Братья-мусульмане» как оппозиционная сила в Египте после парламентских выборов 2005 г. // Египет, Ближний Восток и глобальный мир. –М., 2006. –С.29-34.
- 5.49 Ганковский Ю.В. Ибрагим-бек Локаи (1889-1992).// Азия и Африка сегодня. –2004. –№4. –С.60-63.
- 5.50 Толипов Ф.Ф. Испытание геополитики терроризмом и антитерроризмом // Россия и Мусульманский мир. –2008. –№8 (122). – С.36-40.

6. Internet manbalari

- 6.51 Демократизация арабского мира может стать одним из наиболее неординарных инструментов борьбы с радикальными исламистами // <http://www.moldova.ru/index.php?tabName=articles&owner=36&id=478>
- 6.52 Информационный центр Ближний Восток // <http://middleeast.narod.ru/index.htm>
- 6.53 Мамед-заде П.Н. О перспективах политической модернизации в арабских странах // <http://www.iimes.ru/rus/stat/2004/08-04-04.htm>
- 6.54 Перспективы экономического роста в арабских странах // Межрегиональный центр делового сотрудничества // <http://www.mcds.ru/default.asp?Mode=Review>
- 6.55 Рагимов Н. Современная панорама исламского мира // <http://www.qutb.org/arxiv/10.htm>
- 6.56 Русско-арабский Деловой Совет/ <http://www.russarabbc.ru/ru/analitica/.htm>
- 6.57 Россия и объединения арабских государств. Российское Агентство международной информации // <http://yakovenko.rian.ru/12/20040304/133.html>
- 6.58 Справочник стран мира // <http://basni.narod.ru/strannik/a/index.htm>

- 6.59 Юрченко В. П. Военное сотрудничество арабских монархий: намерения и реальность//

[http://www.yandex.ru/yandvft32?q"1967269332&d"2399871](http://www.yandex.ru/yandvft32?q)